

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI**

**AL-XORAZMIY NOMIDAGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI**

Estetika

URGANCH – 2010

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

**Al-xorazmiy nomidagi
urganch davlat universiteti**

Safarbaev M., Iskandarova Z., Xo'janiyazov S.

E s t e t i k a

(oliy o`quv yurtlari talabalari uchun ma'ruzalar matni)

URGANCH – 2010

Ushbu ma'ruzalar matni Urganch Davlat Universiteti Tarix fakulteti Ilmiy kengashining 31 avgust 2010 yil 1-son majlisida va Universitet ijtimoiy-gumanitar fanlar kengashining 7 sentyabr 2010 yil 1-son majlisida qayta muhokama etilib, chop etishga tavsiya qilindi.

Avtorlar: f.f.n. dots.Safarbaev M.
p.f.n. dots Hujaniyazov S
kat.o`qit. Iskandarova Z.

Taqrizchilar: kat.o'qituvchi R.Kurbanniyazova.

KIRISH

Estetika fani ijtimoiy fanlar ichida o`ziga xos shunday bir o`ringa egaki, u go`zallikni o`rganadi va o`rgatadi. Go`zallik qanday paydo bo`lgan, go`zallik nima o`zi, nima uchun go`zallik bilan to`qnashgan vaqtda inson vujudini ajib his - tuyg`ular qamrab oladi, nima uchun inson faqat go`zal narsalar haqida orzu qiladi? Bu savollar beixtiyor har bir insonni qiziqtirsa kerak. Go`zallikka intilishda va go`zal narsalarni tanlashda qandaydir ilohiylik mavjuddek, ya'ni bu xususiyat insonga ilohiy berilgandek. Balki shunday hamdir, Olloh taolo yer yo`zini chiroyli va ko`rkam daraxtlar bilan bezatdi, ularni turli xildagi noz- ne'matlar bilan to`ldirdi, o`ziga xos tarzda hayvonot va hashorot dunyosini ham go`zal qilib yaratdi. Lekin ular ichida noz- ne'matlardan bahramand bo`la turib, yaratgan egasiga hamdu-sanolarni aytib, shukr qiladigan mavjudot yo`qligi Olloh taoloni odamzotni yaratishga undadi va u odamni shunday go`zal qilib yaratdiki, osmonu falakdagi barcha farishtalar uning go`zalligi, aqlu- zakovati va donoligi oldida lol qoldilar va bosh egdilar. Faqatgina shayton undagi bor narsalarni va go`zalligini tan olmadi. Bu albatta rivoyat, lekin har qanday rivoyat asosida ozgina bo`lsa-da haqiqat yashiringan bo`ladi.

Estetika fanini chuqur o`rgangan inson hayotda hech qachon adashmaydi, o`ziga berilgan umrni iloji boricha go`zal qilib o`tkazishga erishadi. shuning uchun ham ma'naviy barkamollik asosida eng avvalo go`zallikni his qila bilish va undan beg`araz foydalanish yotadi. Go`zallikni qadrlamagan odamdan hech qachon ezgulikni, yaxshi amallarni qiladigan inson etishib chiqmaydi.

Ma'naviy barkamollik asosida go`zallikka intilish va uni yaratish yotar ekan, "Olloh go`zal, u go`zallikni sevadi. Uning yaratgan barcha narsalari go`zal va men ham unga go`zallikni yaratish bilan javob berishim zarur" degan asosiy g`oyaga tayanishni unutmasligi lozim.

Ushbu qo`llanma estetika fanini o`rganishda sizga yaqindan yordam beradi. Mustaqillik tufayli eski aqidalardan voz kechilgan bir paytda milliy istiqlol g`oyasini yaratish, halqimiz ma'naviyatini yanada yuksaltirish kabi vazifalar davlatimiz oldidagi ustuvor vazifalardan bo`lib qolmoqda. Bunda ijtimoiy fanlarning o`rni va ahamiyati yuksak ekanligini Prezidentimiz I.A.Karimov shunday deb ta'kidlagan edi: "Ko`p asrlik tarhimiz shuni ko`rsatadiki, inson dunyoqarashi shakllanishida ma'rifatning, xususan

ijtimoiy fanlarning o`rni beqiyos. Ularning barchasi odamning intellektual kamolotga erishuvida katta ta'sir kuchiga ega.”¹

Estetika fani ham shunday o`ziga xos ta'sir kuchi bilan harakatlanadiki, bunda u barcha ijtimoiy fanlarni o`zida biriktirib, insonning ruhiy dunyosiga, uning hayolotiga, uning his- tuyg`ulariga, uning ongiga eng birinchi bo`lib ta'sir o`tkazish qudratiga ega. shuning uchun ham estetikani o`rganish va go`zallik nazariyasi to`g`risida tasavvurga ega bo`lish har bir insonga foydalidir.

Har tomonlama barkamollikka erishgan, intellektual jihatdan mukammallikka ega bo`lgan shahslargina buyuk maqsadlariga erisha oladilar va davlatimiz ravnaqiga o`z ulushlarini qo`shgan holda, uni jahon tsivilizatsiyasiga qo`shilishida fidoyilik ko`rsata olishlari mumkin. Zero, Qadimiy va navqiron Avestoda uqtirilganidek, ezgu so`z - bu eng go`zal so`zdir, ezgu o`y - bu go`zallik haqidagi o`ylardir, ezgu amal - bu eng go`zal amallardir. Shunday ekan, o`z ma`naviyatimizga xos va mos go`zallik yaratish har birimizning vazifamizdir.

¹ Karimov I.A. Milliy istiklol mafkurasi- xalk e'tikodi va buyuk kelajakka ishochdir. Fidokor gazetasi muxbiri savollariga javoblar. T., Uzbekiston 2000., 33-bet.

**1-mavzu: Estetika fanining bahs mavzusi,
maqsadi va vazifalari.**

Reja:

1. Estetikaning asosiy mavzusi.
2. Estetikaning ijtimoiy fanlar sistemasidagi o`rni.
3. Estetika fanining maqsadi va vazifalari.

Har bir fan o`zining o`rganadigan predmeti, mavzui va tadqiqot doirasi bilan ajralib turadi. Ho`sh, estetika fani nimani o`rganadi, uning maqsadi va vazifalari nimadan iborat, degan savol estetika tushunchasini birinchi bor eshitgan vaqtda tug`ila boshlaydi.

“Estetika” so`zi yunoncha so`z bo`lib, “sezish”, “his qilish qobiliyati” kabi ma`nolarni anglatadi, ya`ni nimani sezish, nimani his qilish mumkin? Tabiat go`zalligini, insoniy fazilatlar go`zalligini seza bilish, his qila bilish mumkin, umuman go`zallikni har yyerda, inson qayerda bo`lmasin uni seza, his qila bilish qobiliyatidir. Qadimgi yunonlar insonning his- tuyg`ulariga ta`sir etuvchi barcha narsalarni estetika sohasiga kiritganlar. Estetika fani dastlab falsafaning bir bo`lagi sifatida go`zallik to`g`risidagi ilk falsafiy qarashlarni o`zida aks ettira boshlagan, ya`ni insonning voqelikka estetik munosabatini, uning badiiy rivojlanish jarayonini o`rgana boshlagan. shunday faylasuflardan Pifagor, Geraklit, Sokrat, Aflotun va Aristotellarni aytib o`tish mumkin. shunday bo`lsada, estetikani alohida ilm-fan sohasiga aylanishi 18- asrda nemis faylasufi Aleksandr Baumgarten tomonidan amalga oshirilgan. shunga qadar estetika falsafaning bir bo`lagi sifatida amal qilib kelgan. Umuman olganda estetika insonlar jamoa bo`lib yashay boshlaganlaridan rivojlana borgan, ya`ni inson tabiatga yaqinroq bo`lganidan keyin tabiat go`zalligini payqash, go`zal joylarga borib maskanlar qurish, tog` qoyalariga suratlar chizish, turli xil hayvonlarning suyaklaridan taqinchoqlar, terilaridan kiyim-kechaklar tayyorlashlari, ularning go`zallikni his qila bilish qobiliyatining rivojlanganligidan dalolat beradi.

Olamdagi tirik jonzorlar ichida aql-zakovat sohibi bo`lgan odam yorug`likni qorong`ulikdan, ranglarni oq-qoradan ajrata olish, kulguli va fojiali holatlarni fahmlab, mushohada qila

olish-u, nafosat, go`zallik, ezgulik, ulug`vorlik, olijanoblik olamiga intilish bilan birgalikda hunuklik, hudbinlik, loqaydlik, johillik, pastkashlik kabi illatlarga qarshi kurash olib borish qobiliyati ham in'om etilgan. Inson shu qobiliyati tufayli o`zligini anglaydi va o`z - o`zini har tomonlama rivojlantirib, komil inson bo`lib yetishishga harakat qiladi. ***Inson tabiatni o`zlashtirar, madaniylashtirar ekan, u shu borliqni estetik jihatdan o`zlashtiradi, shuning uchun ham estetika fani insoniyat tomonidan borliqni estetik o`zlashtirish mohiyati va uning qonuniyatlarini o`rganadi.***

shunday qilib, «estetika» tushunchasiga batafsilroq to`htalamiz. Estetika so`zi ko`pincha narsa va hodisalarning rang-tusi, shaklidagi mukammallik, mutanosiblik, latofat ma`nolarida ham qo`llaniladi. Ba`zi bir holatlarda estetika so`zi nafosat so`zi bilan ham sinonim so`z sifatida ishlatiladi, yoki aynanlashtiriladi. Estetika fanining tadqiqot doirasi nihoyatda keng bo`lganligi sababli nafosat tushunchasi badiiy ijod namunalariga nisbatan qo`llaniladi, lekin u o`zida bir butun fanni ifoda eta olmaydi. Bundan tashqari, estetika tushunchasi barcha narsalarga did bilan yondoshish, kishilarning yaxshi fe'l-atvori, muomalasi, nutqi, did bilan kiyinishi va atrofga munosabati nuqtai nazaridan ham ishlatiladi.

Estetika fan sifatida voqelikni go`zallik asosida in'ikos etib, inson amaliy faoliyatining hamma sohalarida go`zallik namunalarini hosil qilgan holda, badiiy ijodning umumiy qonunlarini o`rganadi. Estetik qarashlarimiz, tasavvurlarimiz, baholarimiz har birimizda o`ta individual (o`zimizga xos) bo`lgani sababli, ularni holisona baholash va izohlash estetika fanining vazifalaridan biridir.

Go`zallik olami juda bepoyon va serqirradir. Tasavvur etib ko`ring-a, ko`m-ko`k moviy osmon, quyosh botayotgandagi manzara, kamalakning jilvalanishi, endigina ochilgan gulning tarovati, tovuş patlarining tovlanishi, dengiz shovqini, tungi cheksiz osmon, uzoq o`lkalarga uchib ketayotgan turnalar, oltin ko`z paytida daraxtlardan to`kilayotgan yaproqlar, tog`ning qorli cho`qqilari, oqib tushayotgan sharshara, yog`ayotgan yomg`ir shovqini yoki qor parchalari, qadimdan qolgan binolar, qolaversa aql va mahorat bilan ishlangan buyum oldida inson qanchalik zavq-shavq olishi, hayratlanishi, sevinishi va achinishi mumkin. Ko`rinib turibdiki, insoniyat faqat go`zallik bilan qurshalgan, inson o`sha go`zallikni seza bilishi va shulardan bahramand bo`lib, go`zallikning hali no`malum bo`lgan qirralarini yarata olishi zarur. shunday ekan, biz go`zallik olami yoki go`zallik deganda, qandaydir alohida, o`z holicha mavjud bo`lgan predmetlarni, hodisalarni va hatti-harakatlarni emas, balki bizning real olamimiz tabiat, mehnat, ijtimoiy

faoliyat, hulq-atvor, turmush hamda voqelikni badiiy obrazlarda aks ettirgan san'atni ham tushunamiz.

Estetika fanining **asosiy mavzui bo'lgan go'zallik** ichki va tashqi ma'nolarga ega. Insonning chehrasi, qomatidagi go'zallik ma'lum qimmatga ega bo'lsada, bu hali to'la ma'nodagi go'zallik emas. Qachonki inson tashqi qiyofasi bilan birga, uning ichki olami- hulki, fe'l-atvori, mehnatsevarligi, ezgulikka intilishi va boshqa jihatlari go'zallik hislatlari bilan muofiq bo'lsa, ular mukammal go'zallik sifatini oladilar. Demak tabiatdami, jamiyatdami, san'atdami hohlagan bir predmetimiz tom ma'nodagi go'zallik hissini uyg'otar ekan, u ham shaklan, ham mazmunan go'zal bo'lishi zaruriy shartlardan biridir. Insonlar tartibsizlik, nojo'yalik, nomuofiqlik salbiy munosabat tug'dirishini, o'zidan qochiruvchi taassurotlar hosil qilishini allaqachonlar payqaganlar. Aksincha, tartiblilik, xushbichimlilik ijobiy ta'sir etib, yaxshi taassurotlar hosil qilgan. Qadimgi yunonlar tartibsizlikni, hunuklikni «xaos» so'zi bilan, go'zallikni, xushbichimlilikni, o'zaro uyg'unlikni «kosmos» so'zi bilan belgilaganlar. Ular tabiatning predmet va hodisasining birinchi go'zallik belgisi - butun qismlarning uyg'unligida, ya'ni garmonikligida deb, bilganlar. Garmoniya – bu predmet tashqi qiyofasining ichki mohiyatiga mos kelishi, yaxlit qismlarning tartibliligi, uyushganligidir. Ana shu ma'noda garmoniya inson tomonidan yaratilgan go'zallikning birinchi sharti hamda hayotning ijobiy xususiyati sifatida idrok etiladi. Garmoniya bo'zilgan, uyg'unlik bo'lmagan joyda so'nish va oqibat natijada o'lish boshlanadi.

Go'zallikka intilish tabiiy ehtiyojdir. Bu ehtiyoj tarbiya vositasida namoyon bo'ladi. Go'zallik qurshovida yashagan inson bilan hunuklik muhitida o'sgan odam o'rtasida albatta katta farq mavjud. Go'zallik tarbiyasi insonni ma'naviy kamolatga etaklaydi, estetik his-tuyg'ularni taraqqiy ettiradi. Estetik his-tuyg'u insonni qurshab turgan muhitdagi ruhiy tuyg'u paydo qiluvchi go'zallik va hunuklikni, ulug'vorlik va pastkashlikni, fojiaaviylik va kulgulilikni idrok etish va baholash qobiliyatidir.

Estetika fani falsafiy bilimlar tizimida o'ziga hos o'rin egallaydi. U, eng avvalo, falsafiy bo'lib, uning nazariy va uslubiy asoslarini falsafiy tafakkur nazariyasi va tarihi tashkil qiladi. Estetika shu bilan birgalikda boshqa ijtimoiy fanlar bilan ham o'zviy bog'liq va aloqador. Eng birinchi navbatda estetika fani ruhiyashunoslik (psixologiya) fani bilan o'zaro bog'liq. Bu bog'liqlikning asosi shundaki, voqelikka estetik munosabatning barcha tomonlari estetik did yoki estetik his-tuyg'u, badiiy ijod yoki badiiy idrok qilish jarayonlari ruhiyat mezoni bilan o'lchanadi. Estetika insonning

ruhiy kechinmalari, his –tuyg`ulari bilan bevosita bog`liq, ya'ni estetika fani inson ruhiy hayotining eng murakkab va nozik tomonlarini qamrab oladi. Estetikaning tarkibiy qismlarini ruhiyashunoslik fanining erishgan yutuqlari va hulosalaridan foydalanmasdan turib tasavvur etib bo`lmaydi.

Estetika san'atshunoslik fanlari bilan ham o`zaro aloqadorlikda rivojlanadi. Estetika san'atshunoslik bilim sohalari uchun boshlangich nazariy va uslubiy asos bo`lib xizmat qiladi. Ayni paytda u adabiyotshunoslik, musiqashunoslik, teatrshunoslik va boshqa shu kabi sohalar bilan ham hamkorlik qilish jarayonida rivojlanib bormoqda. Estetika fani san'atdan bahramand bo`luvchilar – tomoshabin, kitobhon, tinglovchi uchun ham katta ahamiyat kasb etadi. Ular san'at haqida qancha ko`p bilsalar, san'at mohiyati va burch vazifalari haqida qanchalik chuqur va xaqqoniy tasavvurlarga ega bo`lsalar, ularda san'at bilan doimiy muloqotda bo`lishga intilish kayfiyati shunchalik kuchli bo`ladi. Estetika fani san'at haqida faqat bilimlar beribgina qolmay, tomoshabin, kitobhon, tinglovchilarda badiiy ijodga nisbatan qiziqish uyg`otadi, badiiy ijod esa inson faoliyatining eng murakkab turi, eng ko`p aqliy va jismoniy kuch talab qiladigan sohadir.

Estetika fani sotsiologiya fani bilan ham o`zviy bog`liq. Bu bog`liqlik shundan iboratki, bo`sh vaqt tizimida san'atning o`rni shahsning estetik madaniyati bilan mehnat faoliyati o`rtasidagi aloqadorlikka taalluqli bo`lgan ma'lumot va axborotlarni jamlash va ilmiy qayta ishlab chiqishda yaqqol ko`zga tashlanadi.

Estetika fanining hozirgi davrga xos xususiyatlaridan biri shuki, bu sohaga kibernetika va matematika kabi fanlarning usul va vositalari ham izchil kirib kelmoqda. Ayniqsa, kompyuterlarning insonga ta'siri va halq xo`jaligini rivojlantirishda go`zallik qonuniyatlarini rivojlantirish, go`zallik chegaralarini yanada kengayishiga va inson aqli bovar qilmaydigan hodisalar sodir bo`lishiga sabab bo`lmoqda.

Estetikaning amaliyot uchun ahamiyati nimada? U voqelikka qanday ta'sir o`tkazadi? Estetika ijtimoiy bunyodkorlik jabhasida qay tarzda ishtirok etadi? Bu savollarga javob berish ham estetika fanining asosiy mavzulari hisoblanadi.

Estetika fani boshqa fanlar bilan qanchalik bog`liq bo`lmasin, uning asosiy mavzui go`zallik va hunuklikni ajrata bilish, go`zallik olamiga hunuklik olami doimo zid bo`lib, ular o`rtasidagi kurashning domiyligi - estetika fanining mohiyatini, uning falsafiy fan ekanligini ta'kidlaydi. shunday ekan, ***estetika fanining maqsad va vazifalari*** ham jamiyat

ijtimoiy-ma'naviy va madaniy-marifiy rivojlanish jarayoni bilan uyg'unlikda namoyon bo'ladi. Mamlakatning rivojlanish surati yangicha mustaqil fikrlaydigan, ijtimoiy faol, ahloqiy-estetik jihatdan tarbiyalangan, ma'naviy etuk mutaxassislarga bo'lgan talabni alohida bosqichga ko'tardi. Mulk shakllarining hilma-hilligi, huquqiy madaniyatni yuksaltirish, bozor munosabatlari sharoitida tadbirkorlikning kuchayishi, ishlab chiqarishga yangicha texnologiyalarning kirib kelishi yuqori darajada tarbiyalangan va yuksak malakaga ega bo'lgan mutaxassislarni taqazo etayapti. Mustaqil davlatning oliy maqsadlarini amalga oshira oladigan mutaxassislarni shakllantirish uchun ularning shahsiyati ijtimoiy talablarga javob bera oladigan tarzda kamolga etgan bo'lishi lozim.

Estetika fani ham o'z oldiga ana shunday barkamol insonni shakllantirishni maqsad va vazifa qilib belgilagan. Har bir insonda yuksak estetik didni shakllantirish, go'zallikni har qayerda ko'ra bilish va qadrlashni o'rganish va o'rgatish estetika fanining boshqa ijtimoiy fanlardan farqli ravishda o'z oldiga qo'ygan maqsadlaridan biri hisoblanadi. Albatta maqsadga erishish uchun bir qator vazifalarni amalga oshirish zarur. Yuksak estetik didga ega bo'lgan barkamol shahsni shakllantirish yo'lida estetik tarbiya vositalari muhim omil bo'lib xizmat etadi. Estetik tarbiya tizimi oila va maktab, ishlab chiqarish jamoalari, mafkura muassasalari, ijtimoiy-siyosiy va ommaviy tashkilotlar kabi bo'g'inlarda yaxlit holda amal qilgandagina kutilgan natijalarga olib keladi. O'zbekiston mustaqil davlati fuqarolarining estetik ongini, estetik didini rivojlantirib, ularda go'zallikka bo'lgan munosabatni yanada yuksaltirib, butun jahonda o'ziga xos munosib o'rin egallash, qolaversa malakatimiz demokratik rivojlanish jarayoniga o'z hissasini qo'shish – estetika fanining dolzarb vazifalaridan hisoblanadi.

Tayanch tushunchalar:

Estetika, go'zallik, mukammallik, garmoniya, nafosat, estetik ehtiyoj, borliqni estetik o'zlashtirish, kosmos, xaos, estetik qarashlar va nazariyalar.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Estetika» so'zi qaysi ma'nolarda qo'llaniladi?
2. Estetik fikrlar dastlab qayerda shakllana boshlagan?

3. Yunon faylasuflaridan qaysi birlari estetik fikrlarni ilgari surganlar?
4. Estetika qachon ilm-fan sohasiga aylangan?
5. Estetika fani boshqa ijtimoiy fanlar bilan qanday bog`liq?
6. Estetika o`z oldiga qanday maqsad va vazifalarni belgilab qo`ygan?

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.: O`zbekiston 1998.
3. Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O`zbekiston 1999.
4. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e`tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T. Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
7. Estetika. Slovar. M. 1989.
8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T. 1996 .
9. Falsafa qomusiy lug`ati. (Q. Nasarov tah. ost.) Toshkent 2004.
10. Martynov V.F. «Go`zallik falsafasi» Minsk 1999.

2 – mavzu: Qadimgi Sharq va Evropa mamlakatlarida estetik qarashlar tarihi. (2 soat)

Reja:

1. Estetik qarashlarning eng qadimiy sarchashmalari.
2. Qadimgi Yunoniston va Rimda estetik qarashlarning vujudga kelishi va rivojlanishi.
3. O`rta asrlarda va Yangi davrda Evropada estetik qarashlar.
4. XX asr estetik qarashlari.
5. Evropa mamlakatlarida estetik qarashlar tarhini o`rganishning ahamiyati.

Har bir fan sohasi o`zining uzoq o`tmishiga ega bo`lgani kabi, estetika fani ham juda boy tarihga ega. U dastlab falsafaning bir bo`lagi sifatida amal qilgan bo`lsa-da, asrlar davomida rivojlanib, o`zining muhim jihatlari bilan alohidagi fan bo`lib ajralib chiqqan. Bu to`g`rida o`tgan mavzularda qisqacha to`htalib o`tilgan edi.

Estetika fanining vujudga kelishida estetik fikrlar va g`oyalar eng birinchi «kurtaklar» vazifasini o`taydi. Estetik fikrlar deganda nimalarni tushunamiz? Insonlar qadim zamonlardan tabiat go`zalligini, undagi barcha jonzot va o`simliklar go`zalligini payqay olganlar. Shuning uchun ham ular tabiatning eng so`lim va go`zal maskanlariga borib yashaganlar, turli xil hayvon terilaridan yoki parlaridan kiyim-kechaklar tayyorlaganlar, suyaklaridan taqinchoqlar va kundalik hayotda zarur bo`ladigan predmetlarni yasay olganlar va albatta tog` qoyalariga suratlar chizib qoldirganlar. Bundan ko`rinib turibdiki, qadimgi odamlar go`zallikni eng sof xolda in`ikos eta olganlar. Eng dastlabki estetik g`oyalar Qadimgi Sharq mamlakatlarida xususan Misr, Hindiston va Hitoy mamlakatlarida ibtidoiy to`zumning qulashi va quldorlik to`zumining vujudga kelishi bilan yo`zaga kela boshlagan. Falsafa va fan sohasida olib borilgan tadqiqotlar estetik g`oyalar aynan Sharq mamlakatlarida paydo bo`lganligini ta`kidlab berdi, chunki yaqin o`tmishda estetik g`oyalar dastlab Qadimgi Yunonistonda shakllangan, degan fikr-mulohazalar mavjud edi.

Estetik dunyoqarash – go`zallikni anglay boshlash eramizdan oldingi IV asrdan boshlab qadimgi Misrda shakllana boshlagan. Qadimgi Misrliklar sivilizatsiyasi o`zining ulug`vorligi, «ulkanligi» bilan ajralib turadi. Bunda qanday qilib bir vaqtning o`zida ishlab chiqarish kuchlarining juda past darajasi bilan shunday katta va ulug`vor yodgorliklarni yaratish mumkinligi aql bovar qilmaydigan hodisalar jumlasiga kiradi. O`zining kundalik hayotida Misrliklar uy-joylarni loy va daraxtlardan qurishgan bo`lsa, qabrlarni va ibodatxonalarni toshdan qilishgan, toki ular qurgan imoratlar asrlarga dosh bersin va abadiy tursin, shu bilan esa vaqtning ustidan g`alaba qozonish mumkindek tuyulgan. Qadimgi Misrliklar hamma narsani o`z qa`riga tortuvchi vaqtga qarshi o`z munosabatlarini shu zaylda ko`rsatganlar. Aynan piramidalarining (ehromlarning) paydo bo`lish sabablari ham shunday. Bizga juda yaxshi ma`lumki, Misr piramidalari dunyodagi ettita mo``jizalarning biridir. shulardan Xeops piramidasi - piramidalar ichida eng kattasi hisoblanadi. Bunda u 2,5 milliondan ortik blok - toshlardan hech qanday moslamalarsiz va bir-birlariga yopishtiruvchi ashyolarsiz joylashtirilgan. Heops piramidasining balandligi 147 metr, asosi esa salkam 1 kilometrga teng. Bu piramidaga tosh olib kelish uchun qurilgan yo`l 10 yilga teng bo`lgan, piramidaning o`zi esa 20 yil davomida qurib bitkazilgan. Piramidalarni qurishga qullar, hunarmandlar va dehqonlarni yollaganlar, natijada hunarmandchilik va chorvachilik sohalari rivojlanmasdan qolgan. Dehqonlar va hunarmandlarning noroziligidan keyin uncha katta bo`lmagan piramidalar qurila boshlandi. Shunday piramidalardan Misrda 70 ga yaqini qurib qoldirilgan. Hozirgi davrda bu to`g`rida shunday fikrlar mavjud: «Piramidalarning qurilishi Misr davlati iqtisodiga juda katta zarar keltirgan, davlat xazinasini quritgan, halk tomonidan juda katta kuch va matonat talab etgan. Shuni tahmin qilish mumkin-ki, agar misrliklar shunday matonat va qaysarlik bilan piramidalarni emas, balki yo`llarni qurishsa, Misr iqtisodiy rivojlanishi yanada kuchliroq bo`lgan bo`lardi».

Shunday bo`lsada piramidalar dunyoni estetik anglashning eng dastlabki na`munasi, inson imkoniyatlarining bepoyonligi sifatida iz qoldirgan.

Aynan qadimgi Misr madaniyatida birinchi bo`lib insonning olam oldidagi ma`suliyati, olamning rivojlanishi uning shahsiy hayoti bilan bog`likligi tug`risidagi goyalar ilgari surilgan edi. Ya`ni o`lgan odamning taqdiri uning yerdagi hayotining ahloqiyligiga bog`liqdir, deb hisoblanar edi. Har bir odam o`lishidan oldin yerdagi hayoti to`g`risida Osiris oldida hisobot berishga tayyorgarlik ko`rar edi: «Men o`z qalbimda Haqiqat va

Adolatni saqlab keldim, chunki men undan yomonliklarni haydadim... Men yaqinlarimga nisbatan johil bo'lmadim. Men haqiqatni yolg'onga almashtirmadim. Men yomon odamlar yoniga bormadim. Men boshqalarni o'zim uchun ishlashga majbur qilmadim. Men o'z manfaatim yo'lida yolg'on ishlatmadim. Men kambag'al odamni och qoldirmadim. Men boshqa birovni qiynalishga majbur qilmadim.

Men boshqa birovlarining va og'a-inilarimni yig'lashiga sababchi bo'lmadim. Men hech kimni o'ldirmadim va o'ldirishga buyurmadim. Men o'z boyliklarimni noto'g'ri yo'l bilan ko'paytirishga o'rinmadim. Men o'zgalarni mollarini o'g'irlab ketmadim. Men xudolarga atalgan qushlarni tuzoqlar qo'yib ovlamadim. Men baliqlarni o'liksa narsalar bilan ovlamadim. Xudoning yyerda voqe bo'lishiga halaqit qilmadim...»

«Hayotda adashgan odamning o'z ruhi bilan suhbat» asarida shunday yoziladi:

O'lim keldi bugun mening oldimga
Mastlik qirg'ogida o'tirgan insonga
Nilufar gullarining hidlari kelgani kabi.
O'lim keldi bugun mening oldimga

Bulutlardan tozalangan osmonga o'xshab.
O'lim keldi bugun mening oldimga
Uzoq yillar tutqinlikdan qutilgan inson
O'z uyini yana ko'rgusi kelgani kabi.

Qadimgi Misrliklar inson hayotining eng qimmat va nozik masalalari bilan bog'lik muammolarni yorita olganlar. Ular abadiylikni qandaydir tarqoq, engil, ruhiy kechinma deb emas, balki uni yagona, bir butun mutloq hamohanglik deb bilganlar va butun kuch-quvvatlarini, fikr-hayollarini, his-tuyg'ularini shunga qaratgan holda Koinot bilan «suhbatlashib» estetik fikr va g'oyalarni ilgari surganlar. Bu davrda inson yerning oddiy bir namoyondasi emas, balki u **mikrokosm** (ulkan koinotning bir mitti bo'lagi), chegarasi belgilanmagan (bepoyon) zahira ekanligini ya'nada chuqurroq anglab boshlangan. Koinot insonlarni o'ziga chaqirar, undar, yuksak jismoniy va aqliy kuchlarni, kundalik hayotdan moddiy resurslarni sarflagan holda buyuk va ulkan go'zallik yaratishni talab etganday edi. Lekin ulkan piramidalar, diniy marosimlar, koinot ila doimiy suhbatlar bilan birgalikda inson o'zligining buyukligi va serqirraligiga chuqur ishonch hosil bo'lgan

va mustahkamlanib borgan. **Qadimgi Misrliklar go`zallikning metafizik shaklini nafaqat koinot bilan bahs qilib yaratdilar, balki dunyoviy hamohanglikning ahamiyatini tabiiy borliqni o`zida aks ettirgan she`riyat, rassomlik, xaykaltaroshlik orqali ham ochib berishga muvaffaq bo`lganlar.** Masalan, «Atonga atalgan gimn»da quyosh xudosi haqida kuylanadi, u hayotga asos solganligi, tug`ilganlarga jon baxsh etishi, ekinlarni undirishi va ularni boshhoqlarga aylantirishi, zulmatni o`z nurlari bilan xaydashi, yerni gullarga burkashi, borliqni go`zallik bilan to`ldirishi to`grisida aytiladi. «Nil xudosiiga bag`ishlangan gimn»da esa Misrliklarni buyuk kuch-qudratga ega bo`lgan daryoga minnatdorlik bilan munosabatda bo`lishlari yorqin va go`zal shakllarda aks ettirilgan. Insoniy hayotning kundalik tarzi tabiat hamohangligidan hayratlanish hissi bilan qorishib ketgan. Aslzodalar yashaydigan uylar atrofida bog`lar yaratilgan, sun`iy hovo`zlar hosil qilingan, suhbat qurish joylari to`zatilgan, bu yerlarda bemalol arfa ohanglaridan musiqa eshitish, fleytada o`ynash, raqqosalarni o`yinlarini tamosha qilish mumkin bo`lgan. Misrliklar uy jihozlarini yaratishda ham tabiat go`zalliklaridan mohirlik bilan foydalanganlar. Masalan, qoshiq ushlagichlari nilufar gullarning naqshlari bilan bezatilgan, sharob ichadigan idishlar-taqsimchalar ochilayotgan gul shaklida ishlangan, uylarning shiftlari yuldo`zli osmonni eslatib turgan, devorlar palma daraxtlarining barglari va ular ustida uchib yurgan kapalaklar bilan bezatilgan. Xullas, insonlar tomonidan yaratilgan barcha narsalarda ranglar uyg`unligi va tabiat hamohangligi to`la aks etgan. Koinot va tabiat go`zalliklarini aks ettirishdan tashqari, qadimgi Misrliklar inson o`zligining, uning insoniy fazilatlari go`zalligiga ham asosiy e`tiborni qaratganlar. shu ma`noda ruhoniyy Sheshi qoldirgan yozuvlarda bunday deyilgan: «Men haqiqatni uning yaratuvchisi xaqqi uchun izladim, men doim to`g`ri harakat qildim, men ojizlarni kuchlilardan himoya qildim, men ochlarga non, yalong`ochlarga kiyim berdim, men o`z otamni hurmat qildim va onamga mehribon bo`ldim, men bolalarni tarbiyaladim».

«Gerakliopol shohining o`z o`g`li Merikarga nasihatlari» da aytilishicha: «Haqiqat o`rnat va yerda uzoq yashaysan. shunday qilki, yig`layotganni ovut, bevaga jabr qilma, insonni otasining mol-mulkidan benasib qilma, odamlarni boyligiga qarab emas, balki uning qobiliyatiga qarab o`zingga yaqinlashtir». Qadimgi Misrda hamohang rivojlangan inson qanday yashash kerakligi to`g`risida dastlabki ahloqiy pandnomalar paydo bo`lgan edi. Bunda yolg`on gapirmaslik, o`g`irlik qilmaslik, o`z xotiniga befavolik qilmaslik, qasos olmaslik kabilar aks ettirilgan edi. Bu yerda shunday

e'tikod paydo bo'lgan ediki, « Kitob - qurilgan uydan muhimrokdir, qabrtosh - saroydan va ibodatxonadagi haykaldan afzalroqdir». shuning uchun ham Qadimgi Misrda asosiy e'tibor kutubxonalarga qaratilgan edi. U yerda toshlarga, taxtalarga, papiruslarga tarixiy faktlar yozilar, tabiat hodisalarining muhim jihatlari aks ettirilib borilar edi. Hattoki devorlarda va shiftlarda tarixiy, astronomik, sehrgarlik, diniy va boshqa ma'lumotlar aks ettirilar edi, bu esa Misrliklarning qanchalik bilimga tashnaligini, yuksak ma'naviy ishlab chiqarish bilan mashg'ul bo'lganliklarini ko'rsatib turar edi. Shu asnda eramizdan avvalgi VI asrlarga kelib qadimgi Misrning umumjahon – tarixiy jarayonidagi yo'l boshchiligi o'z nihoyasiga etgan.

Estetik fikrlar rivojlanishining yana bir qadimiy o'choqlaridan hisoblangan mamlakat bu -Hindistondir. Bu yerda ham ilk falsafiy va estetik qarashlar eramizdan oldingi II-I minginchi yillarda yo'zaga kela boshlagan. Qadimgi Hindistonda dastlabki yozma manbalardan biri «Veda»lar hisoblanadi. **Hindular «Vedani» oliy tangri Braxmanning og'zidan aytilgan so'zlar deyishadi. Aslini olganda «Veda» - bu bilim degan ma'noni anglatadi.** Ushbu «Veda»larda hindlarning qadimgi tarihi, iqtisodiyoti, dini, falsafasi, ahloqi va estetikaga oid ma'lumotlar aks ettirilgan. Bundan tashqari halq badiiy ijodi bizlarga juda yaxshi tanish bo'lgan «Ramayana», «Maxabharata» kabi doston, rivoyatlar va afsonalarda aks ettirilgan. Ularning harakterli belgisi – hayvonlar, qushlar, o'simlik, daryo, tog'lar, osmon hodisalarining obrazli talqin qilinishidir. Masalan, endigina ko'tarilib kelayotgan quyosh nurlari shohli ho'kizlarga, bulutlar – barcha jonlilarga sut beruvchi sigirlarga o'xshatiladi. Hind she'riyatida ayolni sigirga qiyos qilish zavqli va husnkor hodisa hisoblangan. Masalan, Tulsi Dasaning «Ramayana» dostonida xudo Ramaning go'zal rafiqasi, o'g'irlab ketilgan malika Sitabonu (Janaki) haqida quyidagilar aytiladi:

Olib ketdi Janakini la'nati rakshas zo'ravon,
Go'yo oppoq sigirni bo'ysundirdi, pichoq ila beomon.

Juda kelishgan tannoz, xushbichim qaddi-qomati kelishgan ayolning
qadam bosishi xuddi filning yurishiga o'xshatiladi:

Oltin tovoqni ayollar to'ldirishib limmo-lim,
Ketishdi kuylab, shohona fillardek tashlab qadam.

Qadimgi Hindistonning mazkur dostonlari o`zining muhtashamligi bilan ajralib turadi. Bunga bittagina misol keltirishning o`zi kifoya. «Maxabharata»ning birgina turkumi- «Harivanshu» yo`z mingdan ortiq baytdan iborat bo`lib, dostonning o`zi 19 ta kitobni tashkil etadi. U qadimgi Yunon dostonlari «Iliada» va «Odissey» larni qo`shib taqqos qilinganda ham, ulardan 8 baravar kattadir.

Qadimgi Hindiston estetika taraqqiyotida halk og`zaki badiiy ijodidan tashqari arxitektura, haykaltaroshlik, tasviriy san`at va zargarlik san`atlari ham muhim o`rin tutadi. Hindiston hukmdorlari saroylari, ibodatxonalar devorlaridagi rassomlik va haykaltaroshlik asarlari, erkaklar va ayollar uchun tayyorlangan tilla buyumlar bu mamlakatda madaniyat va estetika sohalarining keng rivojlanganligidan dalolat beradi.

Qadimgi Hindistonda yashagan halqlarning iqtisodiy va ijtimoiy hayoti juda ham turg`un bo`lganligi sababli ularda urf-odatlar, marosim va qarashlarga qattiq rioya qilish qoida bo`lib qolgan. Qadimgi hindlarning bu ahloqiy taraflari estetik jihatlari bilan qorishib ketib, o`ziga xos ma`naviylik, inson hayotining barcha tamonlarini uyg`unlashtirishga, qolaversa jamiyat a`zolarining hamohang rivojlanishiga asos solgan. Haqiqatdan ham, «Maxabharata», «Ramayana» va boshqa hind dostonlari bilan tanishar ekanmiz, buni o`zimiz guvohi bo`lamiz, hayajonlanamiz, his-tuyg`ular orqali o`sha davrlarga sayohat qilamiz va o`zimizda bu asarlarga nisbatan muhabbat va hurmat hissi paydo bo`lganligini sezamiz. shunday qilib qadimgi Hindistonda estetik fikrlar asrlar davomida rivojlangan va taraqqiy etib kelgan.

Qadimgi Hitoy mamlakati ham insonlarning eng qadimiy madaniyat o`chog`laridan hisoblanadi. Hitoy estetik fikrlarining dastlabki bosqichi eramizdan avvalgi VII asrdan III asrlarga bo`lgan davrlarni o`z ichiga oladi. Insoniyat dunyoni o`zlashtirish va anglashni afsonaviy dunyoqarash bosqichidan boshlagan ekan, Qadimgi Hitoy mamlakati ham bu jarayondan mustasno emas edi. Bu yerda ham ilk estetik fikrlar albatta afsona va rivoyatlarda, keyinchalik buyuk donishmandlar Konfutsiy, Lao-tsz, Chjuan-tsz, Xan Fey, Xuaynan-tsz kabilar asarlarida o`z aksini topgan. Afsonaviy tasavvurlarga, kelajakni bashorat qila oladigan amaliyotga va kundalik hayot faoliyatiga kelib taqaladigan Hitoy estetikasida estetik qadriyatlarni anglatadigan tushunchalar shunday tasniflangan: Masalan, in-yan - ikkilik timsoli: ayol va erkak, yer va osmon, oq va qora, chap va o`ng, va hakazo: tyan, jen, di - uchlik timsoli: osmon, yer, va inson:

u sin - beshlik timsoli: dunyo asosida yotuvchi beshta unsur, beshta tovush, beshta asosiy rang koinotdagi beshta asosiy nuqta (markaz va dunyoning to'rt tomoni).

Hitoy estetikasi nazariyotchilari badiiy qadriyatlarni yaratishning 4 ta asosiy darajasini ko'rsatib berganlar. Unga asosan eng oliy daraja - ipin - ruhlanganlar - tabiatning o'zi hosil qilgan daholar tomonidan yaratilgan qadriyatlar darajasi. Keyingi daraja - shenpin - ilohiy mo'jizalar - buyuk daholar yaratgan qadriyatlar. Uchinchi daraja - myaopin - ustalar tomonidan yaratilgan qadriyatlar va to'rtinchi daraja - nenpin - mayda hunarmandlar yaratgan buyumlar. Go'zallik bu faqat tabiat hodisasi emas, balki jamiyatda insonlar go'zalligi, san'atda badiiy bezaklar go'zalligi ham estetik hodisalar jumlasiga kiradi. shunday ekan, Qadimgi Hitoy donishmandlaridan Konfutsiy (er.av.551-479y..) o'z asarlarida tabiatda, jamiyatda va san'atda insonning o'rnini to'g'risidagi fikrlarni yozib qoldirgan. Uning fikricha, olamni osmon boshqaradi. Insonlar yashab turgan olam, undagi tartib osmon tomonidan nazorat qilinadi. shuning uchun jamiyat tartibga qattiq amal qilishi lozim. Tartib - inson jamoasining eng oliy qadriyatlaridan biridir. Konfutsiy fikricha, shahs faqat o'zi uchun emas, balki jamiyat uchun ham yashashi kerak. Inson o'ziga ravo ko'rmagan narsani boshqalarga ham ravo ko'rmasligi kerak. Olijanob kishi hamma narsaga burch yo'zasidan yondoshishi kerak, gapirganda kamtar, ishda esa haqgo'y bo'lishi lozim. Ana shunday olijanob fazilatlarga ega bo'lgan insongina haqiqiy go'zalliklarni yarata oladi, deb taxmin qilgan Konfutsiy Hitoy halqi xurmatiga sazovor bo'lgan. Uning ta'limoti bugungi Hitoyda va butun yaqin Sharq mamlakatlarida ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan.

shunday qilib, Qadimgi Hitoyda estetik fikrlar o'ziga xos tarzda rivojlangan va o'zining rang-barangligi va jozibadorligi bilan butun jahon estetika tarixida muhim iz qoldirgan.

Estetik fikrlarning keyingi rivojlanish jarayonlari Qadimgi Yunonistonda, biroz o'tib esa Qadimgi Rimda davom etgan. Yunonlarning tasavvurida olam avval Xaos (tartibsizlik)dan iborat bo'lgan, Yer –Geya deb, va Yer osti olami- Tartar deb atalgan. Geyadan Uran-osmon xudosi kelib chiqqan. Uran bilan Geyadan titan Kronos tug'ilgan va o'z otasi Uranni ag'darib tashlagan. Titanlar – katta xudolar hisoblangan. Kronosdan-Aid, Poseydon, Gestiya, Demitra, Gera va Zevs kabi kichik xudolar kelib chiqqan. Zevs boshchiligida kichik xudolar Titanlarni ag'darib tashlab olamni idora qila boshlaganlar. Zevs bosh xudo, xudolar ajdodi, chaqmoqsochar hisoblangan. Uning xotini Gera – osmon ma'budasi va nikoh xomiysi bo'lgan.

Poseydon- dengiz xudosi, Demitra – hosildorlik ma’budasi, Gestiya- uy-ro’zg’or ma’budasi, Aid- yer osti olami xudosi hisoblangan. Zevsning boshidan donishmandlik va urush ma’budasi Afina paydo bo’lgan, Apollon – ro’shnolik va san’at xudosi, Artemida - ov ma’budasi, Gefest- temirchilik xudosi, Afrodita –go’zallik va sevgi ma’budasi, Dionis- o’zum va musallas xudosi sifatida e’zozlangan. shuningdek, yunonlar ikkinchi darajali ma’budlarga Nimfa va Kentavrlarga ham sig’inganlar. Go’yoki chakalakzorlarda nimfalar, kentavrlar, dengizlarda esa sirenalar- ayol boshli qushlar yashagan. Yunoniston juda qadimdan afsona va rivoyatlar yurti bo’lib, adabiyot va san’at rivojlangan. «Prometey», «Gerakl», «Dedal va Ikar», «Argonavtlar», «Odisseya», «Iliada» kabi afsona va dostonlarda qadimgi yunonlarning turmush tarzi va tarihi bayon etilgan. shulardan «Odisseya» va «Iliada» dostonlarini eramizdan avvalgi VIII asrda yashagan ko’r baxshi Gomer yaratgan edi. Bularning barchasi o’sha davr san’atida – adabiyotlarda, tasviriy san’at asarlarida, haykaltaroshlik asarlarida o’z aksini topgan va keyingi asrlarga tarixiy yodgorlik sifatida o’tib kelgan. Bu o’z navbatida yunonlarning estetikaga bo’lgan munosabatini ham yorqin ifodasi ekanligini ko’rsatadi. Bugungi kunda bu afsonalar har birimizga yunon adabiyoti va san’at asarlari orqali juda yaxshi tanish. Ayniqsa, yunon afsonalari asosida ishlangan kinofilmlar har bir odamda qanchalik his-tuyg’ularni, boy tasavvurlarni hosil qiladi.

Shuni alohida qayd etish lozimki, tabiat va jamiyat hodisalariga ilmiy yondoshuv va ilmiy taxlil qilish jarayoni biroz keyinroq boshlangan. Yunon estetikasining asosida Qadimgi Sharq halqlarining boy falsafiy, ma’naviy va madaniy merosi yotadi. Jumladan yunon estetikasining eng dastlabki namoyondalaridan biri Pifagor (er.av. 6-5 asrlar) Misr mamlakatida bo’lgan va bu yerda u juda ko’p narsalar bilan tanishgan, ko’pgina fo’zalolar bilan muloqotda bo’lgan, bilmagan narsalarni o’rgangan. Bu haqda tarixiy manbalarda juda ko’p ma’lumotlar berilgan. Pifagor va uning shogirdlari barcha narsalarning mohiyatini raqamlar va ularning o’zaro munosabatlari tashkil etadi, koinot yaxlitligida ham raqamlar aqidasi (g’oyasi) yotadi, deb uqtirganlar. Ular bu qarashlarini estetika olamiga ham tadbiiq etib, estetik tafakkurni boyitishga harakat qilganlar. Pifagorchilarning nafosat asoslari, musiqaviy hamohanglik asoslari bilan, ya’ni «hilma-hil ovozli tomonlarning kelishuvi» umumkoinot hamohangligida (bu esa yunoncha garmoniya, deb yuritiladi) ekanligi haqidagi qarashlar va g’oyalar estetika tarixida muhim ahamiyatga ega.

Shu o`rinda buyuk donishmand Pifagor to`g`risidagi A.Navoiyning «Lison-ut-tayr» dostonida keltirilgan ma`lumotlarni keltirish juda o`rinli. Dostonda aytilishicha, Pifagor afsonaviy qush hisoblangan Qaqnus (yunoncha- Feniks) ni kuylaganini eshitgan yagona inson ekan. Shuning uchun ham Pifagor ilk musiqa notalari kashf qilishga muaffaq bo`lgan.

Qadimgi yunon estetik fikrlarining davomchisi Geraklit (er.av.540-480y.) nafosat hamohanglikni anglatadi, hamohanglik esa qarama-qarshiliklar birligini tashkil etadi, deb ko`rsatadi va go`zallikning nisbiyligi to`g`risidagi g`oyani ilgari surgan. Haqiqatdan ham, har bir narsa, har bir predmet, qolaversa insonlar ham vaqt o`tishi bilan o`zining go`zalligini, jozibadorligini yo`qotishi mumkin: masalan, yangi narsa eskiga, yoshlik qarilikka, go`zallik hunuklikka aylanishi mumkin. Shu nuqtai nazardan Geraklitning fikrlari estetika tarixida juda muhimdir.

Yunon estetik tafakkurida Demokrit (er.av.460-370 y) qarashlari ham alohida o`ringa ega. Demokrit go`zallikni hamohanglikda, bo`lak qismlarning to`g`ri mutanosibligida, ya`ni simmetrikligida, deb tushuntiradi va uni me`yor tushunchasi bilan bog`liqligini ta`kidlaydi. U san`at insonning dastlabki ehtiyojlari qondirilgandagina vujudga keladi, deb uqtiradi. Demokrit san`atning mohiyatini voqelikka taqlid qilish (bu esa yunonchada mimesislar, deb yuritilgan) da, deb bilgan.

Estetika tarixida Aflotun (er.av. 427-347y.) qarashlari o`zining falsafiy tomonlari bilan ajralib turadi. Aflotun fikricha, nafosat manbaini avvalo g`oyalar (ideya - g`oya, fikr, orzu, hayol) tashkil etadi. His-tuyg`u beradigan barcha narsalarni abadiy, o`zgarmas g`oya «yoritib turgan»dagina haqiqiy go`zallik kashf etiladi. Uning fikricha, go`zallik o`ta hissiyotli bo`lgani tufayli uning mohiyatini his-tuyg`u bilan emas, balki aql-idrok bilangina anglash mumkin ekan. Abadiy, o`zgarmas g`oya timsolida Aflotun ilohiy bir narsani nazarda tutgan. O`sha ilohiy narsaning nigohi tushgan yerda go`zallik paydo bo`lishi mumkin, deb tushunish lozim.

Qadimgi yunon estetika nazariyasining cho`qqisi va yakuni sifatida Arastu (er.av.384-322y) estetik qarashlari muhim ahamiyat kasb etadi. Arastu fikricha, nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi, nafosat ana shu narsalarning tartiblilik, muvofiqlilik, aniqlik, uyg`unlik, yaxlitlilik xossalari namoyon bo`ladi.

Arastu estetik ta`limotida Demokritning voqelikka taqlid qilish (**mimesislar**) haqidagi g`oyasi yanada rivojlantirildi. Arastu san`atning inson ruhiga o`tkazadigan ta`sir kuchiga alohida e`tibor berib, uning ahloqiy qudratini, olijanob fazilatlar yaratish kuchini, voqelikni anglash xizmatini

ulugʻlaydi. Arastu fojiali voqea-hodisalar zaminida vahima, dahshat, rahm-shafqat orqali **inson ruhini poklantirish** (bu esa yunoncha **katarsislar**, deb yuritiladi) taʼlimotini ilgari surgan.

Estetik fikrlarning keyingi rivojlanishi Qadimgi Rimda davom etgan. Rimlik donishmand Tit Lukretsiy Kar (er.av. 99-55y.) «Narsalar tabiati haqida»gi asarida qadimgi Rim estetikasida sanʼatning «zaruriyatdan» tabiiy kelib chiqqanligini taʼkidlab, uning maʼrifat uchun ahamiyati buyuk ekanligini koʻrsatib bergan.

Oʻrta asrlar va yangi davr Evropa estetikasi tarihi. Oʻrta asrlar Evropa mamlakatlari tarixida juda muhim va boy oʻtmish bilan iz qoldirgan. YI-XYI asrlar fanda oʻrta asrlar deyilib, qadimgi va anʼanaviy madaniyatlar oʻrtasidagi davrni bildiradi. Bu davrda insoniyat oʻzining estetikaga boʻlgan munosabatini butunlay diniy dunyoqarash bilan birgalikda toʻla namoyon eta boshladi. Bu davrda xristian dini hukmron mafkuraga aylanganligi sababli ijtimoiy hayotning barcha sohalari sanʼat, adabiyot, ahloq va estetika kabilar ham diniy mohiyat bilan qorishib ketganligini koʻrish mumkin. Qadimgi Misr piramidalarini qurishga qanday kuch va matonat sarf qilingan boʻlsa, bu davrda ham balandligi 150 metr keladigan minora va cherkovlar qurilishiga, ularni sanʼat asarlari bilan bezatishga juda koʻp moddiy va maʼnaviy kuchlar, qolaversa minglagan insonlarning aqliy zakovati, kuch-quvvatlari safarbar etilgan edi. Bu davrda antik davrdan meros boʻlib qolgan cherkovlar atroflarida va devorlariga oʻyilib ishlangan fantastik hayvonlar va qushlarning koʻrinishlari endi «Injil»da bayon etilgan voqea-hodisalarga umuman mos kelmasligi oʻsha davr insonlarini qoniqtirmay boshladi. Bu toʻgʻrida cherkov episkopi Bernard Klervoskiy(1090-1153y.y.) shunday deb fikr bildirgan edi: «Nimaga endi monastirlarda oʻqiyotgan birodarlarning koʻz oldida bunday kulguli yovvoyilik namoyon boʻlishi kerak? Iflos maymunlar nimaga kerak? Yovvoyi sherlar kimga kerak? Qoʻrqinchli kentavrlar yoki yarim odamlar-chi? Nayza koʻtargan askarlar-chi, surnay chalib ovga chaqirayotgan ovchilarning tasvirlari nimaga kerak?» B.Klervoskiyning qarashlari oʻrta asrlar estetika tarixida juda muhim ahamiyatga ega boʻldi.

Foma Akvinskiy-(1225-1274) oʻrta asrlar faylasufi va iloxiyotchisi, sxolastikaning va uning tomizm oqimining asoschisidir. Estetika sohasida maxsus asarlar yozib qoldirmagan boʻlsada, F.Akvinskiy gʻarb oʻrta asrlar estetikasida uning asosiy tushunchalariga yakun yasadi. F.Akvinskiy hissiy qabul qilinadigan goʻzallikdan tabiiy goʻzallikni ustun qoʻyib, uni faqat ilohiy goʻzallik deb emas, balki oʻz xolicha bor boʻlgan goʻzallik deb baholagan. Uning fikricha, narsa shunday holda goʻzal boʻlib koʻrinishi mumkinki, agarda

uning tashqi ko`rinishida mumkin qadar uning tabiiy holati, mazmuni yoki «shakli» namoyon bo`lsa. Go`zallikni u uning ob`ektiv va sub`ektiv tafsilotlarining birligidan kelib chiqib aniqlaydi. Ob`ektivlikka u mutanosiblik yoki hamoxanglik, aniqlik va birbutunlik, yoki mukammallik kabi tushunchalarni kiritadi. Mutanosiblik deganda faqatgina miqdoriy negizlarni emas, balki sifatiy munosabatlarni ham ma`naviy va moddiy, ichki va tashqi, g`oya va shakl kabi uni ifodalaydigan kenglikda tushungan. Go`zallikning sub`ektiv jihatlarini F.Akvinskiy uning bilish faoliyati bilan bog`liqligida ko`radiki, bu ma`naviy qoniqish bilan ko`zatiladigan ko`rish orqali amalga oshiriladi. «Go`zallik deb shuni aytish mumkinki, nimaiki o`zi bilan qoniqishni vujudga keltirsa», -deb yozgan edi u, hissiy qoniqishdan(masalan, ovqatlanishda) estetik qoniqishni ( ko`rish va eshitish) va hissiy-estetik qoniqishni (masalan ayollarning taqinchoqlari) ajrata olgan kabi. F.Akvinskiy fikricha, go`zallik ezgulikdan (yaxshilikdan) shunisi bilan farq etadiki, u (go`zallik) – qoniqish ob`ektidir, ezgulik bo`lsa – inson hayotining mazmuni va maqsadidir.

**Uyg`onish davri estetikasi.** Bu davrda Evropa mamlakatlarining barchasida ilm-fanning ko`p sohaları keng taraqqiy eta boshlagan edi. Bu taxminan XIY-XYI asrlarni o`z ichiga oladi. Bu davr o`rta asrlar bilan Yangi davrni birlashtiruvchi hamdir. Bu davrning o`ziga xos xususiyatlaridan biri shu ediki, ijtimoiy hayotning barcha sohalarida o`rta asr qoldiqlaridan qutilish va hali rivojlanib ulgurmagan kapitalistik munosabatlar shu paytning badiiy madaniyatiga va estetik fikrlar rivojlanishiga o`z ta`sirini o`tkaza boshlagan edi. Bu davrning estetik va badiiy tafakkur jarayoni antik davr kosmologik qarashlar va o`rta asrlar ilohiyotidan farqliroq ravishda birinchi bor insonning tashqi real dunyoni hissiy qabul qilishiga tayana boshladi.

Renessans davrining odami endi o`z hayotini diniy g`oyalarga asoslab emas, balki o`z shahsiy tajribasiga, faktlarni va voqea-hodisalarni ko`zatib yashashga o`rgana boshlagan edi. U dunyoni xudoning ixtiyori bilan harakat qilayotganini emas, balki dunyo – bu turfa xil insonlarning qiziqishlari va ehtiyojlarining qarama-qarshiligidan iborat bo`lgan kenglik ekanligini, ularni qondirish zarurligini tushuna boshladi.

Bu davrda ayniqsa tasviriy san`at – musavvirlik keng rivojlana boshladi, realizmga ( real mavjud narsalarni tasvirlash) intilish kuchaydi. San`at sohasini o`z tajribasidan kelib chiqib go`zallikni yaratish sohasiga aylana boshlashi bu davrning muhim xususiyatlaridan biriga aylandi. Evropa Uyg`onish davrining buyuk ijodkorlari Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Petrarka, Mikelanjelo, Dyurer, Servantes, Shekspir va boshqalar estetik tafakkur rivojlanishiga ulkan

hissa qo'shdilar. Leonardo da Vinchi (1452-1519) italyan musavviri, arxitektor, muhandis, tabiatshunos olim – bu davrning yorqin namoyondasidir. Uning «Madonna Benua», «Gul ushlagan madonna», «Djokonda» kabi rassomlik asarlari butun dunyoga mashhur. Uning estetik fikrlari aks ettirilgan asarlaridan «Musavvirlik haqida kitob»i estetik muammolarga bag'ishlangan. O'z asarlarida Leonardo da Vinchi musavvirlarga tabiat go'zalligini asrashni maslaxat berardi, toki uni eng mukammal paytida ham ko'zata olish va undan boshqalar ham bahramand bula olishi uchun. Rafael Santining «Sikstina Madonnasi» asari ham Evropa Uygonish davrining yorqin san'at va estetik boyliklaridandir.

Badiiy asarlar yaratishda bu davrning real hayotiy voqealarini o'z asarlarida aks ettirgan buyuk yozuvchilar Shekspir, Servantes, Dyurerlar badiiy adabiyot sohasini rivojlanishiga ulkan hissa qoshganlar

XX asr Evropa estetik qarashlari. Pragmatizm estetikasi

(yunonchadan pragma – ish, harakat) – g'arb estetikasida, asosan AQShda XX asrning birinchi yarmida yo'zaga kelgan va pragmatizm falsafasiga asoslangan yonalish.

Pragmatizm asoschisi Ch.Pirs (1839-1914 y) estetika bilan juda kam shug'ullanganligiga qaramay, uning g'oyalari (estetik belgilarni tasviriy san'atga kiritish, tasvirlanadigan predmetning xaqiqatdagi emas, balki xayoldagi, tasavvurdagi ifodalanishi va san'atni qadriyatlar sifatida tushunish) semiotik estetikani keyingi rivojlanishiga oz ta'sirini korsatgan.

Pragmatizm falsafasining yana bir namoyondasi ruhshunos U.Djemsdir. U «ong oqimi» togrisidagi ta'limotni ilgari surgan, bu esa modernizm san'atida keng qollanilgan. Djems XX asr butun pragmatik estetikasining asosini egallagan prinsipni ilgari surdi: insonning har qanday faoliyatining maksadi yaxshi tajriba» ga, ya'ni yorug' va kuchli hayotiy kechinmalarga erishishdir. Oxirgi jumla, Djems fikricha, oziga axloqiy, diniy va estetik qadriyatlarni ham qamrab olgan bolishi kerak.

Pragmatik estetikaning 3-boskichi Dyui va uning izdoshlari faoliyati bilan bogliq. Ular qadriyatlar tugrisidagi ta'limotga anik ifodalangan estetik asosni tatbiq etdilar: estetik qadriyatlar o'zida diniy, ilmiy, ahlokiy qadriyatlarni mujassamlashtirgan xolda eng oliy qadriyat deb tushunildi, Go'zallik esa ichki bogliqlik va bir butunlikka erishgan tajribaning sifatiiy korinishi tarzida talqin qilindi.

Estetik tajribada biologik va ijtimoiylik ortasida aloqani ornatishga intilish pragmatizm tarafdorlarini san'atning ijtimoiy vazifalariga madaniy-

integrativ voqea, ijtimoiy axborot vositasi sifatida e'tibor qaratishni yo'zaga keltirdi.

Evropa pozitivizmi shakllaridan farqliroq ravishda pragmatizmga sub'ektning faolligiga asosiy e'tibor qaratiladi. Estetik qabul qilish jaraenida sub'ekt (tamoshabin, oquvchi, tinglovchi) har safar unga avtor yoki ijrochi tomonidan xavola etilgan narsa korsatilayotgan paytda o'zining tajribasi bilan solishtirib, birlashtiruv yoli bilan o'z san'atini qayta hosil qiladi, deb hisoblaganlar.

Ekzistentsializm estetikasi (ekzistentsiya - lotinchadan bor bolmoq, degan ma'noni anglatadi.) –XX asrning boshlarida va ortalarida Evropa mamlakatlarida yo'zaga kelgan falsafiy-estetik oqim. Uning namoyandalari Germaniyada Xaydegger, K.Yaspers, M.Buberlar bolsa, ikkinchi jahon urushi davrida Frantsiyada Sartr, Kamyu, Marsellar tomonidan rivojlantirildi va keyinchalik boshqa g'arb mamlakatlariga, hamda AQSh ga ham tarqala boshladi. Ekzistentsialistlar e'tiborining markazida shahs munosabatlari, uning dunyoga, boshqa insonlarga va ilohiyotga bolgan munosabatlari turadi. Xaydeggerning fikricha, san'at mazmun hosil qilmaydi, balki uni yoritadi. Inson emas, balki borliqning o'zi san'at asarlarining haqiqiy yaratuvchisi, musavvir esa faqat vositachidir, deydi. Diniy ekzistentsializm vakillarining fikricha, san'at olamning insoniy mazmunini hosil qiladi va shu bilan birga o'ziga hos «metafizik yozuv» sifatida bizni trantsendentga, ya'ni xudoga undovchi bolib yo'zaga keladi. Xulosa qilib aytganda, ekzistentsializm estetikasi insonning borlig'i san'at orqali namoyon bolishi va uning ilohiy mazmun bilan qorishib ketganligini korsatib berishga o'ringanlar.

Evropa mamlakatlari estetik tafakkur taraqqiyoti bilan tanishar ekanmiz, haqiqatdan ham juda boy va mazmunli tarihgaga ega ekanliklarining guvohi bolamiz. Estetik fikrlar tarihini organar ekanmiz, buyuk Hitoy faylasufi Konfutsiyning fikrlarini naqadar togri ekanligini anglash mumkin. Eskini organmay, yangini yaratib bolmaydi, degan u. Shuning uchun ham har qanday fikrlar tarihini organish foydadan xoli bolmaydi, inson dunyoqarashini boyitadi va ular asosida yangi fikrlar paydo bolib boraveradi.

Tayanch tushunchalar:

Estetik fikrlar, «Veda»lar, antik davr, xaos, mimesis, katarsis, garmoniya, urta asrlar, Evropa Uygonish davri, estetik dunyoqarash, pragmatizm, ekzistentsializm, trantsendent.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetik fikrlar dastlab qaysi mamlakatlarda vujudga kelgan?
2. Qadimgi Xindistonda qanday estetik ta'limotlar yuzaga kelgan?
3. Qadimgi Hitoyliklarning go'zallikka bolgan munosabatlari qanday namoyon bo'lgan?
4. Qadimgi Yunoniston faylasuflaridan estetik fikrlar yuritgan kimlarni bilasiz?
5. Urta asrlarda Evropada estetikaga munosabat qanday namoyon bo'lgan?
6. Evropa Uygonish davrida ijod qilgan musavvirlardan kimlarni bilasiz?
7. XX asrda estetikaga munosabat qanday shakllandi?

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:O`zbekiston 1998.
- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 7.Eстетika. Slovar. M.1989.
- 8.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 9.Falsafa qomusiy lug'ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 10.Мартынов В.Ф. «Go'zallik falsafasi» Minsk 1999.

3-mavzu: Markaziy Osiyoda estetik tafakkur taraqqiyoti.

Reja:

- 1.Markaziy Osiyo qadimiy yozma yodgorliklarida estetik fikrlarning ifoda etilishi.
- 2.IX-XIII asrlarda Markaziy Osiyoda estetik fikrlarning rivojlanishi.
- 3.XY-XYII asrlarda estetik fikrlarning davomiy rivojlanishi.
4. Mamlakatimiz estetik fikrlar tarixini o`rganishning ahamiyati.

O`zbek halqi Markaziy Osiyodagi boshqa qardosh halqlar qatori uzoq tarixga ega. Uning paydo bo`lishi va shakllanishi kishilik jamiyatining eng qadimiy davrlariga borib taqaladi. Markaziy Osiyo halqlari o`zlarining tarixiy taraqqiyoti jarayonida rang-barang va mazmunan boy madaniy meros yaratganlar, ilm-fan va madaniyat sohasida jahon tsivilizatsiyasi hazinasiga beqiyos hissa qo`shganlar.

Markaziy Osiyodagi falsafiy va estetik fikrlarning dastlabki kurtaklari qadimiy ertaklar, afsonalar, rivoyatlarda va halq maqollarida o`z ifodasini topgan. Markaziy Osiyo halqlarining qadimiy mif va afsonalari turli mavzularda bo`lgan.Bular asosan hayvonlar va qushlar haqidagi miflar, xudolar va afsonaviy qahramonlar haqidagi miflar bo`lib, ularda yahshilik, go`zallik va baxt saodat, quyosh nuri va issiqlik, yomonlik va hunuklik, zulmat va dahshatli sovuqqa qarama-qarshi qo`yilgan. Go`zallik va hunuklik, yaxshilik va yomonlik kuchlari ortasidagi kurash mifologik obrazlar Mitra,Anaxita, Qayumars, Jamshid, Elikbek kabi obrazlarda aks ettirilgan. Bu afsonalarning barchasi Qadimiy Avestada o`z aksini topgan.

Qadimiy Markaziy Osiyo halqlari yaratgan og`zaki adabiyot yodgorliklari ichida qahramonlik eposi katta va muhim o`rin egallaydi. Ularda halqimizning chet el bosqinchilariga qarshi kurash olib borib, qahramonlik ko`rsatgan yurtdoshlarimizning oliyjanoblighi, vatanparvarligi aks ettirilgan.Bular ichida albatta To`maris, Shiroq, Zarina, Rustam, Siyovushlar haqidagi afsonalar to bugungi kunimizgacha etib kelgan va halqimiz bu afsonalarni e`zozlab, esga oladilar.

IX-XIII asrlar Markaziy Osiyoda tarixiy voqealarga g`oyat boy bo`lgan davrdir. U Markaziy Osiyo xalqlari moddiy va ma`naviy madaniyatining rivojlanishidagi yorqin sahifalardan biridir. Yaqin va O`rta Sharq mamlakatlarida bu davrni shartli ravishda **“Renessans”** davri deb

atashadi. Iqtisod, fan va madaniyatning g'oyat gullab-yashnashi bu davr uchun harakterli bo'lgan. Bu davrda Ahmad Al Farg'oniy, Muso Al Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi yo'zlab allomalar yashab ijod qilganlar. Buxoro, Samarqand, Urganch, Marv va boshqa shaharlarda madrasalar qad ko'tarib, ilm-fan maskanlariga aylangan. shuni ta'kidlash joizki, bu davrda dunyoviy ilm-fan ilohiyot bilan bog'liq holda o'qitilib, tavhid – Ollohnı yagonaligini tanish, uning sifatlarini anglash, ya'ni **“Olloh go'zal, u yaratgan narsalar ham go'zal, u go'zallikni sevadi, shu bois komil insonning hatti-harakatlari ham go'zal bo'lishi, inson go'zallikka go'zallik bilan javob berishi kerak”** degan aqida asos qilib olingan edi.

Sharq Renessansi davrining harakterli hususiyatlaridan yana biri shuki, bu davrdagi yashab, ijod etgan ko'pchilik allomalar qomusiy bilim egalari bo'lganlar, ya'ni ilm-fanning barcha sohalarini mukammal bilganlar. Ana shunday qomusiy bilim sohiblaridan biri **Abu Nasr Farobiy (872-950)** bo'lgan. U tabiiy ilmiy, falsafiy, ijtimoiy siyosiy, ahloqiy masalalar bilan bir qatorda tilshunoslik, she'riyat, notiqlik san'ati, hattotlik va musiqa nazariyasiga oid ko'plab asarlar yaratgan.

Abu Nasr Farobiyning bizgacha etib kelgan asarlaridan biri “Baxt saodatga erishuv haqida” (yoki “Fozil odamlar shaxri”) risolasida ***inson go'zallikni samarali idrok etishi uchun unda nozik tabiat va aqliy mukammallik zamini bo'lishi kerak, hissiy va aqliy qobiliyatga ega bo'lgan insongina dunyoning barcha sirlarini bila olishi mumkin,*** deb ta'kidlaydi. “Inson aql-idroki tufayli haqiqiy insonga aylanadi, bilim insonga baxt va shodlik keltiradi, ***inson bilish orqali o'zida mukammallikni kashf etadi***”, deb uqtiradi. Farobiy odamlarni ilm bilan, san'at bilan shug'ullanishga da'vat etadi va shu tufayli go'zal narsalar tushunarli narsalarga aylanadi, deb ko'rsatadi.

Farobiy inson qobiliyatini ikkiga: tug'ma va keyin erishilgan qobiliyatga ajratadi. Uning fikricha tug'ma qobiliyatga biologik, jismoniy va ba'zi ruhiy hususiyatlar kiradi. Uni kamol toptirish jarayoni esa inson o'z hayoti davomida ilm, hunar o'rganishi, ahloqiy qonun-qoidalarini egallashi va san'atni hayotiy tajribasi bilan boyitishi orqali sodir bo'ladi. Bunday fazilat, jumladan, estetik fazilatlar inson atrofini qurshagan muhit ta'sirida shakllanadi.

Farobiy insonning o'z-o'zini tarbiyalashida, uni estetik rivojlanishida nazm va musiqaning o'rnini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, san'atning barcha turlari bir-biridan farq qiladi: nazm san'ati so'z

bilan, tasviriyl san'at esa bo'yoqlar bilan ish ko'radi, lekin ular insonga bir xil ta'sir ko'rsatadi. U Arastu izidan borib, bu san'atlarning har ikkalasi taqlid qilish yordamida kishilarning tasavvuriga va hissiyotiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilib qo'yadi, deb ta'kidlaydi.

Farobiy san'at o'z mohiyatiga ko'ra ruhiyl hayotning in'ikosi ekanligini yaxshi tushungan. Uning fikricha, musiqaning kishilar tuyg'usiga ta'siri buyukdir. Bu ilm shu ma'noda foydaliki, u o'z muvozanatini yo'qotgan (odamlar) hulqini tartibga keltiradi, noqis hulqni mukammal qiladi va muvozanatda bo'lgan odamlar hulqining muvozanatini saqlab turadi, deb ta'kidlaydi. U musiqaning shifobaxsh kuchini anglagan holda, "bu ilm tananing salomatligi uchun ham foydalidir", deydi. shunisi qiziqarliki, Farobiyning o'zi mohir sozanda, bastakor, yangi musiqa asboblarining ixtirochisi ham bo'lgan. U musiqaga inson ahloqini tarbiyalovchi, sixat-salomatligini yaxshilovchi tor kashf qilib, uni takomillashtirgan, ovoz imkoniyatini oshirgan.

Farobiyning "Baxt saodatga erishuv haqida" risolasida san'atning ulkan ta'sir kuchi haqida fikr - mulohazalar bayon qilingan. Uning fikricha, san'at insonda go'zal estetik fazilatlarni tarbiyalashga qodir kuchga egadir. Farobiy mazkur risolasida ta'lim - tarbiya masalalariga alohida to'xtalib, yoshlarning ahloqiy fazilati nizomlarini hamda ularning san'atni egallashlari uchun amaliyl malakalarini tarbiyalash – tarbiyachilarning muqaddas vazifasi ekanligini ko'rsatib bergan.

Farobiy insoniy sifatlarning barchasini odamlar va narsalar go'zalligi tarzida baholab, ularni maqsadga muvofiqlik va foydalilik tomonlari bilan o'zviyl bog'laydi. U badiiy faoliyatni o'ziga xos tarzda voqelikka taqlid qilishga qiyos etib, musavvirlik va she'riyat bir - biridan so'z va bo'yoq vositalarida ifodalanishi bilan farqlangan xolda odamlar tasavvurlariga taqlid orqali ta'sir o'tkazishni maqsad qilib qo'yadi, deydi. Bu ta'sir, kuch - tasavvur deyiladi, hamda u tuyg'u va aql - idrok oralig'ida turadi. Farobiy estetik qarashlarida san'at yaratgan qiyofalar aql va umumiy mushohada qabul qilib olgan holda o'zining yakkaligini yo'qotib qo'ymaydi, idrok uchun mumkin bo'lgan aniq hissiyl shaklini saqlab qoladi.

Markaziy Osiyoning bu davrda yashab ijod etgan qomusiy allomalaridan yana biri **Abu Rayhon Beruniyl 973-1048** yillarda yashagan. Uning bizga qoldirgan asarlarida ham "mukammallik" komil inson ma'nosida qo'llaniladi. U tabiiyl fanlar bilan bir qatorda falsafa, adabiyot, ahloq muammolari bilan ham shug'ullangan, turli halqlarning urf - odatlarini chuqur o'rgangan. Uning " Qadimiy halqlardan qolgan yodgorliklar", "

Hindiston”, “Minerologiya” kabi asarlari komil inson aql - zakovati, ma’rifatining yorqin ko’zgusidir.

Abu Rayhon Beruniy estetik qarashlarida voqea- hodisalarning o’zaro bog’liqligi va aloqadorlik manbai hamohanglik va uyg’unlikdir, deb ko’rsatadi. Beruniy har qanday harakat va undan hosil bo’ladigan natijalar moddaga taalluqlidir, uning o’zi narsalar, voqea - hodisalarni bir - biriga bog’laydi va ular shakllarini o’zgartirib turadi, demak birlamchi moddaning o’zi esa yaratuvchiga muhtojdir, degan fikrni ilgari suradi.

Beruniy estetik qarashlarida go’zallikning tabiiy asosi sifatida amal qiladigan hamohanglik (garmoniya) ayrim hodisalarga ham tatbiq etilgan bo’lib, go’zallik tabiat va insonga xos bo’lgan kamolot, etuklik sifati darajasida baholangan. **Beruniy fikricha, hech nimaga muhtoj bo’lmagan narsalarni etuk, mukammal deyish mumkin.**

Markaziy Osiyo Uyg’onish davrining eng mashhur allomalaridan yana biri **Abu Ali ibn Sino (980-1037)** o’zining estetik qarashlarida o’zi yashab o’tgan davri va bizning davr uchun ham ahamiyatli bo’lgan fikrlarni aytib o’tgan. U bobokalonimiz Beruniy bilan zamondosh bo’lgan. U o’zining estetik qarashlarini ahloq muammolari bilan o’zviy bog’lab bayon etgan. Jumladan, “Kitob ush shifo” asarining so’z boshisida musiqaning estetik xususiyati haqida gapirib, bu san’at to’rining ahloqiy tarbiyadagi ahamiyatiga, she’riyatning kishilarga go’zal fazilatlar singdirishi imkoniyatlariga to’xtalib o’tadi, “she’riyat tasavvurga ta’sir ko’rsatuvchi nutqdir” deb uqtiradi.

Ibn Sino yosh avlodni tarbiyalash oila va davlatning muhim vazifasi, jamiyat taraqqiyoti, jamiyatning xo’jalik va madaniy yutuqlari bevosita ma’lumotli, madaniyatli kishilarning o’sishiga bog’liq, deb hisoblaydi, **“barcha bilimlarga ega kishilar mukammallikka moyildir” deb ta’lim beradi, “mukammallik” atamasida u insonning ichki go’zalligi va ezgulikka intilishini ifodalaydi.**

Ibn Sino “Musiqqa bilimiga oid to’plam” asarida tovushning sezgi organlariga ta’siri, uning yoqimli va yoqimsizligi, tovushni eshitganda lazzatlanish yoki nafratlanish hissining paydo bo’lishi kabi masalalarga to’xtaladi. Unda musiqaning kishi hayotiga qanchalik zarurligi va uning paydo bo’lishi sabablari haqida mulohaza yuritiladi, chunki inson tabiati yoqimli narsalar orqali engil tortadi, orom oladi, aks bo’lsa og’ir tortadi, oromi yo’qoladi, nafrat qo’zg’oladi. Mana shu mulohazadan keyin Ibn Sino yoqimli va yoqimsiz ovozlarning hayot uchun qanchalik zarurligini ta’kidlaydi. Chunonchi hayvonlar o’zlariga tanish bo’lgan ovoz bilan bir -

biridan, ya'ni sheriklaridan xabardor bo'ladilar, shu ovoz bilan bir - birini topadilar, havf - hatar tug'ilganda shu holatga mos ovoz chiqaradilar, natijada buni eshitganlar darhol o'sha ovoz chiqqan joyga yig'ilishga va dushmanga umumiy hamla qilishga shaylanadilar.

Ibn Sino insondagi til, nutq masalalariga ham to'xtaladi: "Ollohning insonlarga in'om etgan baxtlaridan yana biri inson nutqidir. Inson o'zining ana shu nutqidagi tovush ohanglari orqali o'z hissiyotlarini izhor etadi", deb ta'kidlaydi. U xattoki shu narsaga ham e'tibor berganki, insonning ovozi o'zgarishi bilan uning nutq mazmuni ham o'zgarar ekan. Masalan, kishilar yalinganda boshqacha ovoz chiqarib gapiradilar, do'q po'pisa qilganda boshqacha va shoshib gapirganda nutq boshqacha bo'ladi, deb ta'kidlaydi. Buni haqiqatdan ham shunday ekanligini deyarlik har kuni kuzatish mumkin.

Ibn Sino fikricha, inson qalbi o'z tabiati bilan bir -biriga monand bo'lgan tovushlar va ritmlarni yoqtiradi. chunki tovush inson va hayvonlar hayotida eng zarur narsalardan biri, tovush insonni ham, hayvonni ham hayajonlantiradi, biror qo'rqinchli hodisa ro'y berganda bir - birini chaqirish borasida katta rol o'ynaydi. Uning fikriga ko'ra: " Inson qalbi har bir yangi va ko'ngildagidek nag'madan orom oladi. Keyinchalik huddi shu yoqimli nag'ma g'oyib bo'lsa, qalb hayajonga tushadi. Xuddi shu oldingi nag'maga o'xshash ikkinchi nag'maning paydo bo'lishi bilan qalbdagi hayajon yo'qola boshlaydi".

Ibn Sinoning qayd qilishicha, ovozning baland - pastligi ham, ularning bir - biridan farq qilishi ham o'ziga xos ma'noga ega ekan, ya'ni turli - tuman ovozlarda nazokat bilan ifodalangan ma'lum ma'nolar mavjud ekan. Insonlarning ovozlari biror ma'noni ifodalab, kishi ruhiga ta'sir etishi mumkin-ki, shundan rang - barang fe'l atvorlar yo'zaga kelishi aniq ekan. Olim fikricha, musiqiy ovozning darajasi qanday bo'lishligi kishi ruhiga ta'sir etishda muhim ahamiyat kasb etar ekan. Albatta bugungi kunimizda buyuk allomalarimiz fikrlarini zamonaviy fanlar qayta o'rganib, ularning naqadar to'g'ri bo'lganligini yana bir bor isbotlamoqdalar.

Markaziy Osiyo madaniyati, ayniqsa estetik tafakkur XY-XYII asrlarda jadal taraqqiy etdi. XII asrda mo'g'illar istilosi tufayli Markaziy Osiyoning hunarmandchilik va madaniyat markazlari xonavayron bo'lgan edi. Ammo mo'g'il istilochiligi Amir Temur boshchiligidagi yirik davlatning tashkil topishi bilan barham topdi. Amir Temur davlatida ishlab chiqarish, savdo sotiq, hunarmandchilik va shaharlar qurilishi rivojlandi. Bu davrda Ulug'bek, Ali Qushchi, Lutfiy, Jomiy, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod

kabi jagʻon fani va madaniyatining buyuk namoyandalari boʻlgan bir qancha mutafakkirlar, sanʼatkorlar yashab ijod etdilar.

XY asr falsafiy, adabiy estetik tafakkuri taraqqiyotini buyuk mutafakkir **Alisher Navoiysiz** tasavvur etib boʻlmasa kerak. Alisher Navoiy oʻzidan keyingi avlodlarga shunday hazina, goʻzallik bilan nurafshon bir meros qoldirdiki, bu meros hali toʻlaligicha oʻrganilmagan. Navoiyning estetik qarashlarida komil inson tarbiyasi, uning goʻzalliklar qurshovidagi hayot tarzi qanday boʻlishi kerak, degan masala qoʻyilgan. Navoiy goʻzallikni, nafis sanʼatni qadrlab, sanʼat inson maʼnaviy olami, kamoli uchun kalit ekanini taʼkidlaydi. Uning yozgan sheʼrlaridan birining mazmuni bunday: bizga yana bir shifo dorisi berilgan boʻlib, uni sanʼat deb ataydilar, goʻzallik yaratuvchi sanʼatkorlar chizgan rasmlar moʻʼjizakordir. Ular inson ruhiga mayin taʼsir qilish qudratiga ega.

Navoiy oʻzining “Farhod va Shirin” dostonida Farhod devorlarni suratlar bilan bezab, ularda Shirin rasmini chizganligini, ayni vaqtda Shirinning oʻzi beqiyos husni bilan ajralib turganligini ifodalagan. Bundan tashqari, Farhodning otasi oʻgʻliga atab, toʻrtta faslni oʻzida aks ettirgan saroylar qurdirgani qanday ajoyib ranglarda tasvirlangan. Bu dostonni oʻqigan har bir odamda muxabbatning qudrati nimalarga qodir ekanligini koʻrsatib turadigan ulugʻvor his tuygʻular paydo boʻlishi aniq..

Navoiyning adabiy, tarihiy va falsafiy asarlarida goʻzallik, nafis sanʼat haqidagi fikrlar judayam koʻp. Uning estetik qarashlari asosan «Majolis un nafois», “Mezon ul avzon” va “Mufradot” asarlarida yorqin ifoda etilgan. Uning estetik qarashlarida badiiy adabiyot maʼnaviy hayotning muhim bir sohasi boʻlib, sanʼatkor inson maʼnaviy ehtiyojiga, insof va adolatning barqaror boʻlishiga xizmat qilishi, eng yaxshi insoniy hislat va fazilatlarni targʻib etishi, kitobxon ongi, hissi va didiga taʼsir koʻrsatishi muqarrardir, degan gʻoya yotadi. Bundan tashqari, Navoiyning adabiy estetik qarashlari soʻz sanʼati va estetik tafakkur taraqqiysida muhim oʻrin tutadi. Navoiy sanʼatning hayotni nafislatuv, kishilarni baxt - saodatga erishtiruv yoʻlidagi foydalarini roʻy - rost ochib berdi.

XY asrda koʻzga koʻringan buyuk allomalardan yana biri **Zahiriddin Muhammad Boburdir.** Uning estetik qarashlarida sheʼriy sanʼat, musavvirlik, shaharsozlik, musiqa haqidagi mulohazalari muhim oʻrin tutadi. Zahiriddin Bobur shoir, hattot, olim boʻlishi bilan bir qatorda musavvirlikka ham nihoyatda qiziqqan. U oʻzining shoh asari boʻlmish “Boburnoma” da tabiat manzaralarini, odamlar qiyofalarini mohir musavvirlardek nazokat bilan tasvirlagan. “Boburnoma” da hirotlik va

samarqandlik musavvirlar Kamoliddin Behzod, Shox Muzaffar Boysunqor mirzo, Haydar mirzolarining nomlari ham tilga olinadi.

“Boburnoma” da adabiyot va san’atda musiqa sohasining o’ziga xos o’rniga e’tibor berilgan. Bobur XY-XYI asrda yashagan kamonchi, g’ijjakchi, naychilarning eng atoqli ustodlari, peshqadamlari haqida qimmatli ma’lumotlar beradi, ularning musiqanavislik madaniyatimiz taraqqiyotida badiiy adabiyot bilan o’zviy hamkorlikda rivoj topib yuksalgani ko’rsatilgan. Zahiriddin Muhammad Boburning estetik qarashlari uning “Risolai aro’zi” asarida yaqqol ifodalangan. Bu asarida u XY-XYI asr o’zbek poetikasi hamda eski o’zbek tili fonetikasining aruzga munosabati, og’zaki va yozma adabiyot o’rtasidagi o’zaro ta’sir natijasida yuzaga kelgan adabiy janrlar, ba’zi tasvir vositalari, ularning o’ziga xos xususiyatlari, shuningdek o’zbek, ozarbayjon, fors tojik adabiyoti namoyandalarining ijodi, asarlari haqidagi fikr mulohazalari mo’jaz qilib ifodalangan.

Sharq tasviriy san’atining yirik namoyondasi, mo’yalarning sehri bilan nafosat olamiga nur baxshida etgan buyuk musavvir **Kamoladdin Behzodning** nomi jahon tasviriy san’ati va estetika tarixida alohida o’rin egallaydi.

Keyingi ma’lumotlarga qaraganda Kamoladdin Behzod 1455 yili Hirotida kosib-hunarmand oilasida dunyoga kelgan. U ota-onasidan juda erta mahrum bo’lgan. Biroq uning yoshligi qanday kechganligi to’g’risida ma’lumotlar yo’qligi sababli rassomning asli ismi tug’risida ham ikkilanishlar mavjud, ya’ni rassomning asli ismi Behzodmi yoki Kamoladdinmi - bular hozirgacha noma’lum.

Kamoladdin Behzod buyuk bobomiz Alisher Navoiy davrida yashab ijod qilganligi uning yaratgan asarlaridan ma’lum. Behzod madaniyat va san’atning rahnamosi Alisher Navoiy dahosidan etarlicha bahramand bo’la olganligi ko’pgina adabiyotlarda ta’kidlangan. O’z davridayoq Alisher Navoiy portretini yaratish borasida Kamoladdin Behzod samarali ijod qilgan. shuni alohida ta’kidlash joizki, rassom miniatyura yo’nalishida ijod qilgan musavvirlardandir. U o’sha davrda ijod qilgan buyuk donishmandlar, jumladan Abdurahmon Jomiy, Amir Xusrav Dehlaviy, Nizomiy Ganjaviy va Alisher Navoiy kabi allomalarning asarlariga miniatyuralar chizish bilan Hirot madaniyat olamiga tanilib boshlagan. "Miniatyura"- so’zi kitobga ishlangan surat (mo’jaz surat) yoki kichik hajmdagi nafis tasvirlarga nisbatan ishlatiladi. Kamoladdin Behzod tomonidan yaratilgan XV asrning 80- yillariga mansub Alisher Navoiy bilan Sulton Husaynning madrasadagi qiyofalari aks ettirilgan miniatyuralar "muraqqa", ya’ni tasviriy san’at

albomlaridagi miniatyuralar e'tiborga molik. Bu miniatyuralarda tabiat ko'rinishlari fonida ustoz va shogirdlar o'rtasidagi samimiy muloqotlar payti aks ettirilgandir. Mazkur asarlar hozirgi kunda Sankt-Peterburg shahridagi Saltikov-Shedrin nomidagi kutubxonada saqlanmoqda.

Markaziy Osiyo estetik tafakkur tarqqiyotini o'rganishning ahamiyati to'g'risida qisqacha to'xtaladigan bo'lsak, har bir halq va har bir millat, ayniqsa yosh avlod o'z tarixini bilmasa, asrlar davomida ota bobolari va buyuk allomalar qoldirgan bebaho ma'naviy merosdan bebahra qolsa, milliy an'analari va urf odatlarini o'ziga singdira olmasa, o'zining kimligini, o'zligini tushunmay qoladi. Tarixni bilish, undan to'g'ri va xolisona xulosalar chiqara olish inson ma'naviy kamoloti uchun nihoyatda muhim.

Tayanch tushunchalar:

Renessans, dunyoviy ilm fan,notiqlik san'ati, hattotlik, aqliy mukammallik, tug'ma va keyin erishilgan qobiliyat,estetik fazilatlar, yoqimli va yoqimsiz tovushlar,nafis san'at, musavvirlik, shaharsozlik, adabiyot va san'at, miniatyura.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.Dastlabki estetik fikrlar qanday shakllangan?
- 2.Markaziy Osiyoda Uyg'onish davri qachon boshlangan?
- 3.“Renessans” tushunchasini izohlab bering.
- 4.Markaziy Osiyo Uyg'onish davri mutafakkirlaridan kimlarni bilasiz?
- 5.Farobiyning estetik qarashlari uning qaysi asarida ifodalangan?
- 6.Abu Rayxon Beruniy go'zallikka qanday ta'rif bergan?
- 7.Abu Ali ibn Sino tovushlarning insonga ta'siri to'g'risida qanday fikrlar bildirgan?
- 8.XY-XYI asrlarda yashab ijod etgan allomalardan kimlarni bilasiz?

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.:O'zbekiston 1998.

- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 7.Eстетika. Slovar. M.1989.
- 8.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 9.Falsafa qomusiy lug'ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 10.Мартынов V.F. «Go`zallik falsafasi» Minsk 1999.
11. Jumabaev Y. "O`zbekistonda falsafiy va ahloqiy fikrlar taraqqiyoti tarixidan ", T. 1997.
- 12."O`zbekistonda falsafiy va ijtimoiy-siyosiy fikrlar tarixidan lavhalar" (M.Xayrullaev tax.os) T., 1995.
13. Sulaymonova X. "G`arb va sharq" T., 1997.
- 14.Oydinov N., "O`zbekiston tasviriy san'ati tarixidan lavhalar", T.1997 .

4- mavzu: Estetik ong va estetik faoliyat.

Reja:

1. Estetik ong ijtimoiy ong shakli sifatida.
2. Estetik ongning tarkibiy to'zilishi va uning mohiyati.
3. Estetik ong va estetik faoliyat.
4. Estetik ong va estetik faoliyatni o'rganishdan maqsad.

Inson ongli mavjudot sifatida o'zini qurshab turgan voqelikka faol munosabatda bo'ladi, narsa va hodisalarning xossalarini inobatga oladi. Shuning uchun ham inson hayvonlardan farqli ravishda har bir narsaga o'ziga xos mezon nuqtai- nazaridan yondoshadi. Agar inson mezon tuyg'usidan mahrum bo'lganida voqea- hodisalar, narsalardagi go'zallikni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lmaganida, uning faoliyati bunyodkorlikka emas, vayrongarchilikka qaratilgan bo'lardi. Nafosat qonunlariga rioya qilish, yaratish qobiliyati inson faoliyatining mohiyat va mazmunini tashkil etadi. Asal ari o'zining mum uyasini qura olishi bilan ba'zi me'morlardan ham usta bo'lishi mumkin. Lekin eng qobiliyatsiz me'mor ham eng mohir asal aridan shu bilan farqlanadiki, u o'z qurmoqchi bo'lgan uyini miyasida qurib qo'ygan bo'ladi.

Estetik ong ob'ektiv dunyoga nisbatan bo'lgan inson estetik munosabatining sub'ektiv tomonidir. U ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida ahloqiy, siyosiy, huquqiy, diniy, ekologik va boshqa shu kabi ijtimoiy hodisalar bilan bir qatorda turadi.

Estetik ong - ma'naviy ruhiy voqea - hodisalar majmui bo'lib, ular ijtimoiy hayot zaminida vujudga keladigan estetik his tuyg'u, estetik did, estetik baholash, estetik orzu, estetik qarash va nazariyalar tizimini anglatadi.

Estetik ong ijtimoiy hayot zaminida uning bilan mutanosib tarzda o'zgarib, rivojlanib, takomillashib boradi. Ijtimoiy ong dastavval yaxlit, o'zining hozirgi ko'rinishi va shakllariga bo'linmagan, ya'ni ishlab chiqarish taraqqiyotining eng past darajasiga mos bo'lgan, bugungi davrga kelib esa bir necha shakllarga bo'linib ketgan.

Estetik ong ijtimoiy hayot in'ikosi bo'lib, jamiyat hayotiga har tomonlama ta'sir o'tkazadi. Jamiyat taraqqiyotida biror narsa yo'qki, ular

estetik orzu va estetik qarashlardan xoli bo`lsa. Estetik ong moddiy va ma'naviy ishlab chiqarishning hamma sohalariga iqtisodga, siyosatga, mafkuraga, ahloqqa va hattoki dinga, falsafaga, san'atga, fanga bevosita ta'sirini o'tkazadi.

Estetik ong ijtimoiy ongning maxsus shakli bo`lib, ong zaminida vujudga keladigan har qanday faoliyatning asosida yotadi. Har qanday faoliyat ko`rsatayotgan vaqtda go`zallikka intilib, uning qonuniyatlariga amal qilish va biror narsani hosil qilish har bir insonga xos xususiyatdir. Estetik ong estetik faoliyat mahsulidir.

Estetik ong badiiy ong bilan chambarchas bog`liq. Ular bir biriga yaqin bo`lsalar ham, bir xil ma'noni anglatmaydi. Estetik ong voqelikni butun borlig`icha idrok etib, qayta ishlash jarayonida vujudga kelsa, badiiy ong san'at asarini yaratish va idrok etish jarayonida namoyon bo`ladi. Badiiy ong badiiy asarlar tizimida ifodalansa, estetik ongning aks etish ko`lami ancha keng bo`lib, u odamlarning mehnat faoliyatida, uning natijalarida, moddiy va ma'naviy madaniyatning barcha turlarida o`z ifodasini topadi.

Estetik ongning ijtimoiy ong shakli sifatidagi ko`rinishidan yakka odam estetik ongi farq qiladi. **Yakka odam estetik ongi bu aniq bir shahs ongi, ma'naviy dunyosining bir qismi bo`lib, keng ma'noda u ham ijtimoiy mazmun kasb etadi, ya'ni ijtimoiy hayot jarayonida shakllanib, rivojlanib, takomillashib jamiyat mahsuliga aylanadi.** Estetik ong bilan yakka odam estetik ongi o`z sub'ektlariga qarab farqlanadi. Estetik ongning sub'ekti sifatida ijtimoiy tabaqalar, guruhlar, millatlar, elatlar, xalqlar tushunilsa, yakka odam estetik ongi sub'ekti sifatida muayyan bir shahs tushuniladi. Inson hayotga qadam qo`yar ekan, o`zidan oldin o'tgan avlodlar tomonidan yaratilgan, jamiyat hayotida izchil amal qilayotgan estetik his tuyg`ular, qoidalar, an'analar, didlar, g`oyalar tizimiga duch keladi. Shahs o`zining estetik jihatdan qaror topishida mazkur tizim bilan hisoblashishi, undan bahramand bo`lishi, uni o`zlashtirishi lozim bo`ladi. Shu ma'noda yakka odam estetik ongi hamma vaqt ijtimoiy estetik ong mahsuli sifatida namoyon bo`ladi.

Jamiyatning **estetik ongi** murakkab to'zishga ega bo`lib, harakatchan, o`zaro o`zviy aloqadorlikda bo`lgan bir qator **tarkibiy qismlardan** iborat. **Bular estetik his tuyg`ular, estetik did, estetik baho, estetik orzu, estetik qarashlar va nazariyalardir.** Ular bir - birlari bilan shunday bog`langanki, birini ikkinchisidan ajratib bo`lmaydi.

**Estetik his- tuyg`ular** ( estetik kechinmalar) inson ongning ajralmas qismi bo`lib, estetik ongning poydevori hisoblanadi. Estetik his- tuyg`ular estetik ongning barcha tomonlarini bezaydi va boyitadi. Ular necha ming yillar davomida inson nafosatning tabiiy- ilmiy shart-sharoitlarini o`zlashtirish jarayonida shakllangan. Estetik his- tuyg`ular murakkab ijtimoiy hodisa sifatida nafosat, hamohanglik, ohang, shakllar, uyg`unlik, moslik kabi tushunchalar bilan birga shodlik, hayratlanish, ajablanish, roxatlanish, lazzatlanish, shavq- zavq, nafrat kabi tushunchalarda ifodalanadi.

Nafosat, oliyjanoblik, ulug`vorlik, fojia va kulgu his- tuyg`ulari eng murakkab va turg`un his- tuyg`ulardir. Inson go`zallik, nafosat hissi vositasida voqelikni tabiiy va erkin tarzda idrok etib, uning natijasida alohida shodlik va lazzat tuyg`usiga ega bo`ladi. **Estetik his- tuyg`ular yakuni - bu estetik ta`sirlanish va lazzatlanishdir.** Estetik his tuyg`ularni qo`zg`otadigan voqea va hodisalarni biz tabiatda juda ko`plab uchratamiz. Masalan: yog`ayotgan yomg`ir ostida sayr qilish, bahor paytida gullab turgan bog`ga kirib qolish, ertalab qushlarning chug`urlashlari, ko`m ko`k maysalarning hidi, uzoqlarga uchib ketayotgan turnalarni ko`rib qolish va hakazo.

Estetik did - estetik ongning muhim tarkibiy qismidir. Estetik did insonning fikr- mulohazalari, hulq- atvori, hatti- harakatlari moddiy va ma`naviy ijodkorligi orqali namoyon bo`ladi. Ba`zida “did” tushunchasi odamlarning ayrim sohalarga moyilliklarini ham ifodalashi mumkin.

Estetik did voqea- hodisalarning, narsalarning estetik sifatlarini inson tomonidan idrok etmoq va baholamoq jarayonida olinadigan qoniqish yoki qoniqmaslik tuyg`usi orqali ifodalanadi. Estetik did zaminida go`zallikni hunuklikdan ajrata bilish va undan beg`araz shodlanish, lazzatlanish qobiliyati yotadi. Estetik did his- tuyg`ular bilan ish ko`radi, ya`ni hayot go`zalliklari va fojialarini his eta bilish, fojiali to`qnashuvlarni kulguli nomutanosibliklardan farqlay olish qobiliyati orqali namoyon bo`ladi. Umuman olganda, did to`g`risida bahslashilmaydi, chunki did- bu o`ta individual (har kimni o`ziga xos) hodisadir, birovga go`zal tuyulgan narsa, birovga shunday bo`lmasligi mumkin va aksincha birovga xunuk tuyulgan narsa , birovga shunday bo`lmasligi mumkin. Bu to`g`rida nemis faylasufi I.Kant aniq fikr bildirgan. Uning fikricha, did- bu yakka odamga xos bo`lgan tug`ma qobiliyatdir.

Estetik didning cheksiz hilma- hillik manbai- bu voqelikdir. Odamlarning didlarida qandaydir umumiylik bo'lsada, ular yakka tarzda namoyon bo'ladi. Qanday qilib? Estetik did voqelikni hissiy idrok etish bilan boshlanadi. Idrok etish jarayonida mavjud voqelikning hayol bilan o'ziga xos to'qnashuvi sodir bo'ladi, ya'ni inson hayolida biror narsaning go'zallik darajasini belgilaydi. Estetik idrok etilayotgan narsaning orzu qilingan narsaga mos kelishi yoqimli estetik hissiyot - shodlik va qoniqish baxsh etadi, mos kelmasligi esa ranjitadi. Umuman olganda, estetik did asosini orzu umid tashkil etadi.

Estetik baholash – didning aynan o'zi emas, balki uning og'zaki ifodasidir. Inson ma'naviy qadriyatlardan, san'at asarlaridan bahramand bo'la turib, u bevosita ko'rgan, bilgan va eshitgan narsalariga baho beradi. Biror bir sahna yoki kino asarini tamosha qilib bo'lgach, “yoqdi” yoki “yoqmadi”, deb xulosa chiqaradi. Bu aynan estetik bahoning o'zidir. Har bir inson estetik bahoni o'zining estetik didi darajasida bera oladi xolos. Narsa va buyumlarning estetik qiymati to'g'risidagi bahoni, faqat san'atshunos yoki shu sohadagi mutaxassisgina bera oladi, albatta.

Estetik orzu – estetik ongning muhim tarkibiy qismidir.

Ongning boshqa qismlari kabi orzu ham voqelikni in'ikos etish shaklidir. Orzu shunday hususiyatlarga egaki, u faqat mavjud narsalarni tasavvur etish bilan cheklanib qolmasdan, balki yana nimalar bo'lishi kerak va bo'lishi mumkinligini ham ifodalaydi. Har qanday orzu o'zida odamlarning hohish istaklarini, intilishlarini, tilaklarini ifoda etadi. Orzu aslida hohish istak bo'lib, u barcha odamlarga xosdir. Har qanday orzu belgilari estetik orzuda aks etib, orzu qilingan va amalga oshgan narsalar shaklida moddiy va ma'naviy ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Estetik orzu belgilari insonning hulq atvorida, ishlarida, uning voqelikka bo'lgan munosabatlarida aks etadi.

Estetik orzu tushunchasi ahloqiy orzu, siyosiy orzu, huquqiy orzu va ijtimoiy ong shakllari bilan bog'liq boshqa orzular bilan o'zviy aloqador. Eng adolatli to'zum ahloqiy orzuda ifodalansa, eng demokratik davlat siyosiy orzuda, huquqlari to'la ta'minlangan jamiyat huquqiy orzuda ifodalanadi. Bir so'z bilan aytganda, estetik orzu barcha orzularni o'zida mujassamlashtiradi, ya'ni bunda kishilar teng huquqli, adolatparvar, demokratik to'zumda yashayotib, mehnatda, atrof muhitda, kishilarning o'zaro munosabatlari go'zal bo'lgan eng chiroyli hayot haqidagi orzularni birlashtiradi.

Estetik ongning yana bir tarkibiy qismi **estetik qarashlar va nazariyalar** bo`lib, ular estetik ongning g`oyaviy tomonini tashkil etadi va ular tabiat, jamiyat, san`at mohiyati haqidagi fikr- mulohazalar, g`oyalar tizimini anglatadi. Go`zallik, oliyjanoblik, fojiali, kulguli, san`atning mohiyati va burchi masalalarini qamrab olgan estetik qarashlar va nazariyalar estetik ongning barcha qismlariga o`z ta`sirini o`tkazadi. Estetik his- tuyg`ular, didlar, ayniqsa orzular xususiyati ko`p jihatdan estetik qarashlar va nazariyalarga bog`liq bo`ladi.

Estetik qarashlar va nazariyalar u yoki bu estetik hodisalarga taalluqli g`oyalar, tushunchalar va ma`lumotlar ko`rinishida namoyon bo`ladi. Estetik nazariya - bu estetik ob`ektni butunligicha qamrab oladigan tamoyillar, qarashlar, tushunchalar, qoidalar, aqidalar, bilimlar tizimidir. Estetik nazariya mantiqqa, tamoyil -tizimlarga, dalil- isbotlarga, falsafiy uslubiyotga asoslanadi.

Estetik ong va estetik faoliyat tushunchalari mohiyat jihatdan o`zaro bog`liq tushunchalar bo`lib, estetik faoliyat estetik ong asosida vujudga keladi, shakllanadi. Aniqroq aytganimizda estetik faoliyat estetik ongning amalga oshirilishi va moddiylashtirilishidir.

Estetik faoliyat asosini insonning muayyan talab va ehtiyojlari tashkil etadi. Muayyan talab- ehtiyojlar bo`lmasa, inson faoliyatining muayyan shakli ham vujudga kelmagan bo`lardi. Shu ma`noda talab- ehtiyojlar insonni faoliyatga undaydi, faoliyat esa yangi- yangi talab- ehtiyojlarni keltirib chiqaradi.

Ruhshunos olimlar estetik ehtiyojlarni inson talab ehtiyojlarining eng oliysi sifatida ta`riflaganlar. chunki estetik ehtiyojlar barcha moddiy va ma`naviy ehtiyojlar jamlangandir. Dunyodagi eng aqlli mavjudot inson ekan, go`zallikni chuqur anglash ham faqat insonga xosdir. Shu bois inson hamisha go`zallikka tashna bo`lib yashaydi. Estetik ehtiyojlar mohiyati esa ana shular bilan izohlanadi. Rivojlangan estetik ehtiyoj hech vaqt tayyor estetik qadriyatlarni iste`mol qilish bilan cheklanib qolmay, balki yangilarini yaratish, ijod qilishga rag`batni vujudga keltiradi. Inson faoliyatining barcha turlari ijtimoiy hayot jabhalarida namoyon bo`ladi. Estetik faoliyat inson moddiy yoki ma`naviy faoliyatining o`zagi bo`lib, uning barcha shakllari inson kuch qudrati mohiyatining erkin ifodasi bo`lib borgan sari estetik mazmun kasb etadi.

Estetik faoliyat moddiy ishlab chiqarishning barcha sohalarini mehnat sharoitlarini ham, mehnat samaralarini ham qamrab oladi. Bu borada ko`plab misollarni keltirish mumkin. Korxona yoki zavodda ishlab

chiqarilayotgan mahsulot zamon talablariga, haridorlar ehtiyojlariga javob bermasa, albatta rivojlanishga o'z ta'sirini o'tkazadi. Natijada ishlab chiqarishni texnikaviy qayta jihozlash va yangi texnologiyalarni joriy etishga to'g'ri keladi. Estetik asos – rivojlanish garovi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Mehnatning estetik jihatdan to'laqonli bo'lishi, birinchi navbatda ob'ektiv omillarga, qolaversa ishlab chiqarish jarayoni qatnashchilarining umumiy va estetik madaniyati darajasiga bog'liqdir. Bu yerda mehnat sharoitlari ham muhim o'rin tutadi. "Mehnat sharoitlari" tushunchasiga mehnat jarayonidagi ijtimoiy munosabatlar, mehnat anjomlarining eski-yangiligi, mehnat jarayonida sodir bo'ladigan voqea-hodisalar muhiti ham kiradi.

Noqulay ijtimoiy sharoitlar mehnatning estetik ijodiy hosil bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Mehnat insonning jismoniy va ma'naviy kuch qudratining mohiyatini ko'proq ifodalasa, uning estetik ahamiyati ham shunchalik ko'proq ortib boradi. Zo'ravonlik ko'rsatish, majburlash asosidagi mehnat nafosatdan uzoqlashadi. Bundan shunday xulosa kelib chiqadiki, mehnat estetikasi darajasini oshirish ko'p jihatdan mehnat ijodiyligini ta'minlashni, ijtimoiy adolatsizlikni badiiy ijod vositasida bartaraf etishni taqazo etadi. Bir so'z bilan aytganda ham mehnat estetikasi, ham estetik madaniyat darajasini oshirish bugungi kunimizda mamlakatimiz mustaqil rivojlanayotgan bir paytda juda dolzarb vazifaga aylanmoqda. Bu esa bir vaqtning o'zida estetika fanining ham dolzarb vazifasidir.

Estetik ong va estetik faoliyatning mohiyatini anglash jamiyatning har bir a'zosi uchun juda muhimdir. chunki o'zimiz yashayotgan jamiyatni o'zimiz farovonlashtirishimiz, uni yanada go'zal bo'lishiga intilishimiz zarur. Bunda esa estetik ongning shakllanishi va estetik faoliyatni rivojlanishi estetik madaniyatni o'sishiga olib kelishini unutmasligimiz lozim. Yuqorida ta'kidlanganidek, estetik asos – rivojlanish garovi ekan, demak estetik ongning o'sishi va estetik faoliyatning yanada takomillashuvi, estetik madaniyatning oshishi, zamonaviy dizayn to'g'risida bilimlarni oshirish – mustaqil Vatanimizni jahon tsivilizatsiyasiga tezroq qo'shilishiga olib keladi.

Tayanch tushunchalar:

Bunyodkorlik, estetik ong, estetik his- tuyg'u, estetik kechinmalar, estetik did, estetik baho, estetik orzu, estetik qarashlar va nazariyalar, estetik faoliyat, estetik madaniyat, badiiy ong, yakka odam estetik ongi.

Takrorlash uchun savollar:

1. Estetik ong ijtimoiy ong shakli sifatida qanday amal qiladi?
2. Estetik ong qanday tarkibiy qismlardan iborat?
3. Estetik ong va estetik faoliyat o`rtasidagi aloqadorlik nimada?
4. Estetik his tuyg`ularga nimalar kiradi?
5. Estetik did qanday hususiyatlarga ega?
6. Estetik baho nima?
7. Estetik orzu o`zida nimalarni aks ettiradi?
8. Estetik qarashlar va nazariyalar aks ettirilgan asarlardan qaysilarini bilasiz?
9. Estetik faoliyat qanday hususiyatlarga ega?
10. Estetik madaniyat nima uchun zarur?

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.: O`zbekiston 1998.
3. Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O`zbekiston 1999.
4. Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T. Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
7. Estetika. Slovar. M. 1989.
8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T. 1996 .
9. Falsafa qomusiy lug'ati. (Q. Nasarov tah. ost.) Toshkent 2004.
10. Мартынов В.Ф. «Go`zallik falsafasi» Minsk 1999.

5- mavzu: DIZAYN- bir butun estetik muxitni tashkil etish san'ati.

Reja:

1. Dizayn – texnik estetika, uning mohiyati va hususiyatlari.
2. Dizayn va amaliy san'at ortasidagi ozaro aloqadorlik.
3. Dizaynerlik va rassomlik kasblariga qoyiladigan asosiy talablar.

Hozirgi davrda estetik faoliyatning muhim tarkibiy qismi hisoblangan **texnik estetika - dizaynga** katta e'tibor berilmoqda. Tez rivojlanib borayotgan texnika taraqqiyoti va bozor iqtisodiyotiga o'tilgan bir davrda korxonalarimizning texnika qiyofasini o'zgartirish va takomillashtirish bilan birgalikda, insonni jismoniy mehnatdan ozod etib, ishchidan faqat kuchgina emas, balki e'tibor, hozirjavoblik, boy intellektual mo'ljal ham talab etiladi. Shunday murakkab vaziyatlar tug'ilmoqdaki, bunday hollarda xodim juda qisqa muddat ichida shoshilinch va optimal choralar ko'rishi kerak bo'ladi. Bunday sharoitda ishchi ratsional tashkil etilgan muhitga ega bo'lmog'i zarurki, odam erkin ishlashga halaqit beradigan begona ta'sirlardan - nursiz bo'yoqlar, mashina va uskunaning qo'pol formalari, mexanizmlarni boshqarishning noqulayligi, pribor ko'rsatkichlarning nomukammalligidan holi bo'lishi kerak. Mana shunday paytda texnik estetika - dizayn yordamga kelishi kerak. Texnik estetika mamlakatimizda hali kam rivojlangan sohalar jumlasiga kiradi. Sobiq ittifoq davrida bu fan sohasi 1963 yildan mustaqil soha sifatida rivojlanib boshlagan edi. Texnik estetika - texnikadagi badiiy printsiplar to'g'risidagi, ishchiga ishlab chiqarishda qulaylik tug'dirish masalalari to'g'risidagi fandir. U texnikani badiiy jihatdan konstruktsiya qilish qonunlarini, hamda inson mehnat qilayotgan ish muhiti, ishlab chiqarish anjomlari, uskunalarini uyushtirish va tashkil etish muammolarini o'rganadi. **Yosh fanning vazifasi va maqsadi - mashina, mexanizm, agregatlar, keng iste'mol buyumlarining texnik takomillashuvini go'zallik bilan bog'lash, mehnat va hordiq chiqarish uchun ratsional, eng qulay sharoit yaratishdan iborat.** Estetikaning bu yangi sohasini "mehnat estetikasi", "sanoat estetikasi", "texnik estetika" kabi nomlar bilan atamoqdalar. Bizning nazarimizda "texnik estetika" eng munosib va eng ma'qul nomdir, chunki texnik estetikada mehnat estetikasi ham, sanoat estetikasi ham, ishlab chiqarish estetikasini ham qamrab oladi. Texnika estetikasi badiiy

konstruktirlashtirish (konstruirovaniye -to'zama) bilan, ya'ni dizayn bilan chambarchas bog'liqdir. "**Dizayn**"- so'zi inglizcha so'z bo'lib, badiiy konstruktirlashtirishni tashkil etadi. Dizayn faqatgina texnikaning go'zalligini o'rganish bilan shug'ullanmaydi, balki texnikaning zamonaviylashuvini va qulaylashtirilishini ham nazarda tutadi.

Hozirgi paytda mutaxassislar «dizayn» tushunchasiga turlicha izohlar bermoqdalar.

Bir guruh olimlar, dizayn – bu har qanday loyihalashtirish, ya'ni bunda turlicha narsalarni yaratish, qurol, asbob – uskuna, umuman narsalar dunyosini yangidan zamonga mos tarzda yaratish jarayonidir, deb tushuntiradilar.

Boshqalari, XX asrda paydo bo'lgan loyihalash va badiiy-bezatish faoliyatining yangi hosil bo'lgan kasbiy turidir, deb ta'riflamoqdalar.

Uchinchilari esa, badiiy loyihalashtirish asosida estetik muhitni tashkil etishning inson hayotidan kelib chiqadigan hayoliy-to'qima narsalar dunyosining hosil qilinishi yotadi, deb tushunadilar.

Bizning nazarimizda, bu yondoshuvlarning barchasi to'g'ri albatta, lekin bunda shuni aytish joizki, predmetli – fazoviy muhitni badiiy loyihalashtirish- bu faqat moddiy qadriyatlar yaratish degani emas. Narsa va intererlarga muayyan vazifani bajarishi uchun estetik sifatni berayotib, rassom (yoki dizayner) insonning o'zini qayta shakllantirganday bo'ladi yoki uning o'zini «loyihalashtiradi», chunki bu narsalardan insonning o'zi foydalanadi va shu muhitda hayot kechiradi. Shuning uchun ta'kidlash joizki, dizayn jamiyatda muhim tarbiyaviy vazifani bajaradi, shuningdek jamiyat hayotida ijtimoiy-madaniy va ijtimoiy-siyosiy rolni ham o'ynaydi. Dizaynning muhim nazariy asosi – bu texnik estetikadir.

Dizayn–bu ob'ektlarni shunday loyihalashtirish-ki, bunda shakl ob'ektning nimaga mo'ljallanayotganiga, insonning gavda to'zilishiga mos keladi va shu bilan birgalikda ham qulay, ham tejamli, ham go'zallik qonuniyatlariga to'la javob bera oladi.

Dizayn–bu bizni qurshab turgan narsalar dunyosini estetik jihatlariga qarab badiiy loyihalash va konstruktirlashtirishdir. Dizayn–bu foydalilik va go'zallikning tabiiy birligidir, amalda va shaklda bir butunlikka ega bo'lgan narsalar dunyosidir.

Dizaynning muhim xususiyati shundan iboratki, bunda har qanday yaratilgan narsa foydalilik, ishonchlilik va go'zallik nuqtai nazaridan qaralib emas, balki uning barcha tomonlama ishlab chiqarish va qo'llanishi jarayoni bilan ham aloqadorlikda ekanidir. Bunda har qanday narsani tayyorlashning

soddaliligini, ko`p sonliligini ta'minlash bilan birgalikda, tayyorlangan narsaning qanday tashilishi, o`ralishi, uy xonasida qanday joy egallashi va qanday joylashtirilishi, uning narsaga bir butun tizimli yondoshishdan iborat.

Shunga alohida e'tibor qaratish zarurki, dizayn va amaliy san'at o`rtasida juda nozik aloqadorlik mavjuddir. Ularni hattoki bir medalning ikki tomoni, deb ham atash mumkin. Ikkala san'at turi ham predmetli estetik muhitni shakllantirishga qaratilgan. Dizayn va dekorativ amaliy san'at asarlariga bir xilda foydalilik, mustahkamlik va go`zallik xosdir. Bu asarlarni qanday qilib ajratib olish mumkin? Ba'zida buyumlarning ommaviyligi dizayn ob'ektlarining asosiy belgisidir, deb qaraydilar, rassomning noyob ijodini esa faqat dekorativ-amaliy san'atgagina xos, deb biladilar. Haqiqatda esa bularning har birisi juda murakkab tabiatga egadir.

Amaliy san'atning har qanday buyumi, masalan o`ymakorlik bilan ishlangan qutichani olaylik, uni korxonada ko`p adadda ommaviy tarzda ham ishlab chiqarish mumkin. O`z navbatida dizayn mahsuloti ham noyob bo`lishi mumkin, masalan kiyim-kechaklarni modellashtirish. Demak, ommaviylikni dizaynning muhim belgisi, lekin etarli va unchalik shart emas, deb hisoblash mumkin. Shunday bo`lsada muhimi shundaki, amaliy san'at asari mohiyati jihatidan san'at ob'ektidir. Quticha hattoki nuqsoni bo`lsada yoki ko`zlangan maqsadda ishlatilmasa-da san'at asari bo`lib qolaveradi, ayni paytda ishlatilmaydigan uskuna-kerakmaydigan narsadek, lekin uskunaning go`zalligi va foydaliligida uning foydali tomoni ustun bo`lsa, qutichaning shaklining go`zalligi va naqshliligi muhimdir.

Manfaatdorlik va har bir narsadan foyda olishga qaratilganlik dizayn ob'ektlarining yana bir muhim belgilaridandir. shuni nazarda tutish lozimki, «qulaylik», «foyda» tushunchalari keng ma'nolarda tushunilsada, uni faqat jismoniy qulaylik deb emas, (masalan inson qo`li uchun yaratiladigan qulaylik), balki ruhiy shinamlilik hosil qilish qobiliyatini ham, shuningdek kayfiyatga ta'sirini va ma'lum darajada tijoratda ustunliklarga erishish tomonlarini ham o`ylash kerak.

Biz narsa va predmetlar olamida yashar ekanmiz, ular qulay, foydali, arzon, chiroyli va ham albatta zamonaviy bo`lishi kerak. Dizaynerlar bu borada faoliyat olib boradilar va inson hayoti uchun zarur bo`lgan asbob-uskunalarni, transport vositalarini, maishiy turmush buyumlarini, kiyim-kechaklarni zamonga mos tarzda yaratish uchun tinmay mehnat qiladilar. shunisi qiziqarliki, dizayn ob'ektlari barcha san'at asarlari kabi zamonni, jamiyatning texnik taraqqiyot darajasini va ijtimoiy-siyosiy to'zumni ham aks ettiradi. Dizayn tilini faqat yaratilgan ob'ektlar orqali tushunib olish mumkin.

Qolaversa, uzoq avlodlardan meros qolgan narsalar tilini va zamonaviy ustalarni tushunishni o`rgangan ma`kul.

Dizayning tasviriy-ifodali vositalari sun`iy san`at turlari uchun ham umumiydir: nuqta, chiziq, o`ziga xoslik, to`zilishi, rang, shakl, hajm, mutanosiblik, og`irlik va kenglik. Ushbu elementlar kompozitsiya tamoyillariga asosan uyg`unlashadi: simmetriklik, asimmetriklik, muvozanat, ritm va harakat.

Dizaynda oltin kesim proportsiyasi (mutanosiblik) keng qo`llaniladi. Hamohanglik va uyg`unlik san`atning umumiy vositalari sifatida dizaynda ham bir butun tizim hosil qilishi kerak.

Musiqada so`z tanlash qanday amalga oshirilsa, ya`ni jarangdorlik va kompozitsiya qonunlari kuy bilan qanchalik bog`liq bo`lsa, dizaynda ham shunday, amalda qo`llash shakldan, aqliylik sun`iylikdan, go`zallik foydalilikdan, texnika san`atdan tashqarida tushunilmaydi.

Rassom va dizaynerning ijodiy yondoshuvlari o`rtasidagi farqni yanada yaxshiroq tushunish uchun bitta misolni keltirib o`tishning o`zi kifoya. Bir kambag`al chol kartoshka tozalaydigan pichoqlar yasar va ularni o`zi yashaydigan shahar bozorida sotar ekan. Tez orada ko`pchilik bu pichoqlardan sotib olgan-u, unga talab tushib qolgan. shunda qari chol rassomga murojaat etib, unga yordam berishini so`ragan. Rassom pichoqning dastasiga naqsh qo`yib, uni chiroyli va ko`rimli qilib beribdi. shundan keyin pichoqlarga biroz haridor chiqibdi-yu, yana savdo to`xtab qolibdi. Endi chol dizaynerga murojaat qilibdi. Dizayner pichoqning shaklini o`zgartiribdi, uni yanada qulayroq qilibdi va naqshdan voz kechib, kartoshka chiqindilari rangiga bo`yabdi. Yangi pichoqlar haridorlarga yoqib tushibdi. shundan keyin pichoqlar savdosi osha boshlabdi, bunda pichoq qulaylashtirilgani bir tomondan bo`lsa, boshqa tomondan, uni ko`pchilik tasodifan kartoshka chiqindilari bilan tashlab yuborganligi sababli pichoqlarga talab doimiy bo`lib qolgan. Dizaynerning o`ylaganiday bo`lib chiqdi: shaklini va rangini o`zgartirish orqali iqtisodiy foydaga erishish mumkin bo`ldi. Bu misol allaqachonlar hayotiy naqlga aylanib ketdi.

Har bir dizayner o`z oldiga qo`yilgan muammoni echishda o`zining badiiy ko`ra bilishiga, ustamonligiga va orttirgan tajribasiga qarab, o`zining shahsiy yo`lini topa bilishi kerak. Mana shu holatlarni e`tiborga olsa, hatto kelib chiqishi va xom-ashyosi bir xil bo`lgan biror ob`ekt chiqib qolsa, ikki dizayner bitta loyihani amalga oshirishda turlicha harakat qiladilar. shunisi muhimki, loyiha yaratuvchining umumiy madaniyat darajasi uning yasagan yoki hosil qilgan narsasida albatta ko`zga tashlanib turadi. Bu jihatdan yana

shuni aytish lozimki, dizayner kasbini egallagan odamda estetik madaniyat, ya'ni go'zallikni va qulaylikni, foydalilikni va tejamlilikni har qayerda va har sohada sezib bilishi kerak va yarata olishi kerak, mayli, hattoki u oddiygina yo'lak bo'lsin, yoki hojatxona bo'lsin, har qayerda va har sohada.

Dizayn san'ati bilan tanishar ekanmiz, uning turli bo'limlarini o'ziga xos va badiiy afzalliklarini o'rganish orqali amalga oshirgan ma'qul.

Dizaynning bir necha asosiy bo'limlari mavjud. Bular sanoat dizayni, grafik dizayn, vizaj (odam yo'ziga chiroy berish), kiyim-kechaklar dizayni, fitodizayn (quritilgan o'simliklarga zeb berish), atrof dizayni, ekologik dizayn.

Sanoat dizayni-bu asbob uskunalar, transport vositalari, maishiy-turmush buyumlari, idish-tovoqlar, mebellar va boshqa ko'plagan narsalarni loyihalashtirish va hosil qilishdir. Dizayner mana shu barcha narsalarning shakli mukammal, insonga mos o'lchamli va chiroyli bo'lishi haqida bosh qotirishi lozim. Sanoat dizaynida foydalilik, mustahkamlik va Go'zallik bir-birini taqoza etadi. Bundan tashqari, turli xil materiallarning estetik sifatlarini ham e'tiborga olish juda muhimdir.

Avtomobilsozlik misolida zamonaviy uslublar va industrial dizayn yo'nalishlarini ko'rib chiqish mumkin. Avtomobillar qaysi mamlakatda ishlab chiqarilgan bo'lsa, ular shu mamlakatni, zamonni va atrofga munosabatni o'zida aks ettiradigan ijtimoiy xususiyatlarni va madaniyatni namoyon etadi.

Yangi narsani yaratish – bu murakkab, ijodiy ishlab chiqarish jarayonidir, bunda turli xildagi mutaxassislar: olimlar, muxandislar va dizaynerlar qatnashadilar. Ayniqsa, bu jarayonda dizaynerlarning roli katta. U narsani o'ylab topadi, ya'ni bunda u faqat uning shaklini emas, balki undan qanday foydalanishni, o'ziga xosligini va boshqa narsalar ichida ajralib tura olishligini ham e'tiborga oladiki, bundan narsaning iste'molchiga yaroqliligi va sifatleri aniqlanadi. Dizayner keng dunyoqarashga, yuksak madaniyatga ega bo'lishi kerak, tarichni chuqur his qila bilishi va o'zidan oldingi avlodlar tajribasidan foydalana olishi zarur. U zamonaviy texnologiyalarni, sanoat ishlab chiqarishning murakkab texnikaviy muammolarini tahlil qilib bilishi kerak.

Dizayner narsa ustida olib borgan ijodiy ishida bir butunlikdan kelib chiqar ekan, u narsani eskizlarda va chizmalarda ko'rinadigan holda moddiylashtiradi. Aynan mana shu narsa uning badiiy o'ziga xosligini ko'rsatadi, u o'z uy-xayollarini qalam orqali rasmda ifoda etib, erkin fikrlaydi. Muxandis esa aniq hisob-kitob, qurilmadan, ya'ni xususiy

yondoshuvdan kelib chiqadi. U darhol yuksak aniqlik bilan detallarni ishlab chiqadi, keyinchalik ulardan bir butunlikni, ya'ni narsaning umumiy to'zilishini, uing mexanizmini hosil qiladi. shunday qilib, o'z mohiyati jihatidan har xil, lekin albatta birgalikda bir xil darajadagi madaniyatga ega bo'lgan dizayner va muxandisning faoliyati loyihani boshlanishida umumiy tugallangan echimni ko'ra olish, uni qabul qilish yoki undan voz kechish kerakligini namoyon etadi. Narsani ishlab chiqarishda konstruktsiya va texnologiyani aniqlash xom-ashyoni tanlashda imkoniyat tug'diradi.

Rassom o'z asarlarida doimo o'zini aks ettiradi. Dizaynerga bu narsani qilish keng miqyosda ruxsat etiladi. shunday ekan, likopcha yoki piyola nima to'g'risida gapira olar edi? Albatta gapira oladi, agar dizayner uni mahorat bilan, chiroyli, estetik tarzda yarata olgan bo'lsa, va shu bilan uni madaniy qadriyatlar qatoriga qo'shgan bo'lsa! shunday qilib, dizaynerning ijodiy ish jarayoni sifatida tom ma'noda predmetlar dunyosidagi barcha narsalar-idish-tovoqlardan tortib to asbob-uskunalargacha, bolalar o'yinchoqlaridan tortib to ulkan yuk tashuvchi mashinalargacha ijod etish mumkin.

Yuqoridagi ma'lumotlardan quyidagi hulosalarni chiqarish mumkin:

- Dizayn asoslarining nazariy qoidalari nimalardan iborat ekanligini;
- Dizayn turlarini ajrata bilish va izohlashni;
- Dizayn tilining badiiy-ifodali hususiyatlarini aniqlashni;
- Dizayn ob'ektlarini loyihalashtirishda badiiy-ifodalash vositasi sifatida chiziq, ohang, soyali surat, rang, uyg'unlik, shakl, kompozitsiyani qo'llay olishni;
- Dizayn ob'ektlarini estetik tahlil etish jarayonida ob'ekt turlarini uning qaysi vazifasini bajarishi, unga ketadigan sarf-harajat va bezatish o'rtasidagi muayyan aloqadorlik bo'lishini anglay olishni;
- Dizayn ob'ektlarini ularning qaysi sohaga mo'ljallanishga, materialning estetik sifatlariga, ishlab chiqarishning an'anaviy texnologiyalariga qarab, eskizlar, modellar va tekis loyihalar, relefli va hajmli-plastik kompozitsiyalarni bajarish mumkinligini;
- Atrof-muhitni bezatishda va qayta ishlashda amaliy tomonlama ishtirok etish zarurligini.

KONSTRUKTOR-RASSOM (DIZAYNER) lik kasbiga qo'yiladigan asosiy talablar:

Kasbning burchlari: Ishlab chiqarish va maishiy turmushga mo'ljallangan narsa, buyum (yohud majmua)larning badiiy-konstruktorlik loyihalarini ishlab chiqadi, ularning yuksak darajaga ega

bo'lgan iste'mol xususiyatlariga va estetik sifatlarga egaligini, iqtisodiy-texnik talablarga va ishlab chiqarishning ilg'or texnologiyalarga mosligini ta'minlaydi, badiiy konstruktorlashning turli bosqichlarida zarur bo'ladigan patentlik va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni tanlash va tahlil qilish bilan shug'ullanadi. Loyihalashtirilayotgan buyumlarga buyurtmachilar tomonidan qo'yiladigan talablarni, shu buyumlarni tayyorlashga kirishgan korxonaning texnik imkoniyatlarini o'rganadi.

Bir-biriga o'xshash bo'lgan mahalliy va chet el mahsulotlarini qiyosiy tahlil qiladi, ularning estetik darajasini aniqlaydi va baholaydi. Badiiy-konstruktorlik masalalarini hal qilish bilan bog'liq bo'lgan, har bir bosqichda bajariladigan va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida, shuningdek eksperimental ishlarda, loyihalashning texnikaviy vazifalarini aniqlashda va ularni buyurtmachilarning hohishlarini inobatga olgan holda badiiy-konstruktorlik takliflarini ishlab chiqishda ishtirok etadi.

Buyumlarning shakl-shamoyillarini, hajmli-fazoli va grafikali loyihalarini, konstruktorlik-pardozlovchi materiallarni va tashqi bezatish qismlarini eng ma'qul yo'llarini topishda izlanishlar olib boradi, taklif etilgan konstruktsiya bo'yicha iqtisodiy hisob-kitob uchun ma'umotlar to'playdi, tarkibiy qismlar va to'zilmalar ustida qarorlar ishlab chiqadi. Loyihalashtirilayotgan mahsulotga zaruriy texnikaviy hujjatlarni (umumiy ko'rinishi va to'zilishi, maketlashtirish uchun eskiz va ishchi chizmalar, ko'rgazmali suratlar, ergonomik rangli-grafik chizmalar, modellarning ishchi loyihalari) tayyorlaydi, loyihalarni tushuntirish ishlarini olib borishda, ularni ko'rib chiqish va himoya qilishda ishtirok etadi. Yo'naltiruvchi hujjatlar ichida loyihalashtirish bilan bog'liq bo'lgan ishlarni, loyihalashtirilayotgan mahsulotni o'rash va reklama (ko'z-ko'z) qilish bo'yicha ishlarni ham amalga oshiradi.

Badiiy konstruktorlashtirish sohasida standartlashtirish ishlarini olib borish uchun materiallar tayyorlaydi. Mahsulot ishchi chizmalari bilan badiiy-konstruktorlik loyihalarini texnologik ta'minlanganlikning o'zaro mosligini, ayniqsa konstruktsiyaning tashqi ko'rinishiga va ishlatishdagi qulayligiga ta'sir etuvchi qismlarni va bog'liqliklarini nazorat qiladi, shuningdek loyihalashtirishda, ishlab chiqarishda, sinovlarda va mahsulotni tajribadan o'tkazishda, hamda ommaviy tarzda ishlab chiqarish uchun texnik hujjatlarni tayyorlashda badiiy-konstruktorlik qarorlarini bajarilishi bo'yicha avtorlik nazorati o'rnatadi, kerak bo'lsa unga zaruriy o'zgartirishlar kiritadi. Sanoat mollariga bo'lgan talablarni rasmiylashtirishda, loyihalarni badiiy-konstruktorlik ekspertizalaridan o'tkazish uchun materiallar

tayyorlashda va qayta hosil qilingan mahsulotlarni sifat ko'rsatkichlari bo'yicha attestatsiyaga taqdim etishda ishtirok etadi. O'z amaliy faoliyatida qo'llash maqsadida badiiy-konstruktorlik sohasidagi mahalliy va chet ellar ilg'or tajribalarini o'rganib chiqadi. Ishlab chiqiladigan mahsulot konstruktsiyasiga taalluqli ratsionalizatorlik taklif va kashfiyotlarga taqriz va xulosalar, standart loyihalar, texnik shart-sharoitlar va badiiy loyihalashtirishning boshqa normativ(me'yoriy) hujjatlarni tayyorlaydi. Amalga oshirilgan loyihalar kartotekasini to'zadi, qo'llanilayotgan materiallardan namunalar olib boradi. Tugallangan badiiy-konstruktorlik qurilmalariga hujjatlarni rasmiylashtiradi, bajarilgan ishlar natijalari to'g'risida hisobotlar tayyorlaydi.

Bilishi lozim:

Yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan buyruqlar, qarorlar va yo'l-yo'riqlarni; badiiy loyihalashtirish va sanoat namunalarini huquqiy himoyalash bo'yicha boshqaruv, uslubiy va me'yoriy hujjatlarni; korxonalarining texnikaviy rivojlanish istiqbollari; loyihalashtiriladigan mahsulotlarni takomillashuviga moyilligini; ergonomika va texnik-estetikani; badiiy loyihalashtirish va badiiy grafik ishlar uslublarini; sohada amal qilayotgan ishlab chiqarish texnologiyasi; ishlash printsiplari, montaj shart-sharoitlari va ishlangan mahsulotlarni texnik ekspluatatsiyasi va badiiy loyihalashtirishga taalluqli texnik shart-sharoitlarni, korxonadagi standartlarni; konstruktorlik hujjatlarining bir butun yagona tizimini; texnologiya hujjatlarning bir butun yagona tizimini; badiiy-loyihalashtirish hujjatlarini ishlab chiqish va rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablarni ; loyihalashtirilgan konstruktsiyalarda qo'llaniladigan materiallarning texnik tafsilotlari va hususiyatlarini; mahsulotni loyihalashtirish jarayonida hisobga olish zarur bo'lgan asosiy talablarni (boshqarilish, texnik-konstruktorlik, ergonomik, estetik va boshqa talablar); badiiy loyihalashtirishda texnik hisob-kitoblar o'tkazish uslublarini; standartlashtirish va patentlashtirish asoslarini; mahsulotlarni badiiy-konstruktorlik ekspertizasidan o'tkazish tartiblarini; ularning sifatlarini estetik baholash mezonlarini; sanoat mahsulotlari sifat bo'yicha attestatsiyadn o'tkazish tartiblarini; loyihalashtirishda qo'llaniladigan texnik vositalarni; sanoat mollariga talabnomalar rasmiylashtirish tartiblarini; badiiy loyihalashtirishning mahalliy va chet el ilg'or tajribalarini; iqtisodiyot asoslarini; ishlab chiqarishni, mehnat va boshqaruvni tashkil etishni; mehnat to'g'risidagi qonunchilik asoslarini; mehnatni muhofaza qilish, texnik xavfsizligi, ishlab

chiqarish sanitariyasi(tozaligi) va yong`inga qarshi himoya haqidagi qonun-qoidalarni bilish zaruriy hisoblanadi.

Malakaviy talablar: Konstruktor-rassom (dizayner) oliy badiiy-konstruktorlik ma'lumot va shu lavozimda ishlagan kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo`lishi kerak. Yoki o`rta maxsus ma'lumot, texnik-konstruktor lavozimida ishlab, kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo`lishi kerak.

RASSOMLIK KASBIGA QO'YILADIGAN ASOSIY TALABLAR:

Kasbning burchlari: O`zi faoliyat olib borayotgan jamoada, korxonada texnik estetikani joriy etish bo`yicha mehnat unumdorligini, uning jozibadorligini va samaradorligini oshirishga qaratilgan ishlar bilan shug`ullanadi. Korxonalarni badiiy-konstruktorlik asosida qayta jihozlash va turar-joy qurilishi loyihalarini ishlab chiqishda ishtirok etadi. Ishlab chiqarish, xizmatkorlik va madaniy-maishiy binolar qurilishida va ularni qayta jihozlashda estetik talablarga rioya etilishi ustidan, sanoat interverlarining to`g`ri qabul qilinishidan, ishlab chiqarish, xizmatkorlik, sanitar-maishiy xonalarni, dam olish va ovqatlanish joylarini, u erlarda mebel jihozlari va inventarlarning joylashtirilishi, xonalarni va ishlash joylarini etarli yorug`lik bilan ta'minlanganligini nazorat qiladi. Ishlab chiqarish xususyatlariga va mehnat turiga qarab, ishchi kiyimlarni (uniforma) tanlash bo`yicha tavsiyanomalar ishlab chiqadi. Ishlab chiqarish, hizmat va madaniy-maishiy binolarni zamonaviy mebel anjomlari, asbob-uskunalar, orgtexnika va boshqa jihozlar bilan to`ldirishda uslubiy yordam ko`rsatadi, shuningdek ko`rsatmali agitatsiya vositalarini ham tavsiya etib boradi. Korxona hududida obodonchilik va ko`kalamzorlashtirish bo`yicha, bino fasadini, kiraverishlarini va boshqa erlarini me'moriy-badiiy bezatish bo`yicha loyihalarni ishlab chiqadi. Ko`rsatmali agitatsiya, ko`rgazmalar, panno, plakat va boshqa bezatish ishlarining to`g`ri olib borilayotganligini kuzatib boradi.

Bilishi lozim:

Yuqori tashkilotlar tomonidan qabul qilingan buyruqlar, qarorlar va yo`l-yo`riqlarni; mehnatni tashkil etish bo`yicha uslubiy, normativ va boshqaruv materiallarini, ishlab chiqarish estetikasini, ishlab chiqarish texnologiyalari asoslarini; ishlab chiqarish estetikasini joriy etish bo`yicha mahalliy va chet el ilg`or tajribalarini; iqtisodiyot asoslarini, ishlab chiqarishni va mehnatni ilmiy tashkil etishni; mehnat to`g`risidagi qonunchilik asoslarini; mehnatni muhofaza qilish, texnika xavfsizligi, ishlab

chiqarish sanitariyasi (tozaligi) va yong`inga qarshi himoya haqidagi qonun-qoidalarni bilishi zaruriy hisoblanadi.

Malakaviy talablar:

1 kategoriyali rassom: badiiy oliy ma'lumot va shu lavozimda 2 kategoriyada kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo`lishi kerak.

2 kategoriyali rassom: badiiy oliy ma'lumot va shu lavozimda kamida 3 yillik mehnat stajiga ega bo`lishi kerak.

Rassom: badiiy oliy ma'lumot, mehnat staji talab etilmaydi yoki o`rta maxsus (badiiy) ma'lumot kamida 5 yillik mehnat stajiga ega bo`lishi kerak.

Tayanch tushunchalar:

Dizayn, loyiha, ergonomika-insonlar uchun qulayliklar yaratish sohasi, shakl hosil qilish, sanoat dizayni, grafikli dizayn, artdizayn - sanoat dizayni, kiyim-kechaklar dizayni, foto – dizayn, quritilgan o`simliklar dizayni,

atrof dizayni, ekologik dizayn, chizma, rasm, dizaynning ifodali vositalari, nuqta, chiziq, dog`, kontur-tashqi shakl

proportsiyalar-mutanosiblik, ritm - ohang, bir tekis

siluet - soyali surat, rang, kolorit - buyoqlarning mos kelishi,

faktura - haqiqiy tuzilishi, kompozitsiya – badiiy tuzilish.

Takrorlash uchun savollar:

1. «Dizayn» tushunchasini izohlab bering.
2. Yosh fanning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
3. Dizaynning muhim xususiyatlari nimalarda aks etadi?
4. Dizayn va amaliy san'at o`rtasida qanday aloqadorlik mavjud?
5. Dizaynda oltin kesim proportsiyasi deganda nimani tushunish mumkin?
6. Rassom va dizaynning o`rtasidagi farq nimada?
7. Dizaynning qanday bulimlarini bilasiz?
8. Dizaynerlik kasbiga quyiladigan asosiy talablar nimalar?
9. Rassomlik kasbiga quyiladigan asosiy talablar nimalar?

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:O`zbekiston 1998.
- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqloq mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 7.Eстетika. Slovar. M.1989.
- 8.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 9.Falsafa qomusiy lug`ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 10.Мартынов В.Ф. «Го`zallik falsafasi» Minsk 1999.

6- mavzu: Asosiy estetik tushunchalar .

Reja:

- 1.Estetikaning asosiy tushunchalari haqida qisqacha tafsilot.
2. Go`zallik va hunuklik estetikaning asosiy tushunchalaridir.
3. Fojialilik va kulgulilik tushunchalarining mohiyati.
- 4.Ulug`vorlik va qahramonlik, olijanoblik va pastkashlik – estetik kategoriyalardir.

Har bir fan o`zining tushunchalar sistemasiga ega. shu tushunchalarga qarab, fanning mohiyat - mazmuni belgilanadi. Yuqoridagi mavzulardan bizga ma'lumki, ijtimoiy ong shakllari dastlab Sharq mamlakatlarida vujudga kelib, keyinchalik Qadimiy Yunonistonda keng taraqqiy etgan. shuning uchun ham barcha fanlarga taalluqli terminlar, tushunchalar yunon tilidan o'tib kelgan. Masalan, logiya, kategoriya, etika, estetika, filosofiya va boshqa tushunchalar. Shulardan “ kategoriya” so`zi bir necha ma'nolarda qo'llaniladi. Ijtimoiy fanlarga taalluqli qilib ishlatadigan bo'lsak, bu so`z “tushuncha” degan ma'noni anglatadi. Masalan, etikaning asosiy kategoriyalari deganda, biz aynan shu fanlarga taalluqli bo'lgan tushunchalarni anglaymiz.

Fanga doir tushunchalarni izohlar ekanmiz, ularning ichida qaysi birlari asosiy va boshqalari ularga tobe ekanligini tushunib olishimiz zarur. Shunday qilib, estetika fanining asosiy tushunchalari bu go`zallik va hunuklikdir. Qayerda biz go`zallikka doir fikr - mulohazalarni uchratib qolsak, demak bu soha - estetika sohasi ekanligini bilib olamiz. Estetika tushunchalari bir vaqtning o`zida chuqur falsafiy ma`noga ham egadir, chunki ular falsafiy qonunlarni ham ifoda etishi mumkin. Masalan, go`zallik o`ziga qarama qarshi tomon hunuklikni, fojiaiviylik kulgulilikni, oliyjanoblik pastkashlikni, va boshqa shu kabi tushunchalar bir vaqtning o`zida ham birlikni, ham qarama qarshilikni ifodalaydi.

Bundan tashqari estetikada ulug`vorlik va qahramonlik tushunchalari ham keng tadqiq etiladi. Bir so`z bilan aytilganda, nimaiki inson his-tuyg`ulariga ta`sir qilsa, unda turli xildagi his, hayajonlarni qo`zg`otsa, demak bu estetika sohasiga taalluqli tushunchalar ekanligini payqash mumkin.

Asosiy tushunchalardan **go`zallik tushunchasiga** to`htalamiz. Go`zallik bu asosiy estetik qadriyat bo`lib, uni idrok etish qobiliyati estetik sub`ektning asosiy xossasidir. Bu xususiyat estetik ong va uning tarkibiy qismlariga taalluqlidir. Estetik his- tuyg`u, eng avvalo go`zallikni his etish jarayonini anglatadi. Estetik orzu esa go`zallikni inson hohlagan u yoki bu tasavvurlar tarzida ifodalaydi. Estetik did bo`lsa, ko`p jihatdan shahs va jamiyat nimani go`zallik sifatida idrok etishida namoyon bo`ladi, va nihoyat estetik qarashlar go`zallikning tabiati va mohiyati haqidagi fikrlarni anglatadi

Go`zallik to`g`risida juda ko`p fikr- mulohazalar, bahslar yuritilgan, har bir faylasuf, har bir donishmand, buyuk yozuvchilar go`zallikka turlicha ta`rif berganlar va izohlaganlar.

Qadimgi yunon faylasufi Platon ilk bor “Nima go`zal?” va “Go`zallik nima?” degan savollarga ajratish bilan falsafa tarihiga go`zallik to`g`risidagi ta`limotning asoschisi bo`lib kirgan edi. Uning ta`limotida go`zallik jonli, hissiyotli, o`zgaruvchan narsalar olamidan ajralib qolgan abadiy ruh – g`oya sifatida ta`riflanadi. Uning fikricha, go`zallik vujudga kelmaydi va barbod bo`lmaydi, balki u vaqt va makon tashqarisida amal qiladi. Go`zallik haqidagi “Platon yo`nalishi” G`arbda F.Akvinskiy, V.Gegel ijodlarida, Islomda esa musulmon madaniyatida davom ettirilib, go`zallik mohiyati yolg`iz Olloh irodasiga bog`liq ekanligi ta`kidlanadi.

Mutloq ruh - g`oya go`zallikning namoyon bo`lishidir, deb tushuntiradi Gegel. Uning fikricha, shunday narsa go`zalki, agar undagi tug`ma belgilar to`la tarzda namoyon bo`lsa. shunday daraxt go`zalki, agar undagi tug`ma

belgilari bevosita ko`rinsa. shunday inson go`zalki, agar unda yaxshi insoniy fazilatlar va sifatlar mujassamlashgan bo`lsa.

Rus faylasuflaridan F.Dostoevskiy go`zallik to`g`risida noyob va haqiqiy fikrni bildirgan. Uning ta`kidlashicha, go`zallik dunyoni saqlab qoladi. Buni qanday tushunish mumkin? Tasavvur qiling, qaysidir mamlakatda fuqorolar urushi yoki qandaydir tabiiy ofat yo`z berdi deylik. O`sha mamlakat aholisi nochorlikda qoladi, bolalar hayoti og`irlashadi, turli xil kasalliklar tarqaladi va hakazo. Shunday vaqtda boshqa mamlakat odamlari bunga qarab tura olmaydilar, yordam qo`lini cho`zib, birinchi navbatda bolalarga ma`naviy jihatdan ko`maklashishga harakat qiladilar. Bunday oliyjanoblikni faqat go`zallik qonuniyatlarini tushungan insonlarga qilishlari mumkin. Bundan tashqari go`zallikni chuqur his qila oladigan insonlar har qanday xunuk hodisalardan, hayot qiyinchiliklaridan osonlikcha chiqib olishlari mumkinligini ham, tushunib etish mumkin.

Shunday qilib, **go`zallik – bu voqelik( tabiat, jamiyat, san`at) hodisasi bo`lib, biror narsaga his- tuyg`u orqali ta`sir o`tkazish bilan insonda jismoniy va ma`naviy kuchlar oqimining ko`payishiga, shodlik, zavqlanish, ma`naviy qoniqish xolatini vujudga keltiradigan mavjudlikdir.** Go`zallik har bir inson uchun ahamiyatli hodisadir, chunki u hamisha foydalidir. Uning foydaliligi alohida turdagi foydalilik bo`lib, u eng avvalo insonga, jamiyatga, taraqqiyotga ma`naviy foyda keltiradi. ***Rivojlangan go`zallik his- tuyg`usi inson ma`naviy ravnaqining, demak erkinligining eng muhim ko`rsatkichi bo`lib xizmat qiladi.***

Go`zallik xilma xil darajada namoyon bo`ladi. Tabiatdagi go`zallik ijtimoiy hayot go`zalligidan, foydali - amaliy faoliyatdagi go`zallik badiiy ijoddagi go`zallikdan farq qiladi. Lekin go`zallik o`zining xilma- xilligi, rangorangligi bilan bir- biridan qanchalik farq qilmasin, ularning barchasi qandaydir umumiy belgilarga ega. Ana shu umumiy belgi tufayli hodisalarni go`zallik tarzida in`ikos etamiz. ***Go`zal narsalar inson amaliy faoliyatiga, manfaatlariga mos bo`lib, ularni idrok etish kishiga hayrat va quvonch baxsh etadi, shahsning uyg`un va hamohang rivojlanishiga, unda eng yaxshi insoniy fazilatlar tarkib topishiga ko`maklashadi.***

Inson hamma yerda va har qanday darajada mavjud tabiiy hamohanglik bilan to`qnashar ekan, u albatta tabiatning go`zalligidan zavq- shavq oladi, ongli yoki anglanmagan holda sevinadi, ma`naviy boylik orttiradi. Inson tabiat hodisalarini, u yoki bu ijtimoiy davrni, u yoki bu ijtimoiy guruhni go`zallik sifatida baholaydi.

Juda go`zal va go`zal tushunchalari bir biriga yaqindek tuyuladi, lekin bu tushunchalar shunisi bilan farqlanadiki, juda go`zal – bu go`zallikning oliy darajasi hisoblanadi. Go`zallik darajasini bilish uchun biz narsa va hodisalarning shakli va mazmuniga qarab ham ajratimiz mumkin. Masalan, tilla buyum o`ta nafisligi, undagi shakllarning murakkabligi, takrorlanmasligi uning shaklini ifodalasa, uning mazmuni tilladan ekanligi, chirimasligi, ifloslanmasligidir. Bu misolimiz “juda go`zal” tushunchasiga to`g`ri keladi.

Go`zallik estetikaning asosiy tushunchasi ekan, u siz har qanday estetik voqeani tushunish va tushuntirish mumkin emas. Go`zallikning ahamiyati qanchalik katta bo`lmasin, insonning voqelikka bo`lgan munosabati faqat go`zallik tushunchasi bilan o`lchanib qolmaydi, balki hayotda estetik voqealarga bo`lgan munosabatimiz hunuklik tushunchasida ham o`z aksini topadi.

Go`zallik singari **hunuklik** ham xilma- xil ko`rinishlarga ega. U bezorilik hatti- harakatlarida ham , qo`pollikda ham, insonning hayotiy manfaatlarining chegaralanganida ham ko`rinishi mumkin. Masalan, inson qandaydir sabablarga ko`ra, ikki qo`lidan ham ajragan , lekin u yashashda davom etayapti, qo`llari bo`lmasada, oyog`i bilan asbob- uskunalar to`zatishtni o`rganib oladi. Bu manzara insonda xunuk g`alati kayfiyatni hosil qilishi mumkin, lekin bu inson hayotiy manfaatlarining chegaralangani bir tarafdin xunukdek ko`rinsa, ikkinchi tarafdin insonning yashash uchun kurashayotganini ifodalaydi. Ijtimoiy hodisalarda insonning yaramas va qoloq odatlari ham hunuklikning belgisi sifatida idrok etiladi. Demak, hayot go`zalligini qaror toptirish uchun kurashni hunuklikning barcha ko`rinishlariga qarshi kurashdan boshlash zarur.

Shunday qilib, go`zallik va hunuklik estetikaning asosiy tushunchalaridir. Estetikaning boshqa tushunchalari bu ikkala tushunchaga tobeligini ta`kidlash zarur, chunki ular hayotiy nukta nazardan ham go`zallik va hunuklikka bo`ysunadilar. Masalan, fojia inson ruhini tozalashi bilan go`zal, lekin namoyon bo`lishda xunuk, kulgu ham go`zal va xunuk bo`lishi mumkin. Oliyjanoblik go`zal fazilat, pastkashlik esa xunuk, qahramonlik go`zal oqibat, qo`rqoqlik esa hunuklikdir.

Fojialilik va kulgulilik estetik tushunchalari orqali hayot ziddiyatlari va to`qnashuvlari baholanadi. Fojialilik va kulgulilik aslida bir biriga zid tushunchalardir, lekin bu zidlik mutloq emas, chunki ular biri ikkinchisiga o`tib turishi, biri ikkinchisini taqazo etishi ham mumkin. Fojialilik va kulgulilik tushunchalarini san`at yordamida yaxshiroq anglash mumkin.

San'at asarlarida fojialilik va kulgulilik yaxlit namoyon bo'ladi. Fojiali yoki kulguli holat insonning u yoki bu hatti- harakati natijasida paydo bo'ladi, bu hatti- harakat turli- tuman hayotiy kuchlar to'qnashuvi jarayonida vujudga keladi va rivojlanadi. Shu tariqa ular voqelik va inson orzulari o'rtasidagi nizoli munosabatlarni ochib beradi.

Fojialilik har doim falsafiy va estetik tafakkur e'tiborini o'ziga jalb etib kelgan. Fojialilik tabiati to'g'risida juda ko'p mutafakkirlar fikr mulohaza bildirganlar. Qadimgi Yunon faylasufi Aristotel fojialilikning tomoshabinga hissiy- ruhiy ta'siri, bu ta'sirning tomoshabin va fojia qahramoni o'rtalaridagi ma'naviy- ruhiy yaqinlik bilan bog'liqligi haqida gapirgan edi. Aristotel qarashlargiga ko'ra, fojiali his- tuyg'u murakkab tarkibga ega bo'lib, u achinish, qo'rquv va shodlikning o'ziga xos qorishmasidan iborat. (Bu estetika tarixida «katarsislar» haqida ta'limot deb yuritiladi). Bu yerda qahramon azob- uqubatlarga achinish, uning mudhish taqdiridan qo'rquv va nihoyat, ruhiy poklanishdan shodlanish ko'zda tutiladi. Agar shunday holat (poklanish) sodir bo'lmasa, tomoshabin dilxasta bo'lib chiqib ketsa, demak poklanish amalga oshmagan bo'ladi.

Fojia tomoshabinda qahramonning mashaqqatli azob- uqubatlari bilan bog'lanib, ko'pincha uning halokati bilan tugallansa ham, bari bir qayg'u va tushkunlik emas, balki yashash va kurash istagi, bu kurashda o'zining halok bo'lishini bilib turgan insonning mag'rur qiyofasi gavdalanadi. Inson ulug'vorligini tarannum etish hammadan ham ko'proq san'atning fojia turida o'z ifodasini topadi. Shuni ta'kidlash kerakki, fojialilikda insonning go'zallikka bo'lgan munosabati fojiaiy to'qnashuvlar ijobiy qahramoniga "ko'z yoshi", hamdardlik va azob chekish orqali namoyon bo'lsa, kulgulilikda inson go'zallikni himoya qiladi, unda hunuklikni kulgu orqali fosh qiladi.

Insonning dunyo voqea hodisalariga munosabatlaridan biri **kulgulilik** tushunchasi bilan izohlanadi. Kulgulilik iqtisodiy- moddiy, ijtimoiy- siyosiy, ma'naviy- ahloqiy hayot jabhalarida doimiy ravishda namoyon bo'ladi. Voqelikdagi kulgulilik holatiga faqat insongina kulgu bilan javob beradigan qobiliyatga ega, boshqa jonzorlar esa bundan mahrumdirlar.

Kulgu o'z xususiyatiga ko'ra demokratik mazmunga ega bo'lib, u barcha odamlarni birlashtiradi. Ular kulgu vositasida o'zaro tenglashadilar. Kulgu noinsoniy, noahloqiy illatlar bilan kurashning omilkor vositasigina bo'lib qolmay, balki insonning kuch- qudrati va ozodligi timsoli hamdir. Kulgu rang- barang va xilma- xil qirralarga ega bo'lib, mayin rag'batlantiruvchi, xushfe'l hazil- mutoyiba hissiyotidan tortib, to ayovsiz, achchiq istehzo hissiyoti doirasigacha amal qiladi.

Kulgulilikning har xil ko`rinishlari san'atning me'morchilikdan boshqa barcha turlarida namoyon bo`ladi va komediya shaklida to`la estetik ifodasini topadi. Kulguning badiiy shakllari orasida **mashara (satira)** alohida ahamiyatga ega. Mashara markazida doimo salbiy voqea- hodisalar joylashib, uning butun fosh qilish kuchi ana shularga qarshi qaratilgan bo`ladi. Masharadagi fosh etuvchi kulgu qahr- g`azabdan ajralmagan holda namoyon bo`ladi. Kulguning yana bir turi **hazil- hajv (yumor)** ham muhim ahamiyatga ega. Hayot ikir- chikirlari, kamchiliklarini tanqid qilayotgan ijodkor hazil- hajv tuyg`usi orqali insonni ma'naviy komillikka erishuviga yordam beradi, unda kulguli jihatlarni ko`ra bilish qobiliyatini tarbiyalaydi.

Ijtimoiy kulgu - mashara mavzusi, sodda kulgu - hazil- hajv mavzusi bo`lsada, hazil- hajv ham hayotdagi salbiy, xunuk hodisalarni mashara kulgusidan kam bo`lmagan darajada ochib bera oladi. Hazil- hajv kulguning g`azabli qoralashdan ko`ra, ko`proq yordam ko`rsatishga mo`ljallanishini ta'kidlab o`tish lozim. Kulguning fosh etuvchi xususiyatini ta'kidlar ekanmiz, uning ahamiyati kam bo`lmagan boshqa tomonlari - tarbiyalovchi kulgu, ko`ngilni yumshatuvchi va bo`shatadigan kulgu, achinish va mehr- shavqat ko`rsatish kulgusi, hayotbaxsh va do`stona kulguni ham borligini unutmasligimiz lozim.

**Ulug`vorlik va qahramonlik, olijanoblik va pastkashlik** tushunchalari ham estetikaning muhim kategoriyalaridan hisoblanadi. Ulug`vorlik ko`lami go`zallik ko`lamidek cheksizdir. Hattoki, go`zallik mazmuni ulug`vorlik voqea hodisalari bilan qorishib ketganida yanada boyiydi va cheksizlanadi. Ulug`vorlik tabiatda, jamiyatda va inson faoliyatida mavjud bo`lib, uning xususiyatiga ega bo`lgan barcha narsa va hodisalarda me'yor bo`lishi taqazo etiladi.

Tabiatdagi baland tog`lar, qudratli sharsharalar, cheksiz okeanlar, moviy dengizlar, inson oyog`i tegmagan qalin o`rmonlar, yoki bo`lmasa engilmas bo`ron, shamolning beayovligi va boshqa shu kabilar ulug`vorlik timsollari bo`lib, ulkanlik, buyuklik, tuganmaslik jihatdan umumiylikka ega. Tabiatdagi ulug`vorlik insonni zaiflikka emas, balki unda tabiat bilan qo`shilib ketishga intilish hissini uyg`otadi. Ulug`vorlik hissi o`zicha estetik mazmunga ega bo`lmagan quvonch, hayratlanish, tan berish, ehtirom kabi tuyg`ularni qamrab oladi. Bularga ba'zida qo`rquv hissi ham qo`shiladi. Qo`rquv hissi insonni kamsitmaydi, balki to`siqlarni engib o`tishga turtki bo`ladi.

Ulug`vorlik hissi umuminsoniy (ya'ni barcha insonlarga xos) bo`lishi bilan birga ijtimoiy hayotda tarihiy taraqqiyotga alohida ta'sir o`tkazuvchi hodisalar va jarayonlarni ham qamrab oladi. Ijtimoiy hayotda ulug`vorlik

qahramonlik va mardlik bilan shu qadar qorishib ketadiki, ularni ajrata bilish nihoyatda mushkul bo`lib qoladi.

Qahramonlikda ulug`vorlikka xos estetik va ahloqiy sifat to`la namoyon bo`ladi. Halq fidoyilari, elu yurt jonkuyarlarining qiyofalari bir vaqtning o`zida ham ulug`vorlikni, ham qahramonlikni ifodalaydi. Qahramonlik odatdan tashqari noyob, nodir, kam uchraydigan hodisadek bo`lib tuyuladi. Lekin u kundalik hayotda oddiy sharoitda eng sodda tarzda ham namoyon bo`lishi mumkin. Masalan, cho`kayotgan odamni qutqarish, olov ichida qolgan go`dakni olib chiqish va hakazo. Qahramonlik timsollari buyuk donishmandimiz Alisher Navoiy asarlarida mardlik, halol mehnat, ahloqiy qoidalarga doim amal qilishda o`z ifodasini topgan.

Tabiat va ijtimoiy hayotdagi go`zallikka **olijanoblik** ham hamohangdir. Aslini olganda, ulug`vorlikning jamiyatdagi, insonlar orasidagi ifodasi olijanoblikning o`zidir. Olijanoblik odatda, hamisha kundalik hayotda ko`nikib qolinganlar doirasidan chiqib ketadi, insonga tabiatda va uning o`zida qanday imkoniyatlar mavjud ekanligini ko`rsatadi. O`z ko`lami, buyukligi, qudrati bilan boshqalar orasida ajralib turadigan ajoyib voqealar olijanob tuyg`ularni keltirib chiqaradi. Muxabbat va do`stlikning ehtirosli va qudratli tuyg`usi har qanday to`siqlarni engish hamda har qanday sinovlardan o`tishga qodir, insoniyat haqqi uchun qilingan ishlar qudrati bularning barchasi olijanoblikni ifodalaydi.

Pastkashlik – olijanoblikning qarama qarshi tomonini aks ettiruvchi kategoriyadir. Odatda, estetik adabiyotlarda bu tushuncha haqida juda kam gapiriladi. Ijtimoiy hodisalarda pastkashliklar juda ko`p ko`zatiladi, shuning uchun bu to`g`rida bilish foydadan xoli bo`lmaydi. Pastkashlik insoniyatga xavf tug`diruvchi va salbiy ijtimoiy ahamiyat kasb etuvchi tabiat va jamiyat hodisalarini o`zida aks ettiradi.

Pastkashlik – bu insonning erki chegaralangan soha bo`lib, eng yomon estetik illatdir, shu bilan birga hunuklik va yovo`zlikning quyi darajasidir. Pastkashlik tushunchasi ko`proq insonning ahloqiy hatti harakatlari bilan qorishib ketadi, chunki u ba`zida yovo`zlik tushunchasi bilan aynanlashgan holda in`ikos etiladi. Pastkashlik alohidagi insonlar, halqlar, millatlar, qolaversa butun insoniyat uchun tahdid va havf tug`diruvchi veqelik hodisasidir. (Urushlar, fashizm, yadroviy qurollanish va boshqa shu kabilar). Shuningdek, pastkashlik qa`tiyatsizlik, insofsizlik va noinsonparvarlik qilmishlarini amalga oshiradigan kimsalarning odatlarini ham aks ettiradi.

Pastkashlikning san`atda ifodalanishi yovo`zlikni tasvirlash orqali amalga oshiriladi. Estetika tarixida birinchi bo`lib pastkashlik tushunchasini

Aristotel fanga tatbiq etgan. Badiiy adabiyotlarda pastkashlik voqea hodisalari salbiy obrazlarni yoritish orkali namoyon bo`ladi. Masalan, O`lmas Koshey, shum kampir, ajdaho, dev, shayton va boshqa shu kabilar.

Estetikaning boshqa tushunchalari kabi pastkashlik ham san`atning arxitektura turidan boshqa hammasida uchraydi, hattoki musiqa janrida ham. Masalan, D.D. Shostakovichning “Ettinchi simfoniyasi”, Motsart, Betxovenlar asarlarida va xakazolarda. Tasviriy san`atda xunuk va yovo`z kuchlarni bo`rttirib ko`rsatish orqali pastkashlik kengroq aks ettiriladi.

Shunday qilib, estetikaning barcha tushunchalarini o`rganish orqali estetik bilimlarni yanada oshirish mumkin. Barkamol avlodni shakllantirishda estetik tushunchalarning ahamiyati juda kattadir, chunki ular jamiyat hayotining barcha jabhalariga kirib boradi va ularni ma`naviy boyitadi, ijtimoiy ma`naviy ishlab chiqarishning muhim omili sifatida odamlar estetik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi.

Tayanch tushunchalar:

Kategoriya, tushunchalar sistemasi, go`zallik, hunuklik, fojialilik, kulgulilik, ulug`vorlik, qahramonlik, oliyjanoblik, pastkashlik.

Takrorlash uchun savollar:

1. Nima uchun barcha fanlarga doir tushunchalar Qadimgi Yunonistonda shakllangan?
2. “Kategoriya” so`zini izohlab bering.
3. Estetikaning asosiy tushunchalaridan qaysilarini bilasiz?
4. Go`zallik tushunchasiga ta`rif bering.
5. Hunuklik va pastkashlik tushunchalari o`rtasida aloqadorlik bormi?
6. Ulug`vorlik va qahramonlik tushunchalari o`rtasidagi bog`liqlik nimada?
7. Olijanoblikka misollar keltira olasizmi?
8. Estetik tushunchalarning ahamiyati nimada?

Adabiyotlar:

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:O`zbekiston 1998.
- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 7.Eстетika. Slovar. M.1989.
- 8.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 9.Falsafa qomusiy lug'ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 10.Мартынов В.Ф. «Go`zallik falsafasi» Minsk 1999.

7– mavzu: Mustaqillik ma'naviyati va estetik madaniyat.

R e j a:

- 1."Ma'naviyat" va "Madaniyat" tushunchalarining mohiyati,ular o`rtasidagi aloqadorlik.
- 2.Mustaqillik sharoitida ma'naviyatga bo`lgan munosabatning yangilanishi va estetik madaniyat.
- 3.Barkamol shahsni shakllantirishda ma'naviyat va estetik madaniyatning ahamiyati

"Manaviyat" va "madaniyat" tushunchalari hayotimizdan keng o`rin olgan tushunchalardir.Ilmiiy adabiyotlarda,mamlakatimiz Prezidenti asarlarida "Ma'naviyat" va "madaniyat" tushunchalariga ko`plab ta'riflar va izohlar berilgan.Ushbu tushunchalarni tahlil qilish va shu asosda bilimlarimizni yanada chuqurlashtirish foydadan xoli bo`lmaydi,albatta. "Ma'naviyat" so`zining negizida arabcha "ma'ni" so`zi yotadi,demak "Ma'naviyat" manaviy so`zining ko`plikdagi shakli sifatida ishlatiladi.Har bir narsa va predmetning ichki tomoni -mohiyati yoki mazmuni,ma'nosi hamda tashqi tomoni-shakli mavjud bo`lganidek,insonning ham ichki va tashqi ko`rinishlariga ega bo`lgan jihatlari mavjuddir."Ma'naviyat" inson ruhiy mavjudligining,uning ichki mohiyatidan kelib chiqadigan ehtiyojlarini qondiruvchi va uni boyituvchi diniy,ahloqiy,falsafiy bilimlar majmuidir. Demak,qaysi bir insonda yuqorida aytilgan bilimlar mujassam bo`lsa va u olgan bilimlarini doimo oshirib,rivojlantirib boradigan bo`lsa,shundagina u yuksak ma'naviyatli inson va shahs sifatida namoyon bo`la oladi. Ma'naviy bilimlar insonda birlamchi ehtiyojga aylanishi uchun,unga aql-farosat,o`zi va o`zgalarni baxti to`g`risida qayg`urishlik,hayotning mazmuni va kelajak to`g`risida fikr yurita olish qobiliyati zarur bo`ladi.Aks holatda ma'naviy bilimlar inson tomonidan o`zlashtirilmasa,jamiyatda turli tuman salbiy hodisalar yo`z berib turaveradi.

"Ma'naviyat" tushunchasini yanada soddaroq izohlaydigan bo`lsak,jamiyat hayotida sodir bo`ladigan barcha munosabatlar moddiy va ma'naviy turlarga bo`linadi.Moddiy munosabatlar inson hayoti uchun zarur bo`ladigan eb-ichish,kiyish,yashash kabi jarayonlarni amalga oshirishda hosil bo`ladi. Shuni ta'kidlab o`tish joizki,inson faqat o`z jismini boqmaydi,balki u

bir vaqtning o'zida ruhiy mavjudot bo'lgani uchun ham ma'naviy ozuqaga zarur bo'ladi va bu holat ma'naviy munosabatlarga kirishishga olib keladi. shunday ekan, ma'naviyat bu inson uchun zarur bo'lgan ruhiy ozuqadir va asrlar davomida to'planib kelgan zahiralaridir. Bugungi kunimizda bu zahiralar ulkan tarihiy merosga aylangan. Mustaqillik siyosati tufayli bu zahiralar yo'zaga chiqa boshladi, ularni o'zlashtirish va o'rganish imkoniyati paydo bo'ldi, demak ma'naviyat nafaqat davr talabi, balki har bir inson uchun yuksak ahamiyatga ega bo'lgan hodisadir. Ma'naviyatli inson eng madaniyatli insondir, desak mubolag'a bo'lmaydi, chunki madaniyatlilik darajasi insonning ma'naviyatlilik darajasi bilan belgilanadi. Shu o'rinda "Madaniyat" tushunchasiga izoh berish lozim. Avvalo shuni ta'kidlamok lozimki, madaniyat so'zi arabcha "Madina" va "niyat" so'z yasovchi qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan bo'lib, aynan "Shaharga oid" degan ma'noni anglatadi. Lekin, bu so'z kirib borgan boshqa halqlar tillarida, shu jumladan o'zbek tilida ham, bilimlilik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida ishlatila boshlangan.

Ko'pgina halqlarda madaniyat tushunchasi o'rnida lotin tilidan qabul qilingan "CULTURA" termini ishlatiladi. CULTURA deganda dastlab tabiat ob'ektlarining inson mehnat faoliyatining natijasida o'zgarishi, boshqacha aytganda erga ishlov berish, dehqonchilik bilan shug'ullanish tushuniladi.

Bu terminni yuqoridagi ma'noda ishlatish hozir ham uchraydi. Masalan, rus tilidagi "agrokultura" so'zida shunday mazmun yotadi. Lekin shuni ta'kidlash joizki, keyingi davrlarda lotincha termin ham kengroq mazmun kasb etib, u ma'rifatlilik, bilimlilik, tarbiya ko'rganlik ma'nolarida qo'llanila boshlangan.

"Madaniyat" tushunchasiga kengroq yondoshadigan bo'lsak, madaniyat - inson faoliyati natijasida yo'zaga kelgan barcha moddiy va ma'naviy narsalar majmuidir. Demak, ma'naviyatning o'zi madaniyatning alohidagi bir qismi ekanligini ta'kidlash zarur. Hattoki, inson tomonidan yaratilgan barcha moddiy narsalar ham ma'naviylik nuqtai nazaridan baholanishi madaniyatning ma'naviy tomonining ustunligini ko'rsatadi. Shuning uchun ham "Madaniyat" va "ma'naviyat" tushunchalari o'zaro aloqador, o'zviy bog'liq va ularni alohida ajratib bo'lmasligi, jamiyat taraqqiyotida biri ikkinchisiz rivojlana olmasligini ta'kidlash lozim.

Jamiyat hayoti davr va zamonlarda kechadi va doimo o'zgarib, rivojlanib, bir sifatdan ikkinchi sifatga o'tib turadi. Madaniyat va ma'naviyat sohalari ham albatta davr va zamonda taraqqiy etadi. Mustaqillikka erishish mamlakatimiz halqiga osonlikcha kechmadi, buning uchun necha avlodlar

hayoti va faoliyati baxshida etildi. Shuning uchun ham bugungi yoshlar Mustaqillikni davrimizning eng katta yutug'i sifatida qadrlashlari va uni yanada rivojlantirib, avlodlar orzu-armonlarini ro'yobga chiqarishga harakat etishlari juda muhimdir.

Mustaqillik O'zbekistonning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy ravnaqi ma'naviyat va madaniyat, ularning milliyligi bilan o'zviy bog'liqdir. Hozirgi davr ilmiy adabiyotlarida milliy ma'naviyatni va ijodiy tafakkurni rivojlantirish-jamiyat ijtimoiy yangilanishining bosh omillari sifatida talqin etilmoqda. Haqiqatdan ham ma'naviy imkoniyatlar darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, amalga oshirilajak ishlarning ko'lami shunchalik keng va ularning samarasi ham yuksak bo'ladi. Shu boisdan ham, mamlakatimiz yo'lboshchisi istiqbolga erishgan dastlabki kunlardayoq, ko'zlanayotgan oliyjanob ezgu niyatlarga erishishimizning asosiy sharti - mamlakatimiz fuqorolari dunyoqarashini tubdan o'zgartirishda, uni mutelik, qaramlik kabi kayfiyatlardan halos etish zarurligini alohida qayd etib o'tgan edi: "Bozor munosabatlariga o'tishning o'z yo'lini tanlab olish aholining tafakkur va milliy-tarihiy turmush tarzini, halq ananalari va urf-odatlarini har tomonlama e'tiborga olishga hal qiluvchi darajada bog'liqdir". Yukorida keltirilgan fikrlar ma'naviyatning insonga suvdek, havodek zarurligini, hamda madaniyatning milliy o'ziga xosligini tiklashga alohida e'tibor qaratilishi lozim ekanligini ko'rsatadi. Ma'naviyat va madaniyat uyg'unlikda jamiyat hayotini saqlab qoladi va mamlakat hayotini yanada rivojlanishda, halqlar o'rtasidagi munosabatlarni ezgulik yo'lida xizmat etishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Mazkur masalalarni biz uchun o'ta dolzarb muammolarga aylantirgan yana bir holat mavjud. U ham bo'lsa-biz Mutaqillikka jamiyatni ma'naviy inqiroz qamrab olgan, boy madaniy merosimiz, urf-odatlarimiz, azaliy qadriyatlarimiz toptalgan, oyoq-osti qilingan bir paytda erishdik. Shuning uchun ham bugungi ma'naviyatimiz zamonaviylikni yuksak ruhi bilan chuqur sug'orilgan va milliyligimiz, tilimiz, dinimiz, urf-odatlarimiz, qadimiy an'alarimizga tayangan bo'lmog'i zarur. Shunday ma'naviyatgina halqimiz, millatimiz, mamlakatimizni jahon hamjamiyatidan ilg'or o'rin olishga imkon yaratadi.

Ma'naviyat va madaniyat uyg'unligi deganda biz quyidagilarni nazarda tutamiz:

-Har bir insonni o'z shahsiy iqtidori, iste'dodi, qobiliyati, ijodiy imkoniyatlari mumkin qadar to'la ishga solishi, na-

moyon qilishi,rivojlantirishga undovchi mehnat,ishlab chiqarish madaniyatini:

-Bozor munosabatlarining,raqobatchilikka asoslangan,murakkab sharoitlarida tug`ri yo`l tutishning iqtisodiy madaniyatini:

-Moddiy va ma`naviy iste`mol yuksak darajasining muhim ko`rsatkichi-turmush madaniyatini:

-Mehnat jamoalari,aholi istiqomat qiladigan joylarda,kishilar o`rtasida tarkib topadigan,o`zaro yordam,hamkorlik,hamdardlik hamda insonga xurmat kabi muhim fazilatlarni taqozo etuvchi,insoniy munosabatlar madaniyatini:

-Hamma sohada ezgulikniqkaror toptiruvchi ahloqiy madaniyatni:

-Har bir kishi tomonidan o`z xuquqi hamda majburiyatlarini puxta bilishni,ularni o`zi va boshqalar farovonligi yo`lida amalda qo`llay olishini uddasidan chiqishining jiddiy omili-siyosiy va huquqiy madaniyati:

-Qaysi sohada faoliyat ko`rsatishidan qat`iy nazar go`zallik qonuniyatlarini ustun darajada rivojlantiruvchi estetik madaniyatni.

Biz ko`zlayotgan va Konstitutsiyamizda o`z aksini topgan insonparvar,huquqiy,demokratik davlat va fuqorolik jamiyatining bunyodkorlarida yuqorida ta`kidlangan uyg`unlik bo`lsagina,biz maqsadimizga aniq erishamiz.

Ma`naviyat va madaniyat uyg`unligida estetik jihatlar ustun turmog`i lozim. Zero estetik madaniyat hayotning barcha sohalarida zarur ekanligi bugungi kunda mustaqillik sharoitida juda sezilmoqda.**Estetik madaniyat deganda har bir insonda uning ichki his-tuyg`ulari,badiiy fantaziyasi,fahm-farosati borligini,ramziy tasavvurlarini hosil qilishi qobiliyati,tafakkurning zamonga xos rivojlanishiga moyilligini tushanamiz.**Estetik madaniyat bevosita insonning estetik faoliyati va badiiy ijodi bilan bog`liq.O`tkazilgan juda ko`p ilmiy tadqiqotlar natijasida shu narsa ma`lum bo`lganki,jamiyatning ijodiy mehnat natijalari va samaralari estetik madaniyat darajasiga bog`liq ekan.Ya`ni estetik madaniyat jamiyatda har bir kasb egasida ustun darajada rivojlangan bo`lsa,yaratilgan moddiy va ma`naviy boyliklar darajasi ham yuqori bo`lar ekan.

Estetik madaniyat aslida estetik ong mahsulidir.Estetik ong deganda inson kim bo`lishidan va qayerda turishidan qat`iy nazar go`zallikni his eta olishi,uni imkon qadar yarata olish qobiliyatini tushinamiz.Estetik ong insondan biologik jonzot sifatida o`z hayoti tashvishlaridan ma`lum darajada ozod bo`lishini taqazo etadi.Moddiy ehtiyoj asoratidagi hissiyot faqat cheklangan ma`no kasb etadi.chunki g`am-tashvishlar ostida qolgan, muhtoj inson har

qanday go`zallikka befarq bo`lib qoladi. Moddiy g`am-tashvishlar va manfaatlar girdobiga g`arq bo`lib qolish insonni orqaga sudraydi, ma`naviy tahqirlaydi, uni ijodga layoqatsiz qilib qo`yadi, bu esa jamiyat estetik madaniyatini rivojlanishiga salbiy ta`sir ko`rsatadigan yagona faktordir. shuni ta`kidlash joizki, antik davrda ma`naviyat va madaniyat hamohangligini "ruh-badan" hamohangligi ma`nosida talqin etganlar. Aflotun va Arastu ta`limotlarida yagona estetik orzuni qaror topdirish, yagona ahloqiy hulq-atvor va fuqorolik hislat-fazilatlarini shakllantirish to`g`risidagi g`oyalar hali antik davrdayoq ilgari surilgan edi.

O`zbekiston mustaqil davlat sifatida qaror topayotgan hozirgi paytda estetik madaniyatni ahamiyati yanada ortib bormoqda. Bular:

Birinchidan, mustaqillik sharoitida insonning har tomonlama rivojlanishi uchun shart-sharoitlar vujudga kelyapti, hayotning turli sohalarida faoliyat ko`rsatayotgan odamlarning ezgu- niyatlilik, ongliligi, faolliligi, ijodiy yaratuvchanlik qobiliyatlari tobora yaqqol sezilyapti.

Ikkinchidan, O`zbekiston aholisining aksariyat qismining umumiy madaniyatining yuksalib borishi jarayonida yangi texnika va texnologiyalar, ishlab chiqarishni tashkil qilish ishi tobora takomillashib boryapti;

Uchinchidan, yangi ishlab chiqarish munosabatlarining, bozor iqtisodiyotida keng o`rin egallab borayotganligi, qonunchilikning keng tarzda rivojlanib, amal qilib, yuksalib borishini taqozo etyapti;

To`rtinchidan, hozirgi davr ilmiy-texnika taraqqiyoti ishlab-chiqarish sohasini tubdan qayta qurishga imkoniyatlar yaratib beryapti. Bu hol ishlab-chiqarishda band bo`lgan odamlarning ruhiy holatini ham tubdan o`zgartirishni, kasb-korlik, ijtimoiy-ruhiy, ahloqiy-zestetik darajasini oshirishni taqazo etyapti.

Beshinchidan, radio, televideniya, matbuot kabi ommaviy axborot vositalarining turmushdan keng o`rin olishi natijasida badiiy axborot hajmining ham keskin ortib borishi, diyorimizda milliy qadriyatlarimizning qayta tiklashni va ularga atalgan turli xil bayram, ayyom va ochilish marosimlarining ko`plab o`tkazilayotganligi, chet el fuqorolari bilan yakindan aloqalarning o`rnatilishi kabi tadbirlar estetik madaniyatning yanada rivojlanishida ahamiyati yuksak ekanligidan dalolat berib turibdi.

Biz bilamizki, har qanday ijtimoiy sohaning asosiy maqsadi barkamol rivojlangan shahsni shakllantirishdir. Barkamol rivojlangan shahs kim o`zi? ***Barkamol rivojlangan shahs deganda mustahkam iymon-e`tiqod, g`oya va insoniy fazilatlarga ega bo`lgan, o`z Vatani, millati uchun jonini ham ayamaydigan, siyosiy faol, huquqiy bilimdon, estetik didli, jismonan***

***baquvvat, aqlan etuk,zamon va davrni o`zida aks ettira olgan yuksak irodali kishini tushunamiz.*** Demak barkamol rivojlangan shahs - ma'naviyatli,ahloqli,siyosiy, xuquqiy, estetik madaniyatli, jismoniy etuk, ilmiy salohiyatga ega bo`lgan shahs ekan.shuning uchun ham barkamol avlodni shakllantirish vazifasi eng muhim va o`ta murakkab vazifadir,chunki shahsni bir tomonlama emas, balki uni barcha tomonlarini hamohanglikda rivojlantirishning o`zi murakkab jarayondir.

Barkamol avlodni shakllantirishga qaratilgan barcha ijtimoiy ong sohalarining qay birisi ustunlikka ega,qay birisi ustun darajada rivojlantirilishi zarur degan savolni qo`yadigan bo`lsak,albatta birontasini ustun deya olmaymiz, chunki insonda har-bir ong darajasi va madaniyat darajasi rivojlangan bo`lishi kerak, har bittasining ham ahamiyati yuksak.

Estetik madaniyat insonga u qayerda bo`lmasin va qaysi sohada faoliyat ko`rsatmasin,uning uchun zarur ekanligini yoddan chiqarmaslik lozim.Go`zallikni tushingan va qadrlagan insongina mustahkam iymon-e'tiqodga, insoniy fazilatlarga, siyosiy va huquqiy madaniyatga, san'at asarlalaridan chinakamiga bahramand bo`la olish qobiliyatiga ega bo`ladi. shuning uchun ham go`zallikni va zamonaviylikni o`zaro aks ettiradigan estetik sohani ustun darajada rivojlantirish maqsadga muvofiqdir.

Insondagi birlamchi ehtiyojlar "ruh-badan" ehtiyojlaridan kelib chiqar ekan,uning mehnat qilishga bo`lgan ehtiyoji va mehnat orqali hamma narsaga erisha olishini anglash tabiiydir. Inson uchun munosib mehnat sharoitlarini yaratib berish - O`zbekiston mustaqilligining muhim va dolzarb vazifalaridan biridir. Mehnat sharoitlari va vositalariga estetik mazmun bahsh etish omili shahsni estetik kamol toptirish bilan birga, shahsning foydali-amaliy vazifalarini ham kengroq doirada bajarishga safarbar etadi. Natijada estetik mazmun mehnat unumdorligini, samaradorligini va sifatini oshirishning muhim omiliga aylanadi. Qoloq ishlab-chiqarish texnikasi va texnologiyasi sharoitida esa har qanday mehnat turi shahsga estetik ta'sir ko`rsata olmaydi.Munosib mehnat sharoitlarini yaratishda ko`proq texnik estetikani (dizayn, bu to`g`rida o`tgan mavzuda gap yuritilgan edi ) joriy etish zarur. Bu o`z navbatida butun ishlab-chiqarish muhitini nafosat qonunlarga mos ravishda qayta qurishni taqazo etadi.O`zbekistonda o`zbek millatiga xos bo`lgan shahsning ishlab-chiqargan mahsulotida imkon darajadagi estetiklik bo`lishi zarur. Davrning bu talabi faqat mustaqillik ravnaqi uchun emas,balki millatning butun jahondagi ravnaqi uchun ekanligini alohida ta'kidlashimiz zarur.

Xulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, bizning maqsadimiz - insonparvar, huquqiy, demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini bunyod etish va unda yashash, bu davlatni barpo etish uchun barkamol rivojlangan shahsni tarbiyalash, bu shahsni tarbiyalash sharoitlarini hosil qilish uchun esa ilm-fanni rivojlantirish, bu esa o'z navbatida tabiat, borliq, jamiyatni rivojlanish qonuniyatlarini chuqur bilish zarurligini taqazo etadi. Faqatgina **yuksak ma'naviyat va estetik madaniyat**gina bizning nazarimizda ko'zlangan maqsadimizga aniq erishtira oladi.

Tayanch tushunchalar:

madaniyat, manaviyat, ijtimoiy soha, manaviyat va madaniyat uyg'unligi, estetik madaniyat, barkamol rivojlangan shahs, insonparvar demokratik davlat, fuqarolik jamiyati.

Takrorlash uchun savollar:

1. "Madaniyat" tushunchasini izohlab bering.
2. "Manaviyat" tushunchasining mohiyati va mazmunini tushuntirib bering.
3. Mustaqillik sharoitida nima uchun manaviyatga etibor kuchaytirildi?
4. Manaviyat va madaniyat o'rtasida qanday uyg'unlik bo'lishi zarur?
5. Estetik madaniyatning ahamiyati nimada?
6. Barkamol rivojlangan shahs kim?

Adabiyotlar:

1. Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O'zbekiston 1997.
2. Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. T.: O'zbekiston 1998.
3. Karimov I. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.: O'zbekiston 1999.
4. Karimov I. Milliy istiqlool mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O'zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T. Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
7. Estetika. Slovar. M. 1989.
8. Ibrohimov A., Sultonov X., Jo'raev N. Vatan tuyg'usi. T. 1996 .
9. Falsafa qomusiy lug'ati. (Q. Nasarov tah. ost.) Toshkent 2004.
10. Мартынов V.F. «Go'zallik falsafasi» Minsk 1999.

8- mavzu: San'at va ijtimoiy hayot.

Reja:

1. San'at ijtimoiy ong shakli sifatida.
2. San'atning mafkuraviy va estetik mohiyati.
3. San'at va boshqa ijtimoiy sohalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik.
4. Mustaqillik sharoitida san'atga e'tibor va badiiy ijodni rivojlantirish muommolari.

Ijtimoiy ong shakllari orasida san'at sohasi hayotimizdan juda keng o'rin egallagan. San'atsiz, yaratilgan va yaratilayotgan betakror san'at asarlarisiz hayotni tasavvur etish juda qiyin. San'at inson ruhiy ozuqasining spetsifik (o'ziga xos) shaklidir. Qadimgi davrlarda musiqa, raqs, she'riyatni nafis san'at turlari deb bilganlar. Keyinchalik o'rta asrlarda san'at tarkibiga tasviriy san'at, kasallarni davolash, hattoki dorishunoslik ham kiritilgan edi. Bugungi kunimizda "San'at" so'zi hayotimizda bir necha ma'nolarda qo'llanib kelmoqda: Bular:

1. "Voqelikni badiiy obrazlarda ijodiy aks ettirish", ma'nosida;
2. "Ishning ko'zini bilish va mahorat", ma'nosida;
3. "Har qanday ishning o'zi va talab qiladigan mahorat darajasi" ma'nosida;

Agarda bu ma'nolarni birdaniga tasavvur etsak, san'at inson mehnati, aql idroki bilan yaratilgan, vujudga kelgan bo'lib, har bir yaratilgan san'at asarida shahsning o'ziga hos iste'dodi namoyon bo'ladi, va albatta san'at insonning betakror moharati bilan chambarchas boglanib ketgan bo'ladi.

San'at keng ma'noda san'at asarlari (badiiy qadriyatlar) bilan birga ularni yaratish (badiiy ijod qilish) va iste'mol (badiiy idrok etish) jarayonlarini ham qamrab oladi. San'at tarixiy taraqqiyot jarayonida hamisha ijtimoiy ehtiyojlarni qondirib kelgan. San'at ijtimoiy hayotning murakkab, rang barang munosabatlari bilan aloqador bo'lib, u bir vaqtning o'zida ham mehnatning alohida turi, ham ijtimoiy ishlab chikarishning maxsus sohasi, ham ijtimoiy ongning bir shakli, ham o'ziga xos bilim sohasi, ham ijodiy faoliyatning bir ko'rinishi sifatida amal qiladi.

San'at jamiyatning barcha tomonlariga o'z ta'sirini o'tkazadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari bilan aloqaga kirishadi, hayotning turli jabhalarida odamlar faoliyat olib borishlarini ragbatlantiradi. Hayotning turli sohalarida mehnat qilayotgan insonlarda ma'naviy hordiq chiqarish yo'li san'atdan

bahramand bo'lishdir. Qisqagina musiqaviy tanaffus mehnatkashlarni yanada yaxshiroq mehnat qilishga undaydi, samaradorlikni oshiradi. Hozirgi ilmiy tadqiqotlar shuni ko'rsatyaptiki, san'at hayvonot olamiga ham o'z ta'sirini o'tkazar ekan. Masalan, tovuqlar musiqa sadolari ostida tuhum qo'yishlari tezlashar ekan. Demak, san'at bu nafaqat inson uchun, balki butun borliq elementlari uchun ham zarur ekanligini ta'kidlashimiz kerak.

San'at ijtimoiy ong shakli sifatida voqelikni badiiy anglash-bilish jarayonida uning voqelikni badiiy tasvirli shaklda anglash manbalaridan biri bo'lib inson maydonga chiqadi. Insonni in'ikos etish (in'ikos-aks ettirish), bilish-anglash masalalari bilan ilm fanning juda ko'p sohalari shugullanadi, lekin inson muammosiga san'at va fan sohalari turlicha yondashadilar. Tabiiy fanlar insonni biologik mavjudod sifatida o'rgansa, ijtimoiy fanlar insonni shahs sifatida tahlil qiladi. San'at uchun esa inson barcha belgi va hususiyatlari bilan birga, yagona, nodir, qaytarilmas shahs qiyofasida bosh mavzu bo'lib hizmat qiladi. San'at voqelikni barcha jozibali g'ozalliklarini, boyliklarini qamrab olishga qodirdir. Voqelik esa shahs bo'lib etishgan insonning tub ehtiyoj va manfaatlarini o'zida aks ettirishi lozim.

San'at nafaqat insonning o'zini, balki uning idrok etishi mumkin bo'lgan barcha narsalarni, voqea-hodisalarni aks ettirib, hissiy tuygu keltirib chiqaradi. San'at insonni bevosita aks ettirmasa-da, biror narsaga inson munosabatini faol ifodalaydi, biror narsani inson mezoni bilan baholaydi. Baholashda esa hamisha inson mohiyatini anglashga qaratilgan bilish holati mavjuddir. San'at narsalarda, tabiat hodisalarida inson uchun ahamiyatli bo'lgan ma'no izlaydi, uni qidirib topadi va amalga oshiradi. Shunday qilib, san'at voqelikning har bir hodisasida ijtimoiy ma'no paydo qiladi va uni ro'yobga chiqaradi. San'at ijtimoiy ong shakllari ichida shunisi bilan ajralib turadiki, san'at inson hayotining fan kuchi etmaydigan sirli tomonlariga kira olish, inson xulq-atvori sababli tagig etish, insonning o'ziga, odamlarga, tabiatga bolgan munosabatini aniqlash qudratiga egadir. San'atning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini belgilash ko'p jixatdan uning mafkuraviy tabiatini anglash bilan bogliq. To'g'ri san'at mafkuraga umuman aloqador bo'lmasligi lozim, lekin zamon ruhi shu davrda kechayotgan, hukm surayotgan mafkuraga bevosita bogliq bo'ladi. Shu zamonda yashaetgan ijodkor ham o'zi yaratayotgan san'at asarida bevosita zamonning ruhini aks ettiradi. Lekin ma'lum bir mafkuraga asoslangan zamon umuminsoniy tamoyillarga asoslangan bo'lishi zarur. Shundagina san'atkor yoki ijodkor tomonidan yaratilgan asar estetik qiymatga ega bo'ladi.

San'at ma'naviy hayotda sodir bo'ladigan har qanday o'zgarishlarga munosabat bildiradi, davr ma'naviy muhitining hamma tomonlarini ifodalaydi, ijtimoiy tafakkur ruhini o'zida aks ettiradi. Tarihga nazar soladigan bo'lsak, sovet davrida yaratilgan barcha san'at asarlarida, san'atning qaysi turi bo'lishidan qat'iy nazar haykaltaroshlikmi, she'riyatmi, badiiy asarmi, kinofilm yoki teatr sahnalarida qo'yilgan asarlardami, barcha-barchasida o'sha zamon ma'naviy muhiti ifodalangan edi. Bugungi kunimizda O'zbekiston mustaqillik mafkurasi bizlar uchun muhim ahamiyatga ega. Bugungi yaratilayotgan barcha san'at asarlarida mustaqillik ruhi jo'sh urmoqda, chunki bu mafkura umuminsoniy tamoyillarga asoslanib, hizmat qiladi. San'at esa o'zining yuksak ruhiy ta'sir etish kuchi bilan mustaqillikni yanada mustahkamlashga hizmat qiladi.

San'atga faqat mafkura o'z ta'sirini o'tkazib qolmasdan, balki san'at boshqa ijtimoiy sohalar bilan ham hamkorlikda ish ko'radi.

San'at jamiyat bagrida amal qilar ekan, u o'zining mafkura imkoniyatlarini eng avvalo siyosat bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Muayyan jamiyatda siyosiy faoliyat va siyosiy ong muhim o'rin tutadi. Hattoki, ahlok, huquq va boshqa sohalar ko'p jihatdan siyosat bilan boglik bo'ladi.

O'tmish ijodkorlari muayyan ijtimoiy guruh manfaatlari yo'lida siyosat bilan boglanib qolganlarini o'zlari bilmagan holda asarlar yaratganlar, chunki, ijodkor asar yaratish jarayonida o'z davrining siyosiy hayotidan butunlay holis bo'lishi, o'zining siyosiy qarashlari va goyalaridan mustasno tarzda ijod qilishi mumkin emas edi. Masalan, Hamza asarlari, yoki Gafur Gulomning "Boy ila xizmatchi" asarlari va boshqalar bunga misol bo'la oladi.

San'at va ahlok o'zaro munosabatlari jamiyat hayoti uchun juda muhim ahamiyatga ega. San'atga ahlokiylik ruhida yondashuv insonning ma'naviy-ruhiy kamol topishiga hizmat qiladi.

San'at voqelikni aks ettirish jarayonida jamiyatda amal qilayotgan ahlokiy munosabatlarni, odob qoidalarini, ahlokiy goyalar va qarashlarni, inson ichki dunyosini, ahlokiy qiyofasini ham ochib beradi. Shu bois san'at inson ahlok- odobining ko'zgusidir, desa hato bo'lmaydi. Shuni alohida ta'kidlash zarurki, san'at asarlari ahlok mazmuniga ega bo'lmasa, o'zining insonparvarlik xususiyatini yo'qotadi. Albatta, san'atdagi ahlokiylik mezonlari Sharqda va Garbda alohida mazmun kasb etadi, buni hammamiz anglaymiz albatta, chunki turli tarihiy davrlarda yaratilgan Garb san'at-

korligida ba'zida ahloksizlik namunalarini ham uchratishimiz mumkin. Buning boisi go'zallikni qay darajada anglash bilan bogliq.

Estetika go'zallik qonuniyatlarini himoya etar ekan, sanat go'zallikning asl makoni va bu qonuniyatlar sanatga ham tegishlidir. San'atda barcha estetik voqea-hodisalar: go'zal va hunuk, ulug'vor va pastkash, fojiali va kulgili, oliyjanob va qaxramonlik kabilar aks ettirilgan bo'ladi. Bu voqea hodisalar san'atning qaysi turida aks ettirilgan bo'lmasin, yuksak estetik qiymatga ega bo'ladi, chunki bu jarayon ham insonni kamolotga etaklaydi. Ko'pgina komediyalarda hudbinlik, loqaydlik, yulgichlik kabi hunuk hislatlarni ochib tashlash orqali go'zallik, poklik, rostguylik kabi insoniy fazilatlar shakllanishiga olib keladi. Ezgulik, halollik, go'zallik kabi fazilatlar insonga faqat san'at orqali to'la etib boradi. Shuning uchun san'at nafakat ahlok, estetika bilan bogliq, balki san'at o'z navbatida din bilan ham aldokadorlikda bo'ladi. Jahon dinlari hisoblangan - buddizm, xristianlik, islom va boshqa milliy dinlar san'at bilan qorishib ketgan. chunki diniy ibodatlar, marosimlar san'at bilan ifodalanib, inson ongiga, uning his-tuygulariga kuchli ta'sir o'tkazadi. Masalan, buddaviylik asori-atiqalari, haykallari, ibodatxonalaridagi devorlarga tushurilgan suratlar, islom masjidlarida Allohning yagonaligini ifodalaydigan hattotlik yozuvlari va naqshlar, xristianlikda cherkovlardagi turli tasviriy sanat va musiqa asarlari, va boshqalar shular jumlasiga kiradi. Lekin shuni alohida qayd qilish zarurki, din ko'proq iloxiylikni targ'ib etsa, san'at ko'proq dunyoviylikni aks ettiradi.

Shunday bo'lsada, san'atkor uchun uning qaysi dinga mansub ekanligi u yaratgan asarlarida namoyon bo'ladi va o'zida ham ilohiylikni, ham dunyoviylikni aks ettiradi.

San'atkor ijodga kirishar ekan, uning oldida hayotning rang-go rang, murakkab, ziddiyatli, jozibali va ehtirolarga to'la manzarasi gavdalanadi. U bu manzarani san'atda ifodalashga intilar ekan, o'z davri, o'z millati, o'z e'tiqodining namoyondasi bo'lib qolaveradi. Badiiy aks ettirishning ko'lam va mazmuni san'atkor qanchalik hayotni keng va chuqur bilishiga, bu bilim uning fikr-mulohazalari, his-tuygulariga qanchalik singib ketganligiga bogliqdir. Mustaqillik sharoitida halqimiz yaratayotgan san'at asarlari va buyumlarga bo'lgan e'tibor yanada kuchaytirilmoqda. O'zbek halqi insonni lol qoldiradigan ajoyib amaliy san'ati, yuksak badiiy didi va mahorati bilan butun dunyoga mashhur bo'lgan. Bugungi kunimizda san'atga bo'lgan e'tiborning kuchayishi badiiy ijodga bo'lgan munosabatning o'zgarishiga olib kelmoqda. Har bir O'zbekiston fukaqosiga o'z qobiliyatlarini namoyon etish orqali badiiy ijod

qilib, yuksak san'at asarlarini yaratish imkoniyatlari yaratilib berilmoqdaki, bu bir tomondan insonning ma'naviy kamolotiga ta'sir etsa, ikkinchi tomondan mustaqillik ne'matlarini yanada mustaxkamlash uchun xizmat etadi. Darhaqiqat "Milliy istiqlol goyasi" kontseptsiyasida ham san'at sohasidagi faoliyatni yanada rivojlantirish vazifasi ilgari surilgan. Unda jumladan shunday deyilgan: "Ijodkorlarni murakkab va shonli tarihimizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, oliyjanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratishga har tamonlama ragbatlantirish. Yoshlarga ibrat bo'ladigan barkamol insonlar, zamonaviy qaxramonlar timsolini yaratish".¹

Bu vazifalarni ruyobga chiqarish Mustaqil O'zbekistonni jahon darajalariga ko'tarilishida asosiy omil bo'lib qoladi.

Tayanch tushunchalar:

San'at, ijtimoiy hayot, ijtimoiy ong, mafkura, ahlok, siyosat, din, badiiy ijod, milliy goya kontseptsiyasi.

Takrorlash uchun savollar:

1. "San'at" keng ma'noda nimani anglatadi?
2. "San'at" so'zi qaysi ma'nolarda qo'llaniladi?
3. San'atning mafkuraviy mohiyati nimada?
4. San'at jamiyat rivojlanishiga qanday ta'sir o'tkazadi?
5. San'at va fan o'rtasida qanday farq mavjud?
6. San'at va siyosat o'rtasida qanday bogliqlik mavjud?
7. San'atda ahlokiylik deganda nima tushuniladi?
8. Dinning san'atga qanday aloqasi bor?
9. San'atda go'zallik qanday ifodalanadi?
10. "Milliy istiqlol goyasi" kontseptsiyasida san'at sohasida qanday vazifalar ilgari surilgan?

¹ "Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar" T., O'zb.-2000 64-b.

Adabiyotlar :

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:O`zbekiston 1998.
- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 7.Eстетika. Slovar. M.1989.
- 8.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 9.Falsafa qomusiy lug'ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 10.Мартынов V.F. «Go`zallik falsafasi» Minsk 1999.
11. "Barkamol avlod orzusi". T. 1999.
12. "Soglom avlod - bizning kelajagimiz". T. 2000.

9 – mavzu: San’atning estetik mohiyati.

Reja:

1. Estetika va san’at o’rtasidagi o’zaro aloqadorlik.
2. San’at estetik boyliklarni yaratish manbai.
3. San’at asarlarida estetik kategoriyalarning ifodalanishi.

Dastlabki mavzulardan bizga ma’lum bo’ldiki, estetika go’zallik qonuniyatlarini o’rganibgina qolmasdan, balki badiiy ijod jaraenlarini ham kengroq tadqiq etadi. Estetikada insonning tabiat go’zalliklarini o’zlashtirishi estetik faoliyat deb yuritilsa, san’atda insonning bu faoliyati badiiy ijod qilish jaraeni deb ataladi.

San’at o’z mohiyati jixatidan estetikaning o’ziga hos qonunlaridan foydalangan holda o’zida o’tmish madaniy merosini, hozirgi kun tajribasini va kelajak to’grisidagi bashoratlarni uygulashtirgan holda namoen etadi. Estetika voqea-hodisalarni real olamga muofiq keladigan tushunchalar va qoidalar orqali ochib bersa, san’at voqea-hodisalarni hayol, to’qima obrazlar vositasida ifodalaydi.

Borliqni estetik o’zlashtirish jaraenida insonda badiiy ijod qilishga ehtiej paydo bo’lib boshlaydi. Insondagi tugilgan bu ehtiej uni tabiat go’zalligidan, insoniy munosabatlar go’zalligidan bahra olgan holda biror bir san’at asarini yaratishga undaydi. Borliqni estetik o’zlashtirish san’atning asosiy mazmunini, ya’ni uning estetik mohiyatini tashkil etadi. Shuning uchun ham estetika san’atshunoslik sohalari uchun asosiy uslubiy zamin bo’lib hizmat etadi, zero san’at bilan estetika o’zaro chambarchas bogliq ekanini shundan ham anglasa bo’ladi.

Voqelik bu bir vaqtning o’zida go’zallik va hunuklik, fojialilik va kulgulilik, ulugvorlik va qaxramonlik, oliyjanoblik va pastkashlik kabilarni ham qamrab oladi. Bu voqea-hodisalarni mazmun jixatidan estetika fani izohlab bersa, uning hayotdagi aksini san’atshunoslik badiiy obrazlar orqali ifodalab beradi. Shunday qilib, go’zallikning hali insonga notanish bo’lgan qirralari yaratiladi. Shuning uchun ham san’at go’zallikning asl makonidir, desak hato bo’lmaydi. Voqelikdan olinib, bebaho san’at asariga aylangan narsalar insonda o’ziga hos estetik his-tuygularni, zavqlanish, hayratlanish va boshqa shunga o’hshash estetik hususiyatlarni hosil qiladi. Bundan ko’rinib turibdiki, san’at haqiqatdan ham o’z mohiyati jixatidan estetikdir.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, voqelik go'zalligi san'atdagi go'zallikdan ustun turadi, chunki hayotda go'zallik bo'lmasa, uni san'atda ham ifodalab bo'lmaydi. Lekin go'zallik san'atga ko'chgandagina estetik qiymat hosil qila oladi va asrlar davomida ulugvorlik kasb etib, yuksak ma'naviy qadriyatga aylanishi mumkin bo'ladi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, san'atdagi go'zallik hayotdagi go'zallik in'ikosi bo'lib, uning bitmas-tuganmas manbai voqelik ekanligini anglash mumkin, uning eng muhim tarkibi esa go'zallikka tashnalik, sezgirlik, sinchkovlikdir. Go'zallik yaratuvchi insonlarning boshqalardan farqi shundaki, ular go'zallikni hamma yerda ko'ra olish, sezish, his qilish qobiliyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun ham oddiy estetik ong bilan yuksak badiiy ong o'rtasida farq mavjud bo'ladi, ya'ni har bir insonda estetik ong natijasida narsa va hodisalarga baho berilsa, yuksak badiiy ong natijasida ijodkor voqelikni in'ikos etibgina qolmasdan, balki qandaydir san'at asarini yaratishga ham muvaffaq bo'ladi. Ijodkor biror asar yaratar ekan, u nafosat qonunlaridan chekkaga chiqqa olmaydi, u nafosat qonunlariga rioya qilgandagina, uning yaratgan asari eng toza pok go'zallik ko'rinishida namoyon bo'ladi. Shu ma'noda san'at (badiiy faoliyat) ni voqelikni inson tomonidan estetik jihatdan idrok etilishining eng oliy ko'rinishidir, desa hato bo'lmaydi. Hulosa qilib aytish mumkinki, san'at – bu inson tomonidan yaratilgan narsa, buyum, biror ko'rinishdagi shakl bo'lsa, estetika – bu mazmun, yaratilgan narsaning, ya'ni san'at asarining mohiyatini hosil qiladi. San'atni estetikasiz tasavvur etib bo'lmaydi, chunki har qanday yaratilgan buyum, narsa, asar o'zida go'zallikni mujassam etgan bo'lishi kerak. Shuning uchun ham estetika san'at sohalari uchun boshlangich nazariy va uslubiy asos bo'lib xizmat qilar ekan, u doimo san'atning mazmuni sifatida amal qilib qolaveradi.

Insoniyat azal azaldan estetik boyliklarni yaratib kelgan. Yer yuzining turli hududlaridagi insoniyat taraqqiyotining eng qadimgi yodgorliklari shundan dalolat beradiki, insonga azaldan o'ziga o'xshash mavjudotlarni estetik idrok etish va yaratish hos bolgan. Shu bilan birga insonning go'zallikni anglashi o'zgaruvchan bo'lganligi sababli go'zallik hamma vaqt insonning ijtimoiy orzulari bilan qorishib ketgan. Masalan, patriarhat davrida juda ko'p bola tugib o'stiradigan ayol go'zallik ramzi sifatida in'ikos etilgan. Shuning uchun bu davr haykaltaroshlari ayol qomatini ataylab qingir-qiyshik qiyofalarda tasvirlaganlar.

San'at insonning ruhiy kechinmalari asosida yuzaga kelgan estetik boyliklardir. Inson hamma yerda va har qanday darajada mavjud tabiiy

hamohanglik bilan to'qnashar ekan, u albatta tabiat go'zalligidan zavq-shavq oladi, ongli yoki anglanmagan holda sevinadi, ma'naviy qoniqish hosil qiladi. Ana shu ma'naviy qoniqish mahsuli hisoblangan qanchadan-qancha san'at asarlari-yu, qanchadan-qancha buyuk talantlarni etishib chiqqanligini hech kim inkor eta olmaydi. Jumladan, Qadimgi Sharq mamlakatlarining bizga meros qilib qoldirgan yozuv qoldiqlari, Urhun-Enasey bitiklari, Xorazm alifbosi, Fir'avnlarning asori-atiqalari, skiflardan qolgan oltin buyumlar, Doro I tasviri solingan tilla tangalar, ulugvor me'morchilik obidalari (Bobil, shumer, Misr, Yunon arhitektura yodgorliklari), Hindiston va Hitoy hukmdorlari saroylari, ibodathonalardagi tasviriy san'at va haykaltaroshlik asarlari – bularning barchasi insoniyat tomonidan yaratilgan san'at asarlari – estetik boyliklar hisoblanadi. Turli tarihiy davrlarda yaratilgan va tarihiy yodgorlik bo'lib qolgan bu ma'naviy boyliklarda insonlarning go'zallikni qay darajada in'ikos etganliklarini anglash mumkin. Insoniyat taraqqiyotida umumbashariy tuygularni gavdalantirgan san'at asarlari halqchil bo'lib, halq orzu-armonlariga mos kelgan. San'atda obrazlar milliy fe'l-atvor, til, an'analar, dunyoqarash, san'atkorning voqelikka munosabati va boshqa mezonlardan kelib chiqib yaratilgan. San'atda estetik boyliklarni yaratish rang tasvir, badiiy so'z, musiqa, me'morchilik sohalaridan tashqari halq amaliy san'ati, hunarmandchiligi, havaskorlik ijodiyotida ham keng amal qilgan.

San'at hayotning beqiyos boyligini va hilma-hilligini – go'zallik va hunuklik, yaxshi va yomon hislatlarni aks ettiradi, hamda vazifani aniq estetik orzu mavqeidan turib amalga oshiradi. San'atda go'zallik ko'p qirrali bo'lib, unda estetik orzu muhim ahamiyat kasb etadi. San'at go'zal va hunuk, fojiali va kulguli, ulugvor va pastkash hodisalarni aks ettirishi mumkin. Lekin san'atning o'zi hamma vaqt ham go'zaldir, chunki u o'z tarkibiga estetik orzu, ya'ni go'zallikning zaruriy hususiyatini qamrab olgandir.

San'atda estetik orzuning asosiy mazmunini inson go'zalligi xakidagi turli davr odamlari, millatlar, ijtimoiy guruxlar tushunchalari buyicha uni qanday kiefada kurish istaklari mavjudligi tugrisidagi tasavvurlar tashkil etadi.

Kup asrlar davomida san'at estetik orzuni ruebga chikarishning ikki asosiy yo'nalishini ishlab chikkan: shulardan biri ijobiy kaxramon ramzini yaratish orkali ruebga chikarish yulidir. Ijobiy kaxramon – ijodkorning go'zallik xakidagi estetik orzusidir.

Ilgor orzularni ruebga chikarishga karama-karshi hayot hodisalarini tasvirlashning ikkinchi yuli – salbiy kaxramon- go'zallikning aksi bolgan hunuklik, yaramaslik ramzi bo'lib, birinchisidan kam bulmagan estetik ahamiyatga ega. Buyuk so'z ustalaridan biri «san'at orzudagi odamlarni emas, balki ijodkorning orzusidagi odamlarni aks ettirishni takazo etadi» degan edi. shunday orzu bolganida eng mudhish, xunuk, pastkash hayot hodisalarini tasvirlash ham san'at asarlarining estetik kiymatini tushirmaydi, balki yanada oshiradi.

Ulugvorlik san'atda har tomonlama ifodalanadi, chunki u san'atning barcha ko'rinishlari uchun asosiy mavzudir. San'atning turli shakllarida ulugvorlik hilma-hil tasvirlanadi. Masalan, tasviriy san'atda ko'prok tabiat ulugvorliklari, ulugvor insoniy fazilatlar aks ettirilgan bulishi mumkin. Me'morchilikda tarihiy davrlar ulugvorligi aks ettirilgan bulishi mumkin. Xalk dostonlarida insoniy munosabatlar va kaxramonlarning ijobiy fazilatlar ulugvorlik nukta nazaridan aks ettirilgan bulishi mumkin va xakazo.

San'atda ulugvorlik ko'pincha fojialilik bilan enma-en namoen bo'ladi. Navoiy va Shekspir asarlari, shoshmakom, go'zal me'morchilik obidalar bir vaqtning o'zida ham ulugvorlik, ham fojialilik ruhi bilan sugorilgan. Bundan fojialilik –ulugvorlik, ulugvorlik – fojialilikdir, degan xulosa kelib chikmaydi, masalan, Xivaning minoralari, eski kuchalari va madrasalar ulugvor bulishi mumkin, lekin xech qanday fojiali his-tuygu ko'zgotmaydi. Shekspirning Otello kiefasi fojiali, lekin ulugvorlik tuygusini ko'zgotmaydi.

San'at asarlarida go'zallik va ulugvorlik vokea-hodisalaridan tashkari, fojialilik va kulgulilik ham keng o'rin oladi. Fojia san'ati insoniyatning doimiy hamrohi, umr yo'ldoshidir, deb aytganlar. Zero, inson orzularini ro'yobga chiqarish uchun bir umr kurashadi va intilib yashaydi. Shu jaraenda hodisalar bilan to'qnashib, insoniyat taraqqiyotining u yoki bu bosqichlaridan ijtimoiy adolatsizliklar, munosabatlardagi hilma-hillik san'atda fojiali obrazlar tugilishiga sabab bolgan. Shu bois fojia insonga hamrohdir, lekin haqiqiy fojia asarini yaratish kamdan-kam ijodkorga nasib qilgan. Bunday ijodkorlardan, shubhasiz A.Navoiy va Shekspirlarni aytib o'tishimiz mumkin.

San'atda kulgulilikning ifodalanishi orqali san'atning bu sohadagi o'ziga hos turlari paydo bolgan. Kulgulilikning turli ko'rinishlari san'atning me'morchilikdan boshqa deyarlik barcha shakllarida namoyon bo'ladi va komediya shaklida o'zining to'liq ifodasini topadi. Komediya

mavzuini turli beo'hshovliklar, muofiqsizliklar, nomutanosibliklar tashkil etadi. Kulgulilikning hilma-hil shaklda namoyon bo'lishi ularning san'atda ham turlicha aks etishini taqazo etadi.

Ayni paytda jamiyatdagi sodir bo'ladigan salbiy hodisalar ustidan kulishdan maqsad go'zallikni qaror toptirish ekanligini unutmaslik lozim. Kulguning fosh etuvchi xususiyatini ta'kidlar ekanmiz, uning ahamiyati kam bo'lmagan boshqa tomonlari- tarbiyalovchi kulgu, ko'ngilni yumshatuvchi va bo'shatadigan kulgu, achinish va mehr-shafqat ko'rsatish kulgusi, hayotbahsh va do'stona kulguni ham o'z ichiga oladi va shubhasiz san'at asarlarida o'z aksini topgan. Shunday qilib, estetikaning asosiy tushunchalari bolgan go'zallik, ulugvorlik , fojialilik va kulgulilik kabilar san'at bilan bevosita bogliq ekanligini, san'at turlarining paydo bo'lishiga asosiy turtki vazifasini o'taganligini aytib o'tish lozim. Bu esa san'atning mohiyati haqiqatdan ham estetik ekanligini yana bir bor ta'kidlaydi.

Tayanch tushunchalar:

Estetik faoliyat, badiiy ijod, borliqni estetik o'zlashtirish jarayoni, san'atning mazmuni, ulugvorlik, fojialilik, kulgulilik, komediya, estetik ong, badiiy ong, estetik boyliklar.

Takrorlash uchun savollar:

- 1.San'at va estetika o'rtasida qanday bogliqlik mavjud?
- 2.San'at nima uchun estetik mohiyatga ega?
- 3.Estetik boyliklar deganda nimalarni tushunasiz?
- 4.San'atda estetik tushunchalar qanday aks etadi?
- 5.San'at asarlarida ulugvorlik qanday ifodalanadi?
6. Fojia sohasida qalam tebratgan qanday ijodkorlarni bilasiz?

Adabiyotlar :

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:O`zbekiston 1998.
- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqlool mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. "Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". T.2000.
7. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 8.Estetika. Slovar. M.1989.
- 9.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 10.Falsafa qomusiy lug'ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 11.Мартынов В.Ф. «Го'заллик фалсафаси» Минск 1999.
12. "Barkamol avlod orzusi". T. 1999 .
13. "Soglom avlod - bizning kelajagimiz". T. 2000.

10 - mavzu: San'at turlari.

Reja:

- 1.San'at turlarining vujudga kelish manbalari.
- 2.San'at turlarining o'ziga hos xususiyatlari.
- 3.Qorishma san'at turlari va ularning ravnaqi.
- 4.Mustaqillik sharoitida san'at turlarining rivojlanishi va tarbiyaviy ahamiyati.

Voqelik (tabiat,jamiat,borliq) hodisalarini badiiy idrok etish jarayonida san'atning turli-tuman shakllari vujudga kela boshlagan.San'atning bunday turlarga (shakllarga) bo'linib ketishi uzoq davom etgan tarixiy hodisa bo'lib,asrlar davomida insonlarning badiiy faoliyat jarayonining kengayib borganligidan darak beradi.Estetik tafakkurning tur hosil qilish manbalari ikki yo'nalishda vujudga kelgan. Manbaning birinchi yo'nalishi voqelikning murakkabligi, ko'p qiyofaliligi, har tomonlamaligidir. San'atning u yoki bu to'rining vujudga kelishi uning voqelikning qaysi tomondan aks ettirishga qaratilganligidir, ya'ni misol uchun nazm va tasviriy san'at turlarini bir-biri bilan qiyoslab ko'rsak, ularning tasvir vositalaridan kelib chiqqanligini anglaymiz. Masalan: tabiat manzarasi nazmda so'z bilan ifoda etilsa, tasviriy san'atda bo'yoqlar bilan tasvirlanadi. San'at turlarining vujudga kelish manbalaridan yana biri bu inson his-tuygularining boyligi, idrok etish xususiyatlari, inson ma'naviy qobiliyati bilan bogliqdir.

San'at turlarining vujudga kelish tarixini tahlil etadigan bo'lsak, ularning rivojlanishida "notekislik" qonuniyatiga bo'ysunganining guvohi bo'lamiz. Turli tarixiy davrlarda, turli xalqlar hayotida o'z davrining badiiy qiyofasini belgilab beradigan san'atning u yoki bu turi etakchilik qilib kelgan. Qadimgi Misrda barcha san'at turlari rivojlangan bo'lib,ular orasida me'morchilik, Hindistonda musiqa, Hitoyda rang tasvir, Eron va

Turonda halq amaliy san'ati, Yunoniston va Rimda haykaltaroshlik kabi turlari keng tarqalgan edi. Asrimizning boshlarida Rim va Vizantiyada tasviriy san'at, arablarda so'z san'ati, keyinchalik ilk Uygonish davrida Italiyada tasviriy san'at, Angliyada teatr san'ati, Germaniyada musiqa san'ati, Rusiyada badiiy adabiyot kabi turlari ham keng rivojlangan. Shunday qilib, san'at turlari asta sekinlik bilan taraqqiy etib, bugungi kunimizda san'atning juda ko'p boshqa turlari ham vujudga keldi. Bulardan kino, tsirk, televidenie, estrada va boshqalar.

San'at turlarining muhim hususiyatlaridan biri, ular bir-birlarini o'rnini bosa olmaydi. Ularning har biri mustaqil, o'zicha nodir va betakror bo'lib, voqelikni bir tomonini aks ettiradi, o'sha tur insoniy his-tuygularni ifodalashda boshqa turlarga nisbatan ustun bo'ladi va muayyan cheklanganlik hususiyatiga ega bo'ladi. Masalan, badiiy adabiyot hayotni keng aks ettirishda inson ruhiy-aqliy tomonlarini ochib berishda tengi yo'q san'at hisoblansada, u ma'lum cheklanganlik hossasiga ega.

Badiiy adabiyot inson his-tuygularini, sezgilarini ifodalashda musiqaga yoki kino san'atiga teng kela olmaydi, chunki har bir san'at turi o'ziga hos holatda namoyon bo'ladi.

San'at turlarining yana bir hususiyati shundan iboratki, ularning har biri alohida ifodalash vositasiga qarab ham farqlanadi. Masalan, adabiyotda- so'z, tasviriy san'atda- rang, yoruglik, chiziq, nur, soya, musiqada- ohang, maqom, haykaltaroshlikda- hajm, o'lcham, me'morchilikda- mutanosiblik, uygunlik kabi hususiyatlarga amal qilinadi. San'atning turlari badiiy-texnik vositalar orqali farq qilishiga qaramay, ular ba'zida umumiy qonuniyatlarga ham bo'y sunadi. Masalan, san'atning ayrim turlarida uning tasviriy-ifodaviy vositalari fizika, tabiat fanlari qonunlariga, haykaltaroshlik anatomiya va fiziologiya qonunlariga, musavvirlik masofa o'lchov qonunlariga, musiqashunoslik ovoz, tovush, tebranish qonunlariga bo'ysunadi.

Dekorativ- amaliy san'at

Dekorativ amaliy san'at – arxitektura bilan uzviy bog'langan. Bu badiiy estetik sifatlarga ega bo'lgan maishiy buyumlardir. Ular to'gridan-to'gri odamlarning amaliy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, binolar, arxitektura inshootlari, parklar va bezash vositasi hamdir.

Dekorativ- amaliy san'at materiallariga -metall, yogoch, keramika, ip-gazlama, plastik materiallar va xakazolar kiradi.

Dekorativ- amaliy san'at buyumning tuzilishi, proporsiyaning mosligi, belgilangan vazifasi, texnikaviy ishlovi va yangi materiallardan foydalanish va shundan keyingina bu buyumlarni bezash tabiatda katta rol o'ynaydi.

Dekorativ- amaliy san'atda ornament (geometrik yoki tasviriy detallarning ritmik qo'shilishi asosida yuzaga keladigan naqsh, bezak) katta ahamiyatga ega.

Ornament Markaziy Osiyo halqlari hayotida katta rol o'ynagan. Bunga keramika, kashtachilik, gazlama va gilamlar, naqshli ustunlar va hakazolar misol bo'la oladi.

Dekorativ- amaliy san'at inson turmushida katta ahamiyatga ega. U voqelikni estetik jixatdan shakllantiradi, kishida estetik didni tarbiyalaydi va o'stiradi.

Dekorativ-amaliy san'at halq ijodkorligining shakllaridandir. Halq ustalari bu san'atni saqlab va rivojlantirib kelmoqdalar.

Arxitektura

Arxitektura – bu o'zida amaliy va goyaviy badiiy vazifalarni mujassamlantirgan binolar, inshootlar va ularning kompleksidir. Arxitektura shakllari va turlarining har hil bo'lishini jamiyatning taraqqiyot darajasi, sotsial-sinfiy tafovutlar, halqlar turmushi va madaniyatining milliy hususiyatlari, tabiiy sharoitlari, u yoki bu qurilish materialining bor- yo'qligi taqoza qiladi.

Arxitektura juda qadimgi san'at. Masalan: Misr piramidalari, qadimgi Gretsiya qasrlari, Parijning gotik cherkovlari, Markaziy Osiyo halqlarining masjid va minoralari, Moskva Kremli va Yer yuzidagi ettita mo''jiza ham shular jumlasiga kiradi.

Arxitektura inshootining badiiy obrazi arxitektura hajmlari, masshtabi va proporsiyasining joylanish majmuidan, ma'lum tartibda fazoni hosil qilishidan, qurilish (konstruktsiya)ning aniqligidan va uning estetik elementini bo'rttirib ko'rsatishdan tashkil topadi. Arxitektura badiiy obraz faktlarining to'g'ri ko'rsatishi bilan emas, balki uning mazmuni nihoyatda keng bo'lganligi bilan, unda juda katta miqyosda ijobiy ijtimoiy emotsiyalar - ulugvorlik, vatanparvarlik, turmush quvonchi, hayot uygunligi, intilishlar boyligi, go'zallikka ishtiyoq, davlatning qudrati va hakazolarda o'z ifodasini topganligi bilan kuchlidir.

Arxitekturada ansambl yaratish, sintez masalalari katta rol o'ynaydi. Arxitekturada milliylik o'z aksini topadi.

Arxitektura o'zining amaliy vazifasi, ijtimoiy ehtiyojni qondirish hususiyati jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

- a) jamoat-fuqarolik arxitekturasida
- b) turar joy arxitekturasida
- b) ishlab chiqarish arxitekturasida
- g) sanoat arxitekturasida
- d) moddiy ishlab chiqarish arxitekturasida (zavod, kanal, platina, tarnsport inshootlari).

Umuman olganda arxitektura - bu moddiy ishlab chiqarishdir. Bundan 2000 yil oldin yashab ijod qilgan Rim arxitektori Vitruviy, arxitekturada uchta asosiy element bo'lishi, ya'ni **foydali, mustahkam va go'zal** bo'lishi shart, degan edi.

Haykaltaroshlik.

Haykaltaroshlik - eng qadimiy san'atlardan biridir. Haykaltaroshlikning asosiy hususiyati shundaki, unda badiiy obraz real uch o'lchovli makonni egallagan hajm va shaklda gavdalanadi. Shu sababli haykaltaroshlik asarini inson ko'zi idrok etadi, idrok etganda ham oddiy surat sifatida emas, balki uning hajmini his etib, huddi qo'l bilan ushlagandek idrok etadi.

Haykaltaroshlikda ishlatiladigan materiallar ham uning yuqorida aytib o'tilgan hususiyatlariga bog'liq. Bu materiallar turli xil toshlar, loy, gips, yog'och, metallardan iboratdir.

Haykaltaroshlik obrazi va materiallarining yuqorida ko'rsatilgan hususiyatlariga ko'ra, tasvir etiladigan ob'ekt ham o'ziga xosdir: u asosan odam, odam tanasi, ko'pincha yalong'och odam tanasidir. Haykaltaroshlikda hayvonlar ham tasvir topadi, lekin kamroq. Jonsiz predmetlar tasviri esa juda kamdan- kam uchraydi va ko'pincha yordamchi rol o'ynaydi.

Haykaltaroshlikning o'ziga hos afzalligi bor. U shundan iboratki, marmar, granit, bronza va boshqa "abadiy" materiallar mayda-chuyda, ikir-chikir, tasodifiy, oddiy, arziyas mavzularni, obrazlarni o'ziga yaqinlashtirmaydi. Haykaltaroshlik insondagi go'zallikni, ulug'vorlikni, qahramonlikni - hullas abadiylashtirishga va avlodlarga qoldirishga arziydigan narsalarni tasvirlashga da'vat etilgan.

Haykaltaroshlikning muhim hususiyati uning simvolga intilishidir. Haykaltaroshlikdagi obraz-simvol - bu konkret ijtimoiy-tarihiy, falsafiy mazmunni gavdalantirgan obrazdir. Bu davr, xalq, millat yoki uning eng ajoyib qahramonlari to'g'risida plastika vositasi bilan izhor etilgan fikrdir.

Haykaltaroshlik "aylana haykalga"(gir aylanib tamosha qilishga mo`ljallangan) va relefga bo`linadi. Releflar: baland relefga va past relefga bo`linadi.

Haykaltaroshlik o`z vazifasiga ko`ra dastgohiy haykaltaroshlikka va monumental haykaltaroshlikka bo`linadi. Dastgohiy haykaltaroshlik "yaqindan tamosha qilishga" mo`ljallangan butunlay mustaqil asardir. Monumental haykaltaroshlik katta masshtabdagi makon bilan: arxitektura yoki tabiiy muhit: shahar ko`chasi, maydon, vokzal, park, elektr stantsiyasi to`g`oni kabi ulkan inshootlar va hakazolar bilan bog`liq. Shuning uchun ommaviy va ma`lum ma`noda tasodifiy tomoshabinga, uzoqdan turib tomosha qilishga mo`ljallangan bo`lib, bu avvalo katta ijtimoiy ahamiyatga ega mazmun bo`lishini va shu mazmunga mos bezalishini talab qiladi.

Shuningdek, turmushda ishlatishga mo`ljallangan jajji shakllardagi haykalchalar ham bor - bular turli figuralar, byustlar, hayvonlarning tasviri, ba`zan esa chinni, shisha, metall, plastmassa va hakazolardan ishlangan miniatyuralardir.

Rassomlik.

Rassomlik- atrof tevarakdagi voqelikni bo`yoqlar yordami bilan aks ettirish san`atidir. Rassom muayyan texnika usuli va vositasini ishlatib, kishilar, narsalar, voqealar, turli tabiiy hodisalarni aks ettiradi.

Rassomlikning asl maqsadi - voqelikni ijodiy tasvirlash yo`li bilan insonga g`oyaviy-estetik, emotsional ta`sir ko`rsatishdir. Rassomlikning asosiy vositalari - rasm, yorug`lik va soya, rang. Rassomlik o`zining amaliy vazifasiga ko`ra monumental va dastgoh rassomlikka bo`linadi.

Monumental rassomlik jamoat binolarini bezash uchun qo`llaniladi. Monumental rassomlikning o`zi freska va mozaika kabi turlarga ajratiladi.

Dastgoh rassomligi quyidagi janrlarga bo`linadi:

- a) peyzaj
- b) natyurmort (buyum, meva yoki gulni tasvirlash)
- b) portret
- g) tematik rassomchilik.

Buyuk rus rassomi Repin shunday degan edi: " Rassomning jon-dili g`oya, forma uning tani, bo`yoqlar - uning qoni, surat esa uning asabidir".

Grafika.

Grafika san'atning eng ommaviy turlaridan biridir. "Grafika" so'zining o'zi yunoncha grafo - yozish-chizish ma'nosini bildiradi. Grafika obraz yaratishning asosiy vositalari rasmdir. Grafikada dog', nur va soya ishlatiladi. Grafikaning alohidagi turi gravyuradir(o'yib ishlash). Gravyura tahtachalardan qog'ozga bosib olingan nushaga estamp deyiladi.

Grafika quyidagi bo'limlarga bo'linadi:

- a) kitob grafikasi
- b) plakat
- b) amaliy grafika.

Grafikaning xususiyati: hozirjavoblik, ommaviylik, hammabopligi, formasining aniqligi, demokratizm, obrazlarning umumiyligi, o'tkirligi va hakazolar.

Badiiy adabiyot.

Badiiy adabiyot - bu so'z san'atidir. Bizning ongimizda badiiy obraz predmetni bevosita mushohada qilish orqali emas, balki ma'lum ma'noni bildiruvchi so'zlar sistemasi ta'siri ostida gavdalanadi. Tasvirning obrazli so'z formasi voqelikni, uning murakkabligi va ko'p qirralarini aks ettirish uchun cheksiz imkoniyatlarga ega. Yozuvchi idrok organlariga bevosita ta'sir etuvchi predmetni yaratmaydi, balki kitobxon aqli va tasavvuriga so'z bilan ta'sir etadi. Badiiy so'z bir vaqtda hayot mohiyati mazmunini umumlashtiradi va ayni vaqtda, individuallashtiradi, "ruhlantiradi".

Badiiy obraz yaratishning muhim vositalari - kompozitsiya, sujet, personaj so'zi, portret, peyzajlardir.

Badiiy adabiyot o'z predmetining hajmi beqiyos ekanligi va tasvir tilining universalligi tufayli eng ta'sirchan san'at bo'lishi bilan birga, san'atning boshqa hillari - teatr, kino, opera va operetta, qo'shiq, tsirk, estrada va hakazolar uchun so'z asosini yaratib beradi.

Badiiy adabiyot san'at turlari ichida bosh rol o'ynaydi:

- 1) Davrning yurak urushini juda aniq ilg'ab oladi va unga jonli, bevosita javob qaytaradi.
- 2) Ko'pgina san'at turlari badiiy adabiyotga asoslanadi, unga egiladi.
- 3) Badiiy adabiyot boshqa san'at turlariga mavzu va sujet aytib turadi.

Badiiy adabiyot janrlariga quyidagilar kiradi: she'riyat, epos, lirika, drama, proza.

Musiq.

Musiq - davriy san'at. Uning materiali tovushdir, shakli esa aniq maqsadni ko'zlagan, muayyan mazmunni ifoda etgan tovushlar sistemasidir. Formalistlar musiq aslida mazmunsiz narsa, deb hisoblaydilar.

Musiq obrazining mazmuni o'ziga hos tomonlarga ega. Unga avvalo inson his-tuyg'ulari dunyosi, "jon-dil dialektikasi", "inson kechinmalarining ming hil turli ko'rinishlari"(Chaykovskiy) kiradi. Ichki ruh harakati dialektikasini to'la, aniq, nozik qilib aks ettirishda birorta ham san'at musiqaga teng kela olmaydi. Musiqaning yana bir xususiyati shundaki, musiq obrazi unchalik konkret emas, ko'proq darajada sub'ektivdir. Musiq obrazining asosiy mag'zini kompozitor bersa ham, uni tinglovchi kishi o'zining sub'ektiv, shahsiy tajribasiga bog'laydi va shuning uchun uni boshqalarga qaraganda birmuncha boshqacha idrok etishi va tushunishi mumkin.

Ko'pgina musiq turlari va janrlari mavjud. Uning asosiy turlari - simfonik musiq, programmali musiq, cholg'u musiqasidir. Balet va opera musiqasi alohida o'rin egallaydi. Musiq janrlari juda ko'p, bular - simfoniya, kontata, qo'shiq, etyud, sonata, syuita, fuga va boshqalar. Musiq mehnatda, hordiqda, jangda madadkordir. Musiq insonning intellektual va ma'naviy o'sishiga juda katta ta'sir ko'rsatadi.

Xoreografiya.

Xoreografiya - raqs san'atining barcha ko'rinishlarini o'z ichiga qamrab olgan: raqs, balet, pantomima.

Raqs - bu tashkiliy-musiqaviy, shartli, kishi tanasining ifodaviy harakatlari yordamida badiiy obraz yaratadigan san'atdir. Raqs san'ati harakatning plastik ifodasiga asoslanadi. Xoreografiya san'ati musiq va teatr bilan chambarchas bog'liq. Raqs qadimgi san'at. U kishilarning quvonchlarining bevosita ifodachisi sifatida vujudga kelgan. Dastlabki paytda diniy-magiya(sehrgarlik) mazmuniga ega bo'lgan. Hozirgi zamon raqs san'atida raqsni ikkiga ajratadilar:

1) halq etnografik raqs 2) badiiy professional raqs.

Badiiy professional raqsni o`zi ikkiga ajratiladi:

- 1) estrada raqsi
- 2) balet.

Estrada raqsi estrada programmasida alohida nomerni tashkil etadi. U yo halq raqsi, yoki mustaqil syujet asosiga qurilgan sahna raqsi bo`lishi mumkin.

Balet - xoreografiya san'atining oliy formasidir. Baletda musiqa, teatr va xoreografiya san'atlari sintetik ravishda birikadi. shuning uchun balet bir necha komponentlarni: stsenariy, musiqa, xoreografiya, tasviriy san'atni o`zida biriktirgan sintetik san'at asaridir.

Pantomima - bu maishiy turmush va hayotiy harakatlarni qaytaradi, holatlarni tasvirleydi. Shu sababli pantomima teatrdagi akterni harakatiga o`xshab ketadi.

Teatr.

Teatr - bu tashkiliy harakat, o`yin elementlari va tamoshabinning mavjudligi bilan amalga oshadigan san'at turidir. Teatrda bir odam boshqa odamning nomidan gapiradi, aktyor obrazga mujassamlashadi. Teatr teatrlashgan ommaviy tomoshalardan farq qiladi. Teatr tomosha qilishga mo`ljallangan sahna san'atidir. Sahna san'atining bosh ifodachisi - aktyordir. Teatr san'atining g`oyaviy-tematik asosini dramaturgiya tashkil etadi. Teatrda oldin dramaturgiyada bayon etilgan fikr ro`yobga chiqadi.

Kino.

Kino hayotni bilish, keng ommaga g`oyaviy-estetik ta'sir qilish vositalaridan biridir. Kino teatrga juda yaqin turadi. Kinoning g`oyaviy-tematik asosini stsenariy tashkil etadi. Kino teatrga nisbatan keng qamrovli, ulkan hayot hodisalarini aks ettiradi. Teatr san'ati - dastavval aktyor san'atidir. Kino unday emas. 1) Kinematografiyaning ayrim turlari borki, unda aktyor ishtirok etmaydi. Kinoda bu mumkin. 2) Hatto badiiy filmda ham aktyor markaziy rolni o`ynamasligi mumkin. Kinoda g`oyaviy-badiiy fikrni ochishning o`ziga hos usullari mavjud.

Kino san'atining uch turi mavjud:

- 1) Badiiy kino
- 2) Hujjatli xronikal kino
- 3) Ilmiy-ommabop kino.

Kinoda asosiy o'rinni montaj tashkil etadi. Kinoda ovoz berish ham muhim o'rin tutadi.

Badiiy ijod turlarining hilma-hilligi, ular o'rtasidagi umumiylik va hususiylik ularni turkumlash zaruriyatini tugdiradi.

Turkumlash - san'at qonuniyatlarini bilishning va uni o'rganishning muhim vositasi bo'lib xizmat qiladi. U badiiy ijodning turli bo'laklari o'rtasidagi aloqadorlikni va mavjud farqlarni aniqlab, ularni bir tizim holiga keltirishga yordam beradi. Shuning uchun ham san'atni hozir fazoli, vaqtli, fazoli-vaqtli ko'rinishlarga bo'lib o'rganish an'anaga aylangan. Fazoli ko'rinishga tasviriy san'at, haykaltaroshlik, chizikli rasm (grafika), amaliy san'at va me'morchilik kiritilsa, vaqtli ko'rinishga badiiy adabiyot va musiqa, fazoli-vaqtli ko'rinishlarga esa teatr, kino, televidenie, tsirklar kiritiladi.

San'at turlari idrok etilish jihatidan ham turli hil ko'rinishlarga ega bo'ladi. Ko'z bilan ko'riladigan san'at turlariga tomoshali deb aytiladi, bularga tasviriy san'at, haykaltaroshlik, me'morchilik, badiiy foto asarlari kiradi. Quloq bilan eshitiladigan san'at turlariga musiqa va uning mayda turlari opera, operetta, syuita, klassik kuylar va boshqalar kiradi. Teatr, tsirk, kino san'at turlari esa ham kuriladigan, ham eshitiladigan turlari kiradi. Shunday qilib, san'at turlari qanchalik keng tarqalgan bo'lmasin, har bir san'at turi hayotning bir tomonini qamrab oladi va ayni paytda alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki har bir san'at turi o'zicha go'zallik yaratadi va bu san'at turisiz hayotni idrok etish qiyin bo'ladi. Bir tasavvur etib ko'raylik, hayotda san'atning musiqa turi bo'lmasa, yoki badiiy adabiyot bo'lmasa, yoki kino san'ati. Demak, har bir san'at turi hayotimizda alohida ahamiyatga ega va hayotimizning muhim bir bo'lagi, uygunlik va mutanosiblik manbai ekan. San'at turlari inson ma'naviy hayotining manbai, qolaversa go'zallik manbai ekanligini alohida ta'kidlash joiz.

Bugungi kunimizda bir-birisi bilan uzviy boglanib, **qorishib ketgan san'at turlari** hayotimizdan keng o'rin egallamoqda. Bularga teatr, kino, ochiq sahna (kontsert), tsirk, "oynai jahon" (televidenie) kabilar kiradi.

Qorishma san'at turlarining muhim hususiyatlaridan biri shuki, bir san'at turi yana birisini hamkorlikka chaqiradi va natijada ikkala yoki bir nechta qo'shib qorishib ketadi. Shuning uchun qorishma san'at turlari degan tushuncha hosil bo'ladi. Masalan, teatr san'atida biror bir asar yaratish uchun badiiy adabiyot asari zarur bo'ladi, bundan tashqari sahna asarini musiqasiz tasavvur etib bo'lmaydi. Huddi shunday kino san'ati ham, bu yerda bir nechta san'at turlarining qo'shilmasi kelib chiqadi. Shunisi juda muhimki, qorishma san'at turlarida birorta hamkor san'at turi tushib qolsa, uygunlik buziladi va bu san'at turi estetik jihatdan insonlarni qoniqtirmasligi mumkin. Masalan, teatr sahnasida aktyorning kuylay olmasligi natijasida boshqa ovozda yozilgan fonogrammaning qo'yilishi, estrada kontsertlarida faqat honandaning bir joyda turib qo'shiq aytishi va hakazo misollarni keltirish mumkin.

Qorishma san'at turlari ichida kino san'ati biz uchun juda ahamiyatlidir. Kino san'ati juda murakkab qorishma to'rini hosil qiladi. Bunda adabiyot asari - kinostsenariyga, teatr - kinoaktyor san'atiga, musiqa - filmning tasviriy ko'rinishiga, modelyerlik - aktyor kiyim kechaklari bilan birgalikda tarixiy davrni ifodalashga xizmat etadi. Shu asnoda kino san'atning bir nechta hususiyatlarini bir erga jamlab, yangi sifat darajasini yaratishga qodir bo'linadi. Shuning uchun bugungi kunda yaratilayotgan ko'pgina kino asarlari insonlarda yuksak estetik ta'sirlanish tuygusini hosil qiladi va XXI asr fan-texnika taraqqiyoti mo'jizasiga aylandi. Kino san'atining texnik asosini suratga tushirish kameralari tashkil etadi. Ular hayotni hilma-hil ko'rinishlarini badiiy o'zlashtirish orqali kino asarining estetik vazifasini bajaradi.

XX asrning ikkinchi yarmida san'atning "Oynai jaxon"(televidenie) turi ravnaq topa boshladi. Televidenie ham ilmiy-texnik inqilob mahsulidir. Televidenie o'zining mohiyat jihatidan kengroq miqyosdagi san'at bo'lib, u siyosiy, ilmiy-texnik, estetik va boshqa axborotni tezkor etkazib berishning eng muhim vositasi hisoblanadi. "Oynai jaxon" millionlab odamlarning bo'sh vaqtlarini uyushtirishga, turmush tarziga alohida ta'sir o'tkazishga qodir bo'lib, u insonlar hayotidan juda muhim o'rin egallaydi.

"Oynai jahon" dastlab san'at turlarini ifodalash vositasi tarzida yuzaga kelgan, hozirgi kunda ochiq efirga uzatilayotgan ko'rsatuvlarni yuksak mahorat bilan bezatish va ko'rsatishning o'zi ham alohida san'at turiga aylanib bormoqda.

San'at turlarining bugungi kunimizdagi rivoji barkamol shahsni shakllantirishga qaratilgan. Zero, mustaqil O'zbekiston o'z oldiga qo'ygan

maqsadga faqat barkamol rivojlangan avlodni shakllantiribgina erisha oladi. San'at turlari hayotimizning rang-barangligini, insonlar ruhiyatlarining turli hillarda namoyon bo'lishini, olamning turfa hil ekanligini, ranglar fakat oq-qora emas, balki kamalak sifat ekanligini anglatib turadi. Hayotimizni ana shu ranglarsiz, san'at turlarisiz tasavvur etish qiyin va ularsiz hayot mazmunini bezash juda mushkul bo'lardi. Shuning uchun ham bugungi kunda - ma'naviy qaramlikdan qutilgan bir paytda, san'at turlarini yanada rivojlantirish masalasi davlat miqyosida ko'rib chiqilmoqda. Jumladan "Milliy istiqlol goyasi: asosiy tushincha va tamoyillar" kontseptsiyasida "Ijodkorlarni murakkab va shonli tarihimizning yorqin sahifalarini, bugungi hayot voqeligini, oliyjanob orzu-umidlarimizni aks ettiradigan adabiyot, kino, musiqa va tasviriy san'at asarlari yaratishga har tomonlama ragbatlantirish" zarurligi to'grisida fikrlar ilgari surilgan.

Hulosa tariqasida shuni aytish mumkinki, san'at turlari yosh avlodni estetik jixatdan barkamollikka etaklaydi. Shuning uchun ham san'at turlari kuchli estetik tarbiya vositasidir. Uni rivojlantirish shahsga e'tiborni rivojlantirishdir, bu esa kelajak avlodni ezgulik yo'lidan rivojlantirishdir. Barkamol rivojlangan shahs farovon turmushni yaratuvchilaridir. Maqsad unga sarf qilingan vositalarni doimo oqlash hususiyatiga ega. Mustaqkil O'zbekiston o'z maqsadiga erishajak, albatta.

Tayanch tushunchalar:

San'at turlari, estetik tafakkur, badiiy adabiyot, tasviriy san'at, haykaltaroshlik, musavvirlik, me'morchilik, badiiy-texnik vositalari, kino, tsirk, teatr, televidenie, qorishma san'at turlari, fazoli-vaqtli ko'rinish, kinokamera, stsenariya, artist, aktyor.

Takrorlash uchun savollar:

1. San'at turlari tushunchasining mohiyati va mazmuni nimadan iborat?
2. San'at qanday turlarga bo'linadi?
3. San'at turlarining o'ziga hos hususiyatlari nimalarda?
4. San'at turlari bir-biridan qanday farq etadi?
5. Qorishma san'at turlariga nimalar kiradi?
6. Qorishma san'at turlari qanday hususiyatlarga ega?
7. Televidenie bugungi kunda qanday imkoniyatlarga ega?
8. San'at turlari shahsning rivojlanishiga qanday ta'sir o'tkazadi?

9.San'at turlari rang-barangligining ahamiyati nimada?


10."Milliy istiqlol goyasi" kontseptsiyasida san'at turlari to'grisida nimalar deyilgan?

Adabiyotlar :

- 1.Karimov I. Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. T.: O`zbekiston 1997.
- 2.Karimov I. Tarixiy xotirasiz kelajak yo`q. T.:O`zbekiston 1998.
- 3.Karimov I. O`zbekiston XXI asrga intilmoqda. T.:O`zbekiston 1999.
- 4.Karimov I. Milliy istiqlol mafkurasi -halq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir. T.: O`zbekiston 2000 .
5. Karimov I. Yuksak manaviyat – yengilmas kuch. T.Manaviyat 2008.
6. "Milliy istiklol goyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar". T.2000.
7. Umarov E. Estetika. Toshkent 1995 .
- 8.Eстетika. Slovar. M.1989.
- 9.Ibrohimov A.,Sultonov X., Jo`raev N. Vatan tuyg`usi. T.1996 .
- 10.Falsafa qomusiy lug'ati. (Q.Nasarov tah.ost.)Toshkent 2004.
- 11.Martymov V.F. «Go'zallik falsafasi» Minsk 1999.
12. "Barkamol avlod orzusi". T. 1999 .
13. "Soglom avlod - bizning kelajagimiz". T. 2000.

Chizmalar va ilovalar.


1-chizma.



San'at turlari tizimi.

Amaliy beriladigan) San'at	(ishlov Me'morchilik, Dekorativ amaliy san'at, Haykaltaroshlik Rassomchilik, Grafika, Badiiy foto	Fazoli san'at
So`z san'ati Tovush san'ati	Adabiyot Musiq	Vaqtli san'at
Tamoshali San'at	Raqqoslik Teatr Kino Oynai jahon Estrada Tsirk	Fazoli-vaqtli San'at

3-chizma.



Buyuk donishmandlar go`zallik haqida.

- *Eng go'zal narsa nima?*
- *Odam. Chunki u Tangrining mahsulidir.*
- *Eng tez narsa nima?*
- *Aql. U hamma narsani ortda qoldiradi.*
- *Hammadan donoroq narsa nima?*
- *Vaqt. Chunki yolgiz vaqtgina hamma narsani oydinlashtiradi.*
- *Hamma uchun eng umumiy narsa nima?*
- *Umid. Chunki u hech vaqosi yo'qlarda ham mavjuddir.*
- *Eng kuchli narsa nima?*
- *Zaruriyat. Chunki u hamma narsaning ustidan hukmronlik qiladi.*
- *Eng qiyin narsa nima?*
- *O'zini anglash.*
- *Eng oson narsa nima?*
- *O'zgalarga maslahat berish.*
- *Kimni bahtli sanash mumkin?*
- *Jismoniy soglom, ruhiy hotirjam hamda o'z iste'dodini o'stira olgan kishini.*
- *Bahtsizlikka dosh berishning oson yo'li nima?*
- *Ganimlarning sendanda yomon ahvolga tushib qolganiga guvoh bo'lish.*

Fales.

* * *

Go'zallik hajm va tartibdan, muntazamlilikdan kelib chiqadi, haddan tashqari kichkina bo'lgan mavjudot go'zal emas, chunki sezilar-sezilmas oz vaqt ichida qaralganda uning barcha hususiyatlari aralashib ketadi. Haddan tashqari katta narsa ham go'zal emas, ko'ruvchilar uchun narsaning butunligi va yaxlitligi yo'qoladi. Shunday qilib, jonli va jonsiz go'zal narsalar bir qarashda sezib olinadigan hajmga ega bo'lishi kerak, bas, shunday ekan, rivoyatlar ham oson esda qoladigan hajmga ega bo'lishi lozim.

Aristotel

* * *

Go'zallikning asosiy shakllari – bu makondagi tartib, mutanosiblik va aniqlikdir.

Aristotel

*** * ***

Go'zal fe'l-atvorning nishonasi o'n narsadir:

Birinchisi- yahshilik;

Ikkinchisi- insofli bo'lish;

Uchinchisi- boshqalardan ayb qidirmaslik;

To'rtinchisi- nojo'ya harakat qilganni to'g'ri yo'lga solish;

Beshinchisi- aybiga iqror bo'lib o'zrini aytganning o'zrini qabul qilish;

Oltinchisi-boshqalar uchun mashaqqatni o'z elkangga olish;

Ettinchisi-faqat o'z manfaatini ko'zlamaslik;

Sakkizinchisi- ochiq yo'zli, shirin so'zli bo'lish;

To'qqizinchisi- muhtojlarning hojatini chiqarish;

O'ninchisi- muloyim va tavezeli(kamtarin) bo'lish.

(Xusayn Voiz Koshifiy).

*** * ***

Siymong go'zalligi va yuzing chiroyi oyning chiqishi kechasidan bir belgi kabi dilu ko'ngillarga shodlik baxsh etar, buni unutma!

(Abul Qosim az-Zamaxshariy).

*** * ***

**Odoblilik va kamtarinlik odamning haqiqiy o'qimishliligidan darak beradi.
(O.Balzak).**

*** * ***

Yaxshi fazilatlar to`g`risida chiroyli mulohaza yuritish- shu fazilatlarga ega bo`lish degani emas, hayolan adolatli bo`lish esa amalda odil bo`lish degani emas.

(Aristotel).

* * *

Odamning didi qanday bo`lsa o`zi ham shunday bo`ladi.

(Avgustin)

* * *

Go`zallikni his qilish oldindan belgilangan, kutilgan, anglangan belgilardan yuqori turadi. Go`zallik bilish jarayonida falsafiy jixatdan uch vazifani bajaradi:

- *bilish jarayonida kuchni tejaydi;*
- *eng yaqin va tugri yo`l bilan maksadga erishishni ta`minlaydi;*
- *ijobiy emotsiya orqali ehtiyojni qondiradi.*

go`zallik bilish qobiliyatining o`yinidir.

(I.Kant)

* * *

Go`zallikni his qilish hoh fanda bo`lsin, hoh badiiy ijodda bo`lsin, ijodning zaruriy vositasi hisoblanadi.

Agar emotsiya organizm uchun foydali bo`lsa, estetik hissiyot inson ijodiy faoliyati uchun zarur va muhimdir.

(P.K.Anoxin)

* * *

Go`zal fe`l-atvor kichik fidoyiliklardan iborat.

(R.Emerson).

* * *

Odamning ulug`ligi uning bo`y-basti bilan o`lchanmaganidek, millatning ulug`vorligi uning son-sanog`i bilan belgilanmaydi. Yagona o`lchov – bu uning ma`naviyatidir.

(V.Gyugo).

* * *

Odamning sirtiyu-botini (ichi) to`g`ri, salomat va tuzuk bo`lsa, uning zohiri (tashqarisi) ham sahiy va salim bo`lur.

(Abul Qosim az-Zamaxshariy).

* * *

Olijanob va sharif kishi shunday kishiki, u hozir bo`lmay g`oyib bo`lganida uning suhbatini hohlab, muloqotini orzu qilarlar, basharti u (suhbatga) kelib qolsa, uning haybatidan sergaklanib hushyor tortarlar.

(Abul Qosim az-Zamaxshariy).

* * *

Mard va olijanob kishining eng go`zal fazilatlaridan biri o`z birodarining ayblarini bekitib, uning barcha ishlarini bamisoli o`zining ishlari o`rnida ko`rib ish tutishidir.

(Abul Qosim az-Zamaxshariy).

* * *

Go`zal sifat va husnu hulq siyratlari bezamagan kishini hech qanday chiroyli kiyimlar ko`rkam qilolmas, gunoh va hatolardan saqlanmagan kimsaning qalbi sira aybdan forig` bo`lmas.

(Abul Qosim az-Zamaxshariy).

* * *

*Xulq go`zal bo`lsa, barcha halq sevadi,
Xulqi to`g`ri bo`lgan kishi to`rga chiqadi.*

(Yusuf Xos Xojib).

** * **

*Hamma ishlaringizda to`g`ri bo`ling, odamlarga muomalada hulqingiz
chiroyli bo`lsin.*

(Hadisi-shariflardan).

** * **

*Musiqqa fani shu ma`noda foydaliki, kimning fe`l-atvori muvozanatini
yo`qotgan bo`lsa, uni tartibga keltiradi.*

(Abu Nasr Farobiy).

** * **

*Go`zal hulq bilan payvasta bo`lgan ilm odamlarni bahtiyor qiladi,
martabasini balandlatadi. Ilmdan maqsad ko`rkam va ezgu ishlarni amalga
oshirishdir.*

(Faxrulbarot Sulaymoniy).

** * **

*Yaxshi nazar bilan qara har kimga,
Libosi chiroyli yo hunuk dema!*

(Muiniddin Juvayniy).

** * **

*Bir xakimning aytishicha, yahshi hulqning o`nta belgisi bor. Ular
quyidagilardir: aql, insof, ilm, hilm, olijanoblik, ko`rkam fe`l, ehson, sabr,
shukr va muloyimlik.*

(«Favokih al-julaso»).

** * **

*Bir yosh yigitdan: « Go`zallar nima uchun bunchalik qo`pol va ginachi
bo`ladilar?»-deb so`rashdi. U esa: «Kimki husni va yoshligiga mag`rur
bo`lsa, muloyimlik ne`matidan mahrum bo`ladi!» deb javob berdi.*

(Xurramiy).

* * *

Kishida ikki go`zallik bo`lib, ular ichki va tashqi go`zallikka bo`linadi. Tashqi go`zallikka kishining barcha a`zolari, masalan, ko`z, quloq, qosh, lab, og`iz, qo`l, oyoq, qomat kiradi. Ichki go`zallik esa kishining yoqimli hulqlar bilan bezanishidir. Bu hulqlar muloyimlik, sahovat, shijoat, ilm, kamtarinlik, iffat va shunga o`xshashlardir.

(Abulbarakot Qodiriy).

* * *

«Ijodkorning hizmati o`z ichidan go`zallik to`qib chiqarishda emas, balki predmet tabiatidagi go`zallikni ko`ra bilish va uni o`z asarlarida tasvirlashdadir».

(N.A.Dobrolyubov.)

* * *

«Go`zal kishi muloyim, hush fe`l, ozoda bo`lishi bilan birga go`zal yashashi, odamlarga iloji boricha ko`proq foyda keltirishi, umumiy ish uchun o`z kuchi va hayotini ayamasi, insonlarga nisbatan qalbi olov bo`lishi lozim».

(A.P.Chexov.)

* * *

Insonda hamma narsa: yuzi ham, kiyim-boshi ham, qalbi ham, fikri ham go`zal bo`lmog`i lozim.

(A.P.Chexov.)

* * *

Inson bilish orqali o`zida go`zallik va mukammallikni kashf etadi.

(Abu Nasr Farobiy.)

* * *

Hotirjamlikdan ko`ra go`zalroq narsa yo`q ekan.

(Najmiddin Kubro.)

* * *

Eng go'zal bezak (insonga) tavezelik, eng hunuk narsa bu baxillik ekan.

(Najmiddin Kubro.)

* * *

*Go'zal bordir go'zallardan ziyoda,
Uning hizmatida turg'ing keladi.
Adabli-ikromli, hushhulq, ozoda,
To o'lguncha birga yurg'ing keladi.*

*Go'zal bordir –u'zun bo'yli, yoqimli,
Qorong' kechada tushar yolqini.
So'zlagan so'zlari bari bol kabi,
Qayda bo'lsa, topib olging keladi.*

(Mahtumkuli.)

* * *

*Qachonki so'z beoqibat qoladigan bo'lsa, har tomonlama ta'sir
etadigan vosita musiqadir.*

(P.I.Chaykovskiy.)

* * *

Musiqasiz, ashulasiz hayot bo'lishi mumkin emas.

(YU.Fuchik.)

* * *

*Men musiqani shu darajada yahshi ko'ramanki, hatto ijodiy ishim
ham, odatda, musiqa sadolari ostida bajariladi. Menimcha, yahshi,
yoqimli musiqa ishga halaqit bermaydi, aksincha, u kishiga zavq berib,
ruhni ko'taradi, ilhomlantirib, qandaydir olijanob dunyoga olib kiradi.*

(T.N Kori-Niyoziy.)

* * *

*«Go'zallik qizlarda,
U qaro ko'zlarda,
Soz kabi so'zlarda» –
deganlar yanglishar.*

*Go'zallik bir guldir,
Muddati fasldir,
Yashamoq asldir,
Siz, biz bor, u yashar.*

*«Go'zallik ishlayish,
manglayin terlatish,
Go'zaldir ungan ish,
maqtansa yarashar».*

(G.Gulom.)

* * *

*Mulki borliq ichra bir mahal,
Ko'rksizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun olamga sayqal,
Olam aro odam yaralgan.
Shundan beri inson tinmayin
Shu er uzra ter to'kar hamon
Yerni go'zal qilgani sayin,
Go'zal bo'lur o'zi ham inson.*

(E.Voxidov.)

ESTETIKA FANIDAN TEST SAVOLLARI.

1.Eстетika fani kim tomonidan alohida fan sohasiga aylantirilgan?

- a) A.Baumgarten
- b) Platon
- s) Farobiy
- d) Arastu

2. «Estetika» so'zi yunoncha "estetikos" so'zidan olingan bo'lib.qanday ma'noni bildiradi?

- a) Idrok qilish
- b) Sezish
- s) Go'zallik
- d) Xotira

3.Estetika bu....

- a) Nafosat olami
- b) Ezgulik
- s) Ahloq-odob
- d) Ma'naviyat

4. Estetika fan sifatida nimani o'rganadi?

- a) go'zallikni
- b) Odob-ahloqni
- o) Insoniyat tomonidan borliqni estetik o'zlashtirish mohiyati va qonuniyatlarini
- d) Shahs rivojlanishini

5.Tubandagi fanlardan qaysi biri estetika bilan chambarchas bogliq?

- a) San'atshunoslik
- b) Tarih
- s) Etika
- d) Mantiq

6.Dastlabki estetik goyalar qaysi mamlakatlarda vujudga kelgan?

- a) Yaponiya,Turkiya,Misr,Yunoniston,Afgoniston.
- b) Germaniya,Rossiya,Turkiya,Xindiston,Hitoy.
- s) Misr, Messopatamiya.Bobil,Xindiston,Hitoy,Eron,Turon.
- d) Hitoy,Turkiya,Italiya,Germaniya,AKSh

7.Go'zallikni hamohanglikda, tomonlar mosligi(simmetriya)da deb bilgan qadimgi yunon faylasufi:

- a) Demokrit
- b) Suqrot
- s) Pifagor
- d) Aflotun

8.Estetikani ham go'zallik falsafasi,ham san'at falsafasi sifatida ta'riflagan qadimgi yunon faylasufi:

- a) Arastu
- b) Demokrit
- s) Sukrot
- d) Pifagor

9. «Nafosat asosini moddiy dunyodagi narsalar tashkil qiladi», deb fikr yuritgan qadimgi yunon faylasufi.

- a) Arastu
- b) Sukrot
- s) Demokrit
- d)Aflotun

10.Qadimgi Rim estetikasining hususiyatlarini ochib beruvchi «Narsalar tabiati haqida"gi asarning muallifi:

- a) Gelvetsiy
- b) Aflotun
- s) Tit Lukretsiy Kar
- d) Bualo

11.Estetik tafakkur rivojlanishiga salmoqli hissa qo'shgan Ovropa Uygonish davrining buyuk ijodkorlari qaysi qatorda to'liq berilgan?

- a) Leonardo da Vinchi, Rafael Santi, Mikelandjelo, Dyurer,Servantes,Shekspir.
- b) Jan-Jak Rycco, Gelvetsiy, Deni Didro,Bualo,Shekspir.
- s) Volter, Jan-jak Russo, Bualo, Mikelandjelo, Petrarka.
- d) Servantes,Shekspir,Dante,Gete,Dyurer,Bualo.

12.Sharq Uygonish davri estetik tafakkuri qaysi manbalar bilan chambarchas bog'langan?

- a) Sharq madaniyati
- b) Islom dini shariati,Kur'oni Karim va Xadisi Sharif
- s) Axloq odob madaniyati
- d) Sharq badiiy san'ati

13.Islomning estetik nuqtai nazariga asosan go'zallikning eng buyuk ifodasi.

- a) Alloh Taolo
- b) Muhammad Paygambar (S.A.B)
- s) Tabiat
- d) Inson

14.Islom an'analariga ko'ra nimalarni tasvirlash man qilinadi:

- a) Hayvonlarni
- b) Insonlarni
- b) Soyasi bor narsalarni
- d) Daraht va o'simliklarni

15.Islom musavvirlari soyasiz san'atning qaysi to'rini gullatib yashnatdilar?

- a) Miniatyura
- b) Me'morchilik
- s) Musiqa
- d) Naqqoshlik

16.X asr ohirlarida ijod qilgan va musiqa janri hususidagi asarlari orqali turkiy madaniyat taraqqiyoti estetik tafakkur rivojiga katta ta'sir ko'rsatgan olim:

- a) Maxmud Koshgariy
- b) Yusuf Xos Xojib
- s) Axmad Yassavii
- d) Faxriddin ap-Roziy

17. Sharq musiqa madaniyati rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgan 12 maqomga asos solgan musiqashunos, bastakor:

- a) Barbod Marvaziy
- b) Abu Ali Inb Sino
- s) Faxriddin Ap-Roziy
- d) Mahmud Qoshg'ariy

18. "Baxt-saodatga erushuv haqida" risolasining muallifi:

- a) Yusuf Xos Xojib
- b) Abu Ali Ibn Sino
- s) Farobiy
- d) Maxmud Qoshg'ariy

19. O'zining estetik qarashlarida estetika bilan ahloq muammolarini bir-biriga bog'lagan alloma:

- a) Abu Ali Ibn Sino
- b) Farobiy
- s) Beruniy
- d) Navoiy

20. "Qobusnoma" asarining muallifi

- a) Beruniy
- b) Kaykovus
- s) Farobiy
- d) Navoiy

21. IX-XII asr estetik tafakkuri taraqqiyotida qaysi olimlarning asarlari muhim o'rin tutdi:

- a) Maxmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Axmad Yugnakiy, Firdavsiy
- b) A. Navoiy, Sulton Ali Mashxadiy, Ali Tabriziy, Abdurahmon Jomiy
- s) Ulugbek, Ali Kushchi, Lutfiy, Sakkokiy, Atoiy
- d) Kamoliddin Behzod, Jaloladdin Rumiy, A. Navoiy, Ali Kushchi

22. "Majolis un-nafois", "Mezon ul-avzon", "Mufradot" asarlarining muallifi

- a) A. Navoiy
- b) Jomiy
- s) Hondamir
- d) Kamoladdin Behzod

23. Jomiy "Risolayi musiqiy" asarida nimalar haqida keng ma'lumot bergan?

- a) Adabiyot estetikasi
- b) Musiqa nazariyasi, uning turlari, ijro usullari.
- s) Me'morchilik san'atining estetik jihatlari
- d) Tabiat estetikasi

24. XIV-XV asrlarda nafis kitob va xattotlik san'ati taraqqiyotiga katta hissa qo'shgan olim.

- a) Ali Tabriziy
- b) Jaloladdin Rumi
- s) Alisher Navoiy
- d) Abduraxmon Jomiy

25. XVI asr boshlarida Mavoraunnahr va Hurosondagi madaniy muhit, adabiyot va san'at rivojlanishiga oid ma'lumotlarni ifodalagan "Badoe-ul vaqoe" ("Nodir voqealar") asarining muallifi:

- a) Zayniddin Vosifiy
- b) Alisher Navoiy
- s) Abdurahmon Jomiy
- d) Ali Tabriziy

26. Zahriddin Muhammad Boburning estetik qarashlarida nimalar muhim o'rin tutadi?

- a) Notqlik san'ati, me'morchilik, adabiyot san'ati
- b) She'riy san'at, musavvirlik, shaharsozlik, musiqa
- s) Musavvirlik, me'morchilik san'ati
- d) Tabiat estetikasi, notqlik va hattotlik san'atlari

27. "Hattotlik va musavvirlar haqida risola" asarining muallifi

- a) Do'st Muhammad
- b) Ali Tabriziy
- s) Kamoliddin Behzod
- d) Alisher Navoiy

28.XVII-XVIII Markaziy Osiyo halqlari estetik tafakkuri taraqqiyotiga muhim hissa qo'shgan allomalar:

- a) Darvesh, Ali Changiy, Mutribiy, Mashxo Samarqandiy, Nasafiy
- b) Navoiy, Nasafiy, Rumi, Mutribiy
- s) Mutribiy, Jomiy, Rumi, Nasafiy
- d) Mashxo Samarkandiy, Rudakiy, Hisrav Dehlaviy

29.Voqelikni inson tomonidan estetik jihatdan idrok etishning eng oliy ko'rinishi

- a) Odob-axloq
- b) Din
- s) San'at
- d) Mafkura

30.Estetik munosabat hususiyatlarini ochish, idrok qilish-bu...

- a) Uning ob'ektiv, sub'ektiv va o'zaro harakatlari tabiatini ochish, idrok qilish
- b) San'atdagi go'zallikni o'rganish
- s) Mehnat nafosatlilikini izlash
- d) Tabiat go'zalligini tahlil qilish

31.Estetik ob'ekt-bu...

- a) Estetik faoliyat
- b) Tabiat
- s) Jamiyat
- d) Voqelikni hilma-hil ko'rinishlari

32.Estetik munosabat sub'ekti-bu...

- a) Inson
- b) San'at
- s) Voqelik
- d) Jamiyat

33.Qanday hossalr estetik ob'ekt asosi hisoblanadi?

- a) Tabiat go'zalligi
- b) Mehnatning estetik jihatlari
- s) Borliqdagi voqea hodisalarning birligi va hilma-hilligi muvofiqligi, hamohangligi
- d) Inson go'zalligi

34.Dunyoni estetik idrok qilish va baholash qobiliyati-...

- a) Biologik va ijtimoiy qobiliyat
- b) Faqat biologik qobiliyat
- s) Faqat ijtimoiy qobiliyat
- d) Tugma hususiyat

35.Quyidagi ijtimoiy ong shakllaridan qaysi biri vokeylikdagi nafosatlilikni ifodalaydi?

- a) Estetik ong
- b) Ahloqiy ong
- s) Diniy ong
- d) Siesiy ong

36.Estetik ong tizimini tashkil qiluvchi elementlar:

- a) Estetik tabiat,estetik munosabat,estetik goya
- b) Estetik his,estetik tarbiya,estetik munosabat
- s) Estetik his,estetik did,estetik fikr,estetik orzu,estetik qarash,estetik nazariya
- d) Estetik qobiliyat,estetik dunyoqarash,estetik tarbiya

37.Inson faoliyatida estetik ongga yaqin bo'lgan yonma-yon,barobar tarzda vujudga kelgan ijtimoiy ong shakli-...

- a)Ahloqiy ong
- b) Diniy ong
- s) Huquqiy ong
- d) Siesiy ong

38.Estetik ong qanday turdagi faoliyat jarayonida shakllanadi?

- a) Mehnat faoliyatida
- b) Estetik faoliyat
- s) Ijtimoiy faoliyat
- d) Iqtisodiy faoliyat

39.Estetik ong ijtimoiy va inson ongining qaysi shakli bilan chambarchas bogliq?

- a) Badiiy ong
- b) Ahloqiy ong
- s) Siesiy ong
- d) Huquqiy ong

40.Yakka odam estetik ongi bu...

- a) Aniq bir shahs ongi ma'naviy dunyosining bir qismi
- b) Ijtimoiy ong shakli
- s) Jamiyat estetik ongining bir qismi
- d) Sotsial guruhlar estetik ongining bir ko'rinishi

41.Eстетик his tuygular qatoriga quyidagi tushunchalar kiradi:

- a) Estetik did,estetik baho,estetik lazzatlanish
- b) Shodlik, hayratlanish, ajablanish, rohatlanish, lazzatlanish,ehtiros, shavk-zavk, nafrat
- s) Rohatlanish,estetik lazzatlanish,estetik baho,estetik did
- d) Hamohanglik,estetik baho, estetik lazzatlanish, ohang

42. Estetik kechinmalar yakuni-...

- a) Estetik lazzatlanish
- b) Estetik tasavvur
- s) Estetik baho
- d) Estetik uyg'unlik

43.Estetik his-tuygular tizimi bilan bir qatorda o'rin olgan ijtimoiy his-tuygular.

- a) Ahloqiy his-tuygular
- b) Diniy his- tuygular
- s) Ahloqiy va aqliy bilish his-tuygulari
- d) Aqliy bilish his -tuygulari

44.Estetik did nima orqali namoyon bo'ladi?

- a) Insonning fikr-mulohazalari,hulq-atvori,hatti-harakatlari moddiy va ma'naviy ijodkorligi
- b) Estetik faoliyat va his-tuygular
- s) Estetik qarashlar
- d) Insonning hulq-atvori

45.Estetik did zaminida nima yotadi?

- a) Estetik tushuncha va tasavvurlar
- b) Odamlarning dunyoqarashi
- s) go'zallikni hunuklikdan ajrata bilish
- d) go'zallikni hunuklikdan ajrata bilish va undan begaraz shodlanish,lazzatlanish qobiliyati

46. Estetik didning cheksiz hilma-hilligi manbai-bu...

- a) Voqelik
- b) Inson
- s) Jamiyat
- d) Mehnat

47. Estetik orzu-bu...

- a) Estetik ongning tarkibiy qismi
- b) Ahloqiy tushuncha
- s) Estetik faoliyat natijasi
- d) Estetik kechinma va his tuygular

48. Estetik orzu muayyan shahsga taalluqli hususiyatlar bo'lib, nimani ifodalaydi?

- a) Inson tafakkurini
- b) Insonning idrok qilish qobiliyatini
- s) Uning siesiy ongini
- d) Shahs ma'naviy ongini

49. Estetik qarashlar va nazariyalar nimani anglatadi?

- a) Estetik, ongning goyaviy sohasini va tabiat, hayot, san'at mohiyati haqidagi fikr-mulohazalar va goyalar
- b) Estetik ongni
- s) Estetik didni
- d) Estetik orzuni

50. Estetik nazariya-bu...

- a) Ahloqiy- estetik goyalar tizimi
- b) Estetik ob'ektni butunligicha qamrab oladigan tamoyillar, qarashlar, tushunchalar, qoidalar, aqidalar, bilimlar tizimi
- s) Estetik tarbiya asosi
- d) Estetik faoliyat negizi

51. Estetik faoliyatning asosi-...

- a) Estetik ong
- b) Insonning moddiy ehtiyojlari
- s) Insonning ma'naviy ehtiyojlari
- d) Ahloqiy ong

52.Estetik faoliyatining asosiy hususiyatlari nimalar bilan belgilanadi?

- a) Moddiy extiejlar
- b) Ma'naviy extiejlar
- s) Jamiyatning madaniy hayoti
- d) Estetik ehtiyojlar

53.Estetik faoliyat insonning qanday turdagi faoliyatida yaqqol namoyon bo'ladi?

- a) Badiiy faoliyati
- b) Mehnat faoliyati
- s) O'yin faoliyati
- d) Ijtimoiy faoliyati

54.Texnik estetikaning asosiy yo'nalishi-

- a) San'at
- b) Adabiyot
- s) Dizayn
- d) Bilish faoliyati

55.Estetikaning asosiy tushunchasi-...

- a) Go'zallik
- b) Fojiyaviylik
- s) Ulugvorlik
- d) Kulgililik

56.Asosiy estetik tushunchalar-bu...

- a) Nafosatlilik,go'zallik,fahm-farosatlik,begarazlik
- b) Go'zallik,ulugvorlik,fojialilik,kulgililik
- s) Ulugvorlik,sabr-toqatlik,ezgulik,kulgililik
- d) Nafosatlilik,ezgulik,baht- saodat,fojialilik

57. Go'zallik-bu...

- a) Voqeylik(tabiat, jamiyat,san'at) hodisasi
- b) San'atga doir tushuncha
- s) Faqat insonga hos hususiyat
- d) Tabiat ko'rinishi

58.San'atda go'zallik...

- a) Hayotdagi go'zallik in'ikosi
- b) Badiiy ijod natijasi
- s) Badiiy iste'dodga bogliq tushuncha
- d) Estetik tarbiya natijasi

59.Aflotun ta'limotida go'zallik qanday ifodalangan?

- a) Tabiiy hususiyat sifatida
- b) Jonli, hissiyotli, o'zgaruvchan narsalar olamida ajralib qolgan abadiy ruh - goya sifatida
- s) Ijtimoiy rivojlanish hususiyati sifatida
- d) Jonli, hissiyotli, o'zgaruvchan goyalar ifodasi sifatida

60.Arastuning fikricha go'zallik-bu..

- a) Real voqeylik in'ikosi
- b) Ijtimoiy rivojlanish hususiyati
- s) Tabiatga hos tushuncha
- d) Faqat insonga hos tushuncha

61.XVII asr ingliz olimi E.Berkning fikricha ulugvorlik tuygusining manbai-...

- a) go'zallik,nafosatlilik
- b) dahshat yoki shunga o'hshash tuygular qo'zgotadigan barcha narsalar, voqea-hodisalar
- s) Ijtimoiy munosabat
- d) Estetik lazzatlanish

62.Ingliz estetik tadqiqotchisi G.Houmning fikricha ulugvorlik...

- a) go'zallik bilan qarama-qarshi
- b) Dahshat yoki shunga o'hshash tuyg'ularni vujudga keltiradi
- s)go'zallikdan faqat o'zining ko'lami bilan farq qiladi
- d) go'zallikdan faqat o'zining ko'lami bilan farq qiladi va tabiiy his-tuygular uygotadi

63.Ulugvorlikni faqat inson ruhida mavjud deb tushuntiruvchi nemis faylasufi

- a) I.Kant
- b) F.Gegel
- s) L.Feyerbax
- d) Fixte

64.Gegel fikricha ulugvorlikning eng yorqin ifodasi-bu...

- a) Tabiat hodisalari
- b) Diniy va ilohiy san'at
- s) Me'morchilik,san'at
- d) Go'zal narsalar

65.A.Navoiy fikricha qahramonlik...

- a) Mardlikda
- b) Ulugvorlikda
- s) Halol mehnatda
- d) Yahshi ahloqiy aqidalarga doimiy tarzda amal qilishda

66.Asarlarida fojeali va kulgili tomonlarni bir-biriga boglab yozgan yozuvchi.

- a)Shekspir
- b) Sofokl
- s) Rasin
- d) Vishnevskiy

67.Arastu fikricha fojeali his-tuygu -...

- a) Achinish,kurkuv va shodlikning o'ziga xos qorishmasidan iborat
- b) Qaygu va tushkunlik
- s) Achinish va kurash
- d) Yashash va kurash

68.Qaysi davr estetikasida «Fojianing manbai-insonning o'zi,uning yerdagi hayoti,o'z maqsadi sari intilayotgan odamlar to'qnashuvi»-degan goya ilgari surilgan?

- a) Yunon estetikasi
- b) Evropa Uygonish davri estetikasi
- s) Sharq Uygonish davri estetikasi
- d) Rim estetikasi

69.Shekspir o'zining asarlarida qanday inson timsolini gavdalantiradi?

- a) Kuchli,jasoratli,gururli,erkin barqaror inson
- b) Ehtirosli,aqli inson
- s) Olijanob,odobli inson
- d) Qarama-qarshi harakterli inson

70.Hodisa kulgiga aylanishi uchun...

- a) U yoki bu tarzda inson bilan boglanishi ular o'rtasida munosabat paydo bo'lishi lozim
- b) Qiziqarli bo'lishi lozim
- s) Go'zal bo'lishi lozim
- d) Hunuk bo'lishi kerak

71.Kulgililikni Arastu qanday ta'riflagan?

- a) Hunuklik va go'zallik o'rtasidagi ziddiyat ifodasi
- b) Kutilayotgan voqeylikning ahamiyatliligi va natijaning arzimastiligi
- s) Timsol va goya
- d) behosdan sodir bo'lgan jonli muloqot natijasi

72.G'arb va Sharq mutafakkirlarini estetik qarashlarida kulgililik nima bilan bog'liq mulohaza qilinadi?

- a) Ulugvorlik bilan
- b) Pastkashlik bilan
- s) Go'zallik bilan
- d) Hunuklik bilan

73.Kulgulilikning ichki ma'nosi-bu...

- a) Hazil (yumor) tuygusi
- b) Sezgi holati
- s) qoniqish hissi
- d) Aniqlik hissi

74.Kulgi hayotni sof fiziologik-jismoniy idrok etish ifodasi bo'lib hizmat qiladigan odamlar uchun...

- a)To'yimli va mazali ovqatlanishdan rohatlanish
- b)Boylikka ega bo'lish
- s) Tabiat qo'ynida orom olish
- d) Narsalarni tashqi ko'rinishi

75.Kulgililikning har hil ko'rinishlari san'atning qaysi turidan boshqa hamma turlarida namoen bo'ladi?

- a) Xaykaltaroshlik
- b) Me'morchilik
- s) Grafika
- d) Teatr

76.Komik asar hayotning qaysi tomonlarini ochib berishga xizmat qiladi?

- a) Qarama-qarshilik tomonlarini
- b) Beor, laganbardor, munofiq odamlarni
- s) Kulgili beuhshovliklarni, orzuga muvofiq kelmasligini
- d) Davoning ijobiy tomonlarini

77.Komediyaning bosh vazifasi?

- a) Insonlarda hayotdagi kulgililikni ilgab olish va hazil tuygusi fazilatini rivojlantirish.
- b) O'z-o'zini tanqid qilish
- s) Yaramas odamlarni fosh qilish
- d) Hunuk hodisalarni ko'rsatish

78.Hazil-hajviya kulgu mavzusi...

- a) Ijtimoiy kulgi
- b) Sodda kulgi
- s) Achchiq kulgi
- d) Istehzoli kulgi

79.Hazil-hajviya kulguning hususiyati

- a) Qoralashdan ko'ra ko'proq yordam ko'rsatishga mo'ljallanishi
- b) Qoralash
- s) Inkori qilish
- d) Tanqid qilish

80.Qadimgi yunonlar san'at deb nimani bilganlar?

- a) Musiqa,raqs,nazmni
- b) Tasviriy san'at,kasallarni davolashni
- s) Rasm chizish va raqsni
- d) Grafika va haykaltaroshlik

81. San'at so'zi-bu...

- a) Voqeylikni badiiy timsollar vositasida ijodiy aks ettirish
- b) Voqeylikni qonunlar orqali tushuntirish
- s) Voqeylikni tushunchalar asosida aks ettirish
- d) Voqeylikni ahloqiy normalar bilan ifodalash

82.Badiiy faoliyat shakllari nimaning zaminida vujudga kelib rivojlanib borgan?

- a) Inson mehnati
- b) Tabiati
- s) Jamiyati
- d) Qurol va vositalar

83.Badiiy faoliyatning ilk shakllari qanday vazifalarni bajargan?

- a) Uyushtiruvchilik, birlashtirish
- b) Mehnat qilish
- s) Ongning rivojlanishi
- d) Mehnat qurollarini takomillashtirish

84.San’at insonning qanday ehtiyojlarini qondirib kelgan?

- a) Ijtimoiy
- b) Tabiiy
- s) Moddiy
- d) Ma’naviy

85.San’at ijtimoiy ongning qaysi shakllari bilan bog’liq va o’zaro aloqada bo’ladi?

- a) Ahloqiy ong
- b) Diniy ong
- s) Barcha shakllar
- d) Estetik ong

86.San’atning bilish jarayonidagi burch vazifasi qaysi turi vositada ko’zga tashlanadi?

- a) Badiiy adabiyot
- b) Teatr
- s) Musiqa
- d) Kino

87.San’atda bosh mavzu nima?

- a) Tabiat
- b) Jamiyat
- s) Inson qiyofasi
- d) Binolar

88.San’at qanday qudratga ega?

- a) Hissiy ta’sir etish, ko’rsatish, tarbiya berish
- b) Ruhiy holatiga ta’sir etish
- s) Aqliy qobiliyatini rivojlantirish
- d) Ishchanlik qobiliyatini yuzaga keltirish

89.San’at tirikligi...

- a) Tabiat bilan
- b) Ranglar bilan
- o) Ohanglar bilan
- d) Jamiyat bilan

90.Tasviriy san’atning natyurmort turi nimalarni tasvirlaydi?

- a) Mevalarni, gullar, taomlar, ichimliklarni
- b) Jonli va jonsiz narsalarni
- s) Darahtlar, tog’lar, daryoelarni
- d) Osmono’par binolarni

91. San'at va ahloq munosabatlari masalasiga estetika necha uslubda yondoshgan?

- a) Uch uslubda
- b) Besh uslubda
- s) Ikki uslubda
- d) Turt uslubda

92. San'atda ahloqiylik bilan ahloqsizlikni birlashtirish uslubini ilk bor asoslab bergan mutafakkir?

- a) Arastu
- b) Sokrat
- s) Aflotun
- d) Demokrit

93. San'atning bosh hususiyatini nima belgilaydi?

- a) badiiy qiyofa
- b) Ranglar
- s) Ohanglar
- d) Inson kechinmalari

94. Badiiy qiyofaning ob'ektiv tomoni...

- a) Voqea hodisalar, turli vaziyatlar, to'qnashuvlar
- b) His-tuygular, o'y-hayollar
- s) Orzu-umidlar
- d) Estetik baholash va kechinmalar

95. Badiiy qiyofa yaratishning sub'ektiv tomoni...

- a) San'atkor ijodiy yakkahonligi
- b) Halqchilligi
- s) Ommaviyligi
- d) Ijtimoiyligi

96. Sahna asarlarida badiiy qiyofa kimning namoyon bo'lishini yuzaga chiqaradi?

- a) Akter ijrosi
- b) Rejissyor
- s) Dramaturg
- d) Rassom

97. San'atda shakl yaratishning muhim qismi...

- a) Vazn, qofiya, ohang (ritm)
- b) Goyalar, his tuygular
- s) Go'zal narsalar
- d) Ranglar, ohanglar

98. Tasviriyy san'atda tasviriyy tizim yoki ifodaviy vosita

- a) Hajm o'lchash
- b) Ohang, maqom, vazn
- s) Rang, yorug'lik, chiziq, nur-soya
- d) Mutanosiblik

99. Haykaltaroshlik qaysi qonunlarga bo'ysunadi?

- a) Fizika qonunlariga
- b) Anatomiya va fiziologiya qonunlariga
- s) Masofa-o'lchov qonunlariga
- d) Ovoz tebranish qonunlariga

100. Qadimgi Misrda qaysi san'at turi rivojlangan?

- a) Rang tasvir
- b) Me'morchilik
- s) Musiqa
- d) Amaliy san'at

101. Islom Sharqida ilk Uygonish davrida qaysi san'at turi rivojlangan?

- a) Nazm va me'morchilik
- b) So'z san'ati
- s) Musiqa
- d) Tasviriyy san'at

102. San'atni qanday ko'rinishlarga bo'lib o'rganish mumkin?

- a) Fazoli
- b) Vaqtli
- s) Fazoli, vaqtli, fazoli-vaqtli
- d) Korishma (sintez)

103. Badiiy adabiyotning o'ziga hos turlari

- a) Epik, lirik, dramatik
- b) Ogzaki va yozma
- s) Doston, roman
- d) Ruboiy, g'azal

104. Tasviriyy san'at voqeylikni qanday in'ikos ettiradi?

- a) Fazoli
- b) Vaqtli
- s) Fazoli-vaqtli
- d) Vaznli

105.Tasviriy san'at nur va soya uygunligining o'ziga hos hususiyatlarini tasvirlay olgan musavvir...

- a) Rembrant
- b) Leonardo va Vinchi
- s) Rafael Santi
- d) Repin

106.Musiq san'ati qanday idrok qilinadi?

- a) Ko'rish orqali
- b) Eshitish orqali
- s) Tomosha qilish orqali
- d) Ko'zatish orqali

107.Ifodali san'at turlari...

- a) Bezakli-amaliy,me'morchilik va musiqa
- b) Tsirk,raqs,estrada
- s) Teatr,kino
- d) Amaliy ,kino

108.Tomosha qorishma san'at turlari...

- a) Teart, tsirk, kino,"oynai jahon"
- b) Memorchilik,haykaltaroshlik
- s) Grafika,musavvirlik
- d) Halq amaliy san'ati

109.O'zbekistonda "oynai jahon" ko'rsatuvlari qachon ish boshlagan?

- a) 1950 yil
- b) 1953 yil
- s) 1956 Yil
- d) 1957 yil

110.Estetik tarbiya insonlarning qaysi jihatlarini shakllantiradi?

- a) Estetik ong va estetik didini
- b) Badiiy ongini
- s) San'atni tushunishni
- d) Voqeylikni bilishni

Tayanch tushunchalarning qisqacha lug'ati.

Abstraktsionizm – (lotinchadan – abstractio mavhum, uzoqlashish) - XX asr san'atidagi yo'nalishlardan biri, asosan tasviriyl san'atda real voqelikdagi shakllarni aks ettirishdan voz kechish uslubi.

Avangardizm – (frantsuzchadan – avantgarde eng oldingi)- XX asr san'atidagi yo'nalishni izohlovchi termin. Bu yo'nalish asosan tasviriyl san'at sohasida real an'analaridan uzoqlashib, badiiy shakllarni chizish usullari, estetik printsiplarni tanlashda o'ziga hos uslubdan foydalanishni bildiradi.

Arxitektura- (yunonchadan – architertion quruvchi) – san'at turi, insonlarning estetik ehtiyojlarini qondiruvchi qurilishlarni barpo etish.

Ansambl- (frantsuzchadan – ensemble – bir butun, yahlit)-badiiy yahlitlik belgisi bilan birgalikda tasavvur etiladigan ko'p asosli majmua. Musiqaviy ansambl, sahna ansambli, arxitektura ansambli, saroy – park ansambli kabilar

Balet- (frants. –ballet, lotinchadan - ballo – o'ynayman) – musiqali teart turi. Balet – qorishma san'at turlariga kiradi.

Garmoniya – (yunonchadan garmoniya – hamohanglik, tartibsizlikka qarama-qarshi) – falsafiy estetik tushuncha, tartiblilik, butun qismlarning o'zaro uygunligining yuqori darajasini bildiradi, go'zallik, mukammallikning estetik mezonlariga mos keladi.

Gedonizm – (yunonchadan –hedone – lazzatlanish, qoniqish) badiiy ijod jarayonini o'z hissiy dunyosidan kelib, san'at asarlarining ma'naviyligiga ziyor etkazish an'anasiga asoslangan.

Geniy- (lotinchadan-genius- ruh, qo'riqchi) – san'atda badiiy iste'dodning eng yuqori darajasi, iste'dod egasi.

Gotika – (italyanchadan gotico – gotlar, vahshiylik) – XII-XV asrlarda G'arbiy Evropa san'atida, hususan arxitekturada qo'llanilgan usul. Gotikaga arxitektura va haykaltaroshlikning uygunligi asosida yaratilgan asarlar kiradi.

Grafika – (yunonchadan grapho-yozaman, chizaman, yasayman) – tasviriyl san'at turi.

Gratsiya – (lotinchadan dratia – jozibador, nafis) – go'zallikning turlaridan bo'lib, harakat go'zalligini yoki go'zal harakatni o'zida aks ettiradi.

Dekorativ – amaliy san’at- (lotinchadan decoro -bezayman) san’at turi bo’lib, hayotni yanada go’zallashtirishga hizmat qiladigan, bir vaqtning o’zida estetik ehtiyojlarni qondiradigan insonning kundalik ehtiyojlaridan kelib chiqqan san’at turi.

Dizayn – (inglizchadan design – loyixa, chizma) – predmet, buyumlarni shakllantirishga qaratilgan badiiy-texnik faoliyatning loyixalash turi.

Drama – (yunonchadan drama - harakat)- sahnada ko’rsatishga mo’ljallangan san’at asari, tragediya, melodrama, fars, komediya turlariga bo’linadi.

Janr – (frantsuzchadan genre – tur, hil)-voqelikni badiiy aks ettirishda konkret imkoniyatlarning ko’pligi bilan shartlangan har bir san’atga hos bo’lgan bo’lim.

Ideal – (yunonchadan idea – goya, birlamchi tasavvur) – estetik ong turi, zaruriyat va istakning o’zaro uygunligi.

Impressionizm – (frantsuzchadan – impression – taassurot, ta’sirlanish)- XIX asr ohiri va XX asr boshlarida tasviriy san’at, badiiy adabiyot, musiqa va badiiy suratkashlik sohalaridagi kuzatilgan yo’nalish. Impressionistlar rasmiy va honaki san’atga qarama-qarshi kundalik hayot go’zalliklarini bayramona tasvirlanishni ixtiyor etganlar.

Improvizatsiya – (lotinchadan improvisus - kutilmagan)- dastlabki tayyorgarliksiz badiiy asar yaratish va ijro etishda ijodiy yondashish usuli, yoritilayotgan mavzuga oid hayoliy narsalar o’ylab topmoq.

Interpretatsiya – (lotinchadan interpretatio – izohlash, tushuntirish)- badiiy ijod jarayonining va san’at asarlarini tushunishdagi zarur qism bo’lib, talqin qilmoq degan ma’noni anglatadi.

Ironiya- (yunonchadan eironeia - sohtalik)-falsafiy-estetik tushuncha bo’lib, voqea, hodisa, predmetlarni voqelikda va san’atda keskin tanqid ostiga olish, ularni ko’rinib turgan ijobiy tomonlar orqasidan maktash o’rniga, in’kor etish va kulish.

Kanon-(yunonchadan canon-me’yor, qoida)-san’atda hukm suradigan me’yorlar, qoidalar yigindisi yoki biror bir badiiy yo’nalishning, san’atning konkret turlarining asosiy qonuniyatlarini o’zida mustahkamlovchi me’yorlar, qoidalar yigindisi.

Katarsis – (yunonchadan catharsis - poklanish)- antik estetika termini, san’atning inson ruhiyatiga estetik ta’siri.

Karnaval- (frantsuzchadan, carnawal – manzarali tamosha)-bayram tamoshasi, ommaviy halq o'yinlari, bunda barchaning kundalik hulq-atvori qarama-qarshi tomonga o'zgartiriladi, shu jumladan ta'qiqlangan so'zlarni ishlatishga ruhsat etiladi.

Kino – XX asr san'at turlaridan biri, 1895-1896 yillarda eng birinchi fotosuratlarini harakatga keltirish va uni katta ekranga chiqarish boshlangan.

Klassika – (lotinchadan classicus – mukammal, namunaviy) -keng ma'noda birinchidan tengi yo'q estetik qiymatga ega bo'lgan jahon va mamlakat madaniyatining badiiy merosi. Ikkinchidan, san'at tarixida badiiy namuna darajasiga erishgan va noyob asar sifatida qadrlanadigan mukammal san'at asarlari. Uchinchidan, qadimdan kelayotgan san'at asarlarini anglatadi.

Klassitsizm – XVIII asrda Evropada san'atda yuksak rivojlanishga erishgan yo'nalish, badiiy uslub va shunga asoslangan estetik ta'limot.

Kollaj – (frantsuzchadan collage – tom ma'noda qiyib yopishtirish.) XX asr boshlarida Evropada tasviriy san'at sohasida predmetlarning rang tusiga qarab qirqib yopishtirish usuli. (Gazeta, afina, devor qogozlari, kinotasma, musiqa va boshqa shu kabilarni).

Komediya – (yunonchadan - comodia)-dramaning janr turlaridan biri bo'lib, sub'ektda kulguning turli hillarini keltirib chiqaradi.

Komik – (inglizchadan comics kulguli) – tabiatan kulgu hosil qiladigan odam.

Kompozitsiya- (lotinchadan compositio – to'zish, birlashtirish,) – badiiy ishlab chiqarishning tarkibiy qismlarining o'zaro munosabati bo'lib, barcha san'at turlariga hos.

Lirika – (yunonchadan lyricos – so'z yordamida jo'r bo'lish) – poeziyaning bir turi bo'lib, shoirning hissiyoti va kechinmalarini ifodalaydi.

Manera – (italyanchadan maniera) – alohidagi muallifning qandaydir san'at asarini yaratish uslubi, xususiyatlari, hatti-harakatlari majmui.

Melodiya – (yunonchadan melodia –kuylash, jo'r bo'lish, qo'shiq)-musiqada tovushlarning ketma-ketligida paydo bo'ladigan musiqaviy janr.

Metafora – (yunonchadan metarhora –ko'chirish)- dunyoni estetik anglash usuli, san'atda obraz yaratish vositasi bo'lib, uning asosida predmetlarni ma'nosini ko'chirish va yangilarini hosil qilishdir.

Mimesis – (yunonchadan minesis – taqlid qilish, qayta hosil qilish) – antik davr estetikasiga hos bo'lib, rassomning ijodiy faoliyatining asosiy tamoyilidir.

Miniatyura – (lotinchadan minium mu'jaz surat)-tasviriy san'at janri, kitobga ishlangan surat yoki kichik hajmdagi nafis tasvir.

Moda – davriy ravishda paydo bo'ladigan va takrorlanadigan, madaniyatning tashqi shakllarining qisman o'zgarishi bo'lib, iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ahloqiy, estetik faktorlar ta'sirida yuzaga keladi.

Modernizm – (frantsuzchadan moderne - zamonaviy, yangi)-XX asrning 20 yillarida yuzaga kelgan badiiy-estetik yo'nalish.

Montaj – (frantsuzchadan - montage- yig'ish, tayyor qismlarni birlashtirish.)- fazoli-vaqtli kompozitsiya yaratish usullaridan biri.

Monument – (lotinchadan monumentum - yodgorlik) – tasviriy san'at uslublaridan biri bo'lib, yodgorliklar, haykallar, tasviriy va mozaika shaklida binolarni bezashda ishlatiladi.

Pantomima – (yunonchadan pantominos – taqlid qilish orqali hosil qilish) – teatr san'atining bir turi bo'lib, hatti-harakatlarni imo-ishoralar orqali so'zsiz ifodalash.

Parodiya – (yunonchadan parodia – teskarisiga kuylash) – satirik yoki yumoristik hususiyatga ega bo'lgan badiiy ishlab chiqarish mahsuli bo'lib, san'atda biror badiiy asar yoki bir butun yo'nalishning ustidan kulishga mo'ljallangan.

Pafos-(yunonchadan pathos-hissiyot, ehtiros, qo'zgotish) -badiiy asarlarda aks ettirilgan narsani goyaviy-hissiy anglash va baholash bo'lib, uni qabul qilayotgan odamlarga emotsional ta'sir etish.

Personaj - (lotinchadan persona – niqob, bashara) – insonning badiiy obrazi bo'lib, muayyan vaziyatdagi hatti-harakatlari yig'indisi.

Proportsiya – (lotinchadan proportio - uygunlik) predmet yoki hodisalarning qismlari o'rtasidagi qonuniy uygunlik.

Publika – (lotinchadan publicus - jamoat)-san'at asarlaridan bahramand bo'ladigan ijtimoiy-ruhiy jamoat.

Realizm – (lotinchadan realis – moddiy, haqiqiy) – badiiy tamoyil bo'lib, badiiy asarlarni yaratishda haqiqiy voqelikni aks ettirib, ijtimoiy-tarixiy nuqtai –nazardan yoritib berish.

Ritm – (yunonchadan rhythmos – me'yoriy oqim)- san'atda shakl yaratish vositalaridan biri bo'lib, fazoda yoki vaqtda takrorlanish hususiyatlariga buysunadi va me'yoriy intervallar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadi.

Renessans – (frantsuzchadan renaissance - uygonish)- jahon madaniyati va san'atida eng yirik eralardan biri bo'lib, feodalizmdan kapitalizmga o'tish bosqichini, dunyoviy madaniyatning shakllanishi, insonparvarlikni anglash jarayonining boshlanganligini o'zida aks ettiradi.

Ritorika – (yunonchadan rhetor – soʻz ustasi) – antik davrda shakllangan boʻlib, soʻz sanʼati haqidagi ilm.

Rok – (inglizchadan –rock – tebranish, sakrash)-hozirgi zamon yoshlarining musiqa madaniyati boʻlib, rok-n-roll va bit musiqaga asoslanadi.

Sarkazm – (yunonchadan sarqazo – tom maʼnoda goʻsht oʻpirish)-satira yoʻnalishidagi zaharli va achchiq kesatish.

Satira – (lotinchadan – satire- manfaatparast)-komiklikning bir turi boʻlib, narsa va hodisalar ustidan zaharli va achchiq kulish.

Simmetriya- (yunonchadan symmetria – teng tomonli)-tasviriy sanʼat, dekorativ-amaliy va arhitekturada badiiy asarlar yaratishda qoʻllanadigan uygunlantirish tamoyili.

Skulptura- (lotinchadan sculpo –uyib ishlayman)-tasviriy sanʼat turi boʻlib, koʻpincha odam yoki hayvonlar figuralarini tasvirlash.

Stil – (yunonchadan stylos-tayyoqcha, yozish uchun magiz)-qiyofa yoki obraz yaratishda badiiy koʻrinishning usuli boʻlib, hayotiy amaliyotda barcha sanʼat turlarida hosil boʻladi.

Syujet – (frantsuzchadan sujet – mavzu, buyum)- sanʼat asarlarining kuchli jihatlari: harakatlarning butunligicha yoritilishi, insoniy munosabatlarning- odatlarning, kechinmalarning, hususiyat va harakterlarning yoritilishi, personaj va vaziyatni ifodalash.

Teart – (yunonchadan theatron –tamosha uchun joy)- sanʼat turi, tamosha koʻrsatadigan joy.

Televedeniya- (yunonchadan tele – uzoqdan, uzoqqa)-koʻrinishga moʻljallangan sanʼat turi va ommaviy-axborot vositasi.

Tragediya – (yunonchadan tragedia)- dramatik asarning turlaridan biri boʻlib, fojiaiy toʻqnashuvlar asosida yoritiladigan sanʼat asari.

Xoreografiya – (yunonchadan choreia uyin va grapho -yozaman)-raqs sanʼati, dastlab oʻyinlarni yozish, keyinroq esa oʻyinlarni oʻylab chiqarish maʼnosida ishlatilgan.

Tsirk – (lotinchadan circus - aylana)-sanʼat turi boʻlib, badiiy qiyofa yaratishda harakatlanish, akrobatika, tryuk, akterlik mahoratidan foydalaniladi.

Shedevr- (frantsuzchadan – cher-doeuvre-namunaviy sanʼat asari)-eng mukammal yaratilgan sanʼat asari.

Shlyager- (nemischadan shlager-tom maʼnoda mavsum mihi, jangari) ayni paytda muvaffaqiyat qazongan estrada qoʻshigʻi yoki musiqa asari.

Shou –(inglizchadan show-tamosha, ko’rsatish)- garb davlatlarida qandaydir tadbirni o’tkazishda shovqin suronli qilib o’tkazish. Masalan: go’zallik konkursleri, turli hil mukofotlarni ta’sis qilish va topshirish marosimlari.

Estetika- (yunonchadan - aistheticos- sezaman, his qilaman)-go’zallik qonunniyatlarini va tabiat qonunlarini go’zallik asosida tushuntirib beruvchi va o’rgatuvchi fan.

Yumor –(inglizchadan humour-tantiklik, fe’l, kayfiyat) – komiklik turi bo’lib engil va hazil kulgu.

Мундарижа.

Kirish	4
1-mavzu: Estetika fanining bahs mavzusi, maqsadi va vazifalari.....	6
2 – mavzu: Qadimgi Sharq va Evropa mamlakatlarida estetik qarashlar tarihi.....	12
3-mavzu: Markaziy Osiyoda estetik tafakkur taraqqiyoti.....	26
4- mavzu: Estetik ong va estetik faoliyat.....	35
5- mavzu: Dizayn - bir butun estetik muxitni tashkil etish san’ati.....	42
6- mavzu: Asosiy estetik tushunchalar	52
7– mavzu: Mustaqillik ma’naviyati va estetik madaniyat.....	61
8- mavzu: San’at va ijtimoiy hayot.....	68
9 – mavzu: San’atning estetik mohiyati.....	74
10 - mavzu: San’at turlari.....	80
Chizmalar va ilovalar.....	92
Buyuk donishmandlar go`zallik haqida.....	95
Estetika fanidan test savollari.....	103
Tayanch tushunchalarning qisqacha lug’ati.....	121